MDIS Tashkent

MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



VOLUME 3, ISSUE 3

Management Development Institute of Singapore in Tashkent

International scientific journal Management, Marketing and Finance

VOLUME 3 ISSUE 3
APRIL 2026

“Menejment, marketing va moliya” xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil 3-soni

ISSN 3030-3745 | WWW.JMMF.UZ

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 27-sentabrdagi 361/5-sonli qaroriga muvofiq dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Texnika, iqtisodiyot, yuridik (huquq) fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Tashkent 2026

ISSN 3030-3745
"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil 3-soni – 2026-yil aprel.

Tahrir hay'ati

Tahrir hay'ati raisi

Mamatkulov Ilhom Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d.*

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Ishanxodjayeva Dildora Aleksandrovna	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro munosabatlar bo'yicha direktor, i.f.f.d. (PhD)*

Tahrir hay'ati mas'ul kotibi

Hasanov Tohir Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti konsultanti, i.f.d., dotsent.*

Tahrir hay'ati a'zolari

Eric Kuan	*Singapur menejmentini rivojlantirish instituti prezidenti (MDIS, Singapore), PhD, professor.*
Paul van Gardingen	*Bangor universiteti prorektori (Bangor University, UK), PhD, professor.*
Abigail Moriarty	*Sanderland universiteti Markaz rahbari (University of Sunderland, UK), PhD, professor.*
Rob Burton	*Tissayd universiteti decani (Teesside University, UK), PhD, professor.*
Mamatkulov Abdurashid	*Toshkent davlat agrar universiteti professori, i.f.d., professor.*
Bektemirov Abdumalik	*Samarqand iqtisodiyot va instituti kafedra mudiri, i.f.d., professor.*
Raxmonov Nuriddin	*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti dekani, PhD*
Aliyeva Deniza	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.d.*
Abdullayev Baxrom	*Urganch davlat universiteti rektori, fiz-mat.f.d.,dotsent.*
Raximxodjayeva Nodira	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dekani, i.f.f.d.*
Xo'jayev Jamol	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, t.f.f.d.*
Kurbonova Dilafruz	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.f.d.*
Bektemirov Abduxamid	*Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD.*
Veluthedan Sreekanth	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Alekha Panda	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Firas Halawani	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Maged al Dubai	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Manjunath Bharmappa Ramesh	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*

"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnalida har bir maqolaga DOI raqam olinib, Polshaning Indeks Copernikus (OAK12), Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberlinenka, Angliyaning Europub xalqaro ilmiy bazalariga va www.jmmf.uz saytiga joylanadi, Google akademiya xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi.

© Management Development Institute of Singapore in Tashkent
© International Scientific Journal "Management, Marketing and Finance"
© Authors

KIRISH SO‘ZI

Ma’lumki, bozor munosabatlari hukmron bo‘lgan iqtisodiy tizimda erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishda marketing faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida marketing nafaqat mahsulotni sotish vositasi, balki korxona va tashkilotlar strategik boshqaruvida muhim rol o‘ynovchi mexanizm sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, marketing — bozorda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish vositalari, mahsulot ishlab chiqarish va uni bozorga olib chiqishdagi tizimli yondashuvlar, bozor muhitidagi o‘zgarishlarga moslashish, xaridorlarga tabaqalashtirilgan yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish, innovatsion va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish, kon’yunktura o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda marketing kommunikatsiyalarini, xususan reklama va PR faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ta’lim sohasiga, xususan oliy ta’lim tizimiga berilayotgan keng ko‘lamli e’tibor natijasida marketing fani zamonaviy bilim sohasi sifatida shakllanmoqda. Bozor iqtisodiyotida marketing tamoyillarining qo‘llanilishi, u orqali yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham marketing yondashuvlari muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona va tashkilot marketing strategiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi orqali raqobatbardosh ustunlikka erisha oladi.

Ayniqsa**, “Management, Marketing and Finance” (“Menejment, Marketing va Moliya”)** nomli xalqaro ilmiy jurnal sahifalarida chop etilayotgan maqolalar orqali mamlakatimizda turli sohalarda marketing yondashuvlarining amaliy samaradorligi chuqur tahlil qilinmoqda. Bu esa, marketingning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

I. Mamatkulov,
Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d., professor

On April 1 of the current year, a roundtable discussion titled “The Economic Benefits of English Literacy in the Global Tourism Market” was held at the Management Development Institute of Singapore in Tashkent. The event was initiated by the Tourism and Hospitality School in collaboration with the Language and Communication School. The roundtable brought together representatives from leading institutions in tourism and hospitality, English Language Teaching (ELT), English for Specific Purposes (ESP), and linguistics. Among the participants were delegates from Central Asian University, Uzbekistan State World Languages University, and Millat Umidi University, alongside other organizations specializing in continuing and professional education. Discussions during the event focused on several key themes, including the importance of English literacy in the global tourism industry, the role of emotional intelligence in service delivery, the impact of digitalization, effective crisis management skills for managerial performance, and strategies for enhancing service quality. Participants emphasized the growing influence of English proficiency on workforce competitiveness and shared practical recommendations aimed at strengthening language skills within the industry.

The roundtable highlighted that English literacy is a critical driver of economic growth in tourism and hospitality. Particular attention was given to the need for improving employees’ language proficiency as a means of increasing service standards and enhancing international competitiveness. Participants concluded that promoting and expanding English language learning is essential for aligning with future industry trends and maximizing economic benefits in the global tourism market. Overall, the event reinforced the strategic importance of English literacy in workforce development and underscored its role in supporting sustainable growth within the tourism and hospitality sector.









Joriy yilning 8-aprel kuni Angren shahar 4-son texnikumi vakillari Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga (TSMRI) tashrif buyurishdi. Tashrif davomida ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim masalalar muhokama qilindi va bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi.

Xususan, TSMRI hamda Angren shahar 4-son texnikumi o‘rtasida tuzilgan memorandum doirasida texnikumda Turizm fakultetini tashkil etish va xorijiy ta’lim dasturlari asosida o‘qitish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlar mustahkamlandi.

Shuningdek, Toshkent viloyatida ta’lim va turizm yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun TSMRI bazasida bakalavr, magistratura, PhD hamda doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash va himoya qilish jarayonlarida amaliy yordam ko‘rsatish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Ushbu tashabbuslar hududda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida mehmonlar uchun TSMRI kampusi bo‘ylab tanishtiruv (campus tour) tashkil etildi. Unda zamonaviy o‘quv infratuzilmasi, ta’lim jarayonlari va talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniyati yaratildi.





“TALABALAR LIGASI – 2026” NING SHAXMAT BO‘YICHA SHAHAR BOSQICHI

2026-yil 9–10-aprel kunlari Amir Temur bobokalonimiz xotirasiga bag‘ishlangan “Talabalar ligasi – 2026” ning Shaxmat bo‘yicha shahar bosqichi Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutida yuqori saviyada tashkil etildi.

Mazkur yirik sport tadbirida 44 ta oliy ta’lim muassasasi vakillari ishtirok etib, kuchli raqobat, sport ruhi va do‘stona muhit namoyon bo‘ldi. Institut yana bir bor yirik sport musobaqasiga mezbonlik qilib, talabalar sportini rivojlantirishdagi faol ishtirokini tasdiqladi.

Tadbirning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, institut rektori Ilhom Mamatkulov musobaqada shaxsan ishtirok etib, g‘olib va sovrindorlarni o‘zi taqdirladi. Bu esa musobaqaga alohida nufuz va ko‘tarinki ruh bag‘ishladi.

Eng quvonarlisi, ushbu bosqich g‘oliblari musobaqaning keyingi Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi, bu esa ularning yuksak mahorati va munosib natijasining yorqin ifodasidir.









Joriy yilning 15-aprel kuni Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish va ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan profilaktik tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni institut rektori ochib berib, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va huquqbuzarliklardan yiroq bo‘lishi muhimligini ta’kidladi.

Uchrashuvda IIV Akademiyasi magistratura tinglovchisi, podpolkovnik X. Javlonov “yoshlar o‘rtasida bezorilik va tan jarohati yetkazish jinoyatlarining oldini olish” mavzusida ma’ruza qildi. Ma’ruza davomida talabalarga ushbu jinoyatlarning huquqiy oqibatlari, javobgarlik choralari hayotiy misollar asosida tushuntirildi.

Shuningdek, yoshlar nizoli vaziyatlarda hissiyotlarga berilmasdan, qonun doirasida harakat qilishga chaqirildi. Tadbir ochiq muloqot tarzida o‘tib, talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassisdan batafsil javoblar oldilar.









MDIS Tashkent hosted the Students/Staff Liaison Committee Meeting on April 17, 2026, a key platform for fostering collaboration and enhancing the quality of education. During the meeting, students actively engaged by sharing insightful ideas and concerns regarding the ongoing second semester of the 2025-2026 Academic Year.

The meeting provided an excellent opportunity for students to voice their opinions and contribute to the ongoing improvement of educational programmes and services.

The MDIS Tashkent administration is committed to carefully reviewing all student feedback and addressing the concerns raised. Special attention will be given to areas that require improvement, with the development of appropriate strategies to ensure a better learning environment.









ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Маматкулов Илҳом Абдурашидович
Тошкент шаҳридаги Сингапур менежментни
ривожлантириш институти ректори, и.ф.д., доц.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647836

Аннотация. *Мазкур мақолада туризм соҳаси мамлакатимиз тараққиётининг ҳозирги босқичида ижтимоий, иқтисодий, маданий-маърифий, сиёсий ва бошқа муносабатларни қамраб олувчи тизим сифатида намоён бўлаётгани, соҳадаги субъектлар ўртасида муносабатлар кенг қамровли ва мураккаб бўлиб, уларни аниқ, қатъий ўрнатилган ва барқарор ҳуқуқий нормалар билан тартибга солмасдан туризмдан кўзланган мақсадга эришиш мураккаблиги, туризм хизматлари соҳасини ривожлантиришнинг таркибий қисмлари, унинг мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришдаги ўрни ҳамда меҳнат муносабатларини ривожлантиришдаги роли ва бошқа шу каби долзарб масалаларига эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *туризм, туризм салоҳияти, тараққиёт параметрлари, модернизация, диверсификация, стратегия, ихтисослаштириш, ташқи ва ички туризмни ривожлантириш.*

Хизматлар соҳаси жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида ижтимоий, иқтисодий, маданий-маърифий, сиёсий ва бошқа муносабатларни қамраб олувчи тизим сифатида намоён бўлмоқда. Шу сабабли соҳадаги субъектлар ўртасида муносабатлар серқирра, кенг қамровли ва мураккаб муносабатлар бўлиб, уларни аниқ, қатъий ўрнатилган ва барқарор ҳуқуқий нормалар билан тартибга солмасдан туризмдан кўзланган мақсадга эришиш жуда мураккаб. Шунингдек, туризм хизматлари соҳасида давлатлар билан давлатлар, давлатлар билан халқаро ташкилотлар, белгиланган тартибда рўйхатга олинган ва сайёҳлик хизмат кўрсатиш ҳуқуқига эга, лицензияси бўлган корхоналар, муассаса ва ташкилотлар, сайёҳларга хизмат кўрсатувчи барча жойлаштириш воситалари, умумий овқатланиш ва транспорт корхоналари, маданий-маърифий, спорт муассасалари, сайёҳлар, туристик гуруҳ раҳбарлари, экскурсия етакчилари, сайёҳларнинг хавфсизлигини таъминлаш хизмати ходимлари, туристлар ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи идоралар, ташкилотлар ва бошқа субъектлар ўртасидаги муносабат жараёнларининг самарадорлиги кўп жиҳатдан соҳанинг ташкилий-иқтисодий томондан тўғри шакллантирилганига боғлиқ. Сабаби, туризм хизматлари соҳасининг ривожланиши ташкилий жиҳатдан оптимал ва хизматлар бозори конюктурасига нисбатан эгилувчан бўлса, хизмат кўрсатиш сифати ва самарадорлиги шунча юқори бўлади.

Шунинг билан, хизматлар соҳасининг Ўзбекистон миллий иқтисодиётида тутган ўрни ва унинг пандемиядан кейинги ҳолати баҳолаш, унинг падемиядан олдинги фаол ҳолатига қайтариш ҳамда Ўзбекистон шароитида туризм хизматлари соҳасини жадал ривожлантириш Концепсияси доирасида унинг ташкилий иқтисодий механизмларини такомиллаштириш йўллари таҳлил қилиш, бу борада мавжуд муаммо ва камчиликларни бартараф этиш борасида тадқиқотларни амалга ошириш муҳим илмий ахамиятга эга.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон миллий иқтисодиётини диверсификация қилиш, ҳудудларни жадал ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш, аҳолининг даромадлари ва турмуш даражасини ҳамда мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлигини оширишдек устувор вазифаларнинг ижросини таъминлашда туризм хизматлари соҳасига муҳим стратегик тармоқ сифатида қаралмоқда. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги фармони билан тасдиқланган «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси»да туризмни ривожлантириш бўйича қўйилган мақсадли кўрсаткичларга эришишнинг етти йиллик дастурининг белгиланиши бу соҳада амалга оширилиши керак бўлган ишларнинг кўплиги ва уларни амалиётга тадбиқ қилишда барча имкониятлардан тўлиқ фойдаланишни тақозо қилади.

Ўзбекистонда туризмни тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш бўйича давлат томонидан реал ҳаётда амалга оширилаётган ва тармоқнинг улкан салоҳиятини рўёбга чиқаришга қаратилган самарали макроиқтисодий сиёсат – 2020 йилда жамият тараққиётида тўсатдан юзага келган ҳамда иқтисодий тизимларни издан чиқариб, жаҳон иқтисодий инқирозининг юзага келишига сабабчи COVID-19 нинг тарқалиши муносабати билан катта қийинчиликларга дуч келди. Табиийки, Ўзбекистонга боғлиқ бўлмаган ушбу дунёвий жараёнлар мамлакат иқтисодий ҳаётига ҳам жуда кучли салбий таъсир кўрсатди. Айниқса, ўзига хос хусусиятларга эга ва халқаро туризмнинг тараққиёти мамлакатлараро интеграцион алоқалар мустаҳкамлигига бевосита боғлиқ бўлган туризм тармоғига коронавирус пандемиясининг салбий таъсири жуда катта бўлди.

Шунингдек, бугунги кунда (пандемиядан кейин) Ўзбекистонда туризм хизматлари соҳасини жадал ривожлантириш мақсадида унга миллий иқтисодиётнинг «ўсиш нуқталаридан» бири сифатида қаралаётган бўлсада, соҳа фаолиятида фойдаланилмаётган имкониятлар, ташкилий-иқтисодий жиҳатдан камчиликлар ва муаммоларнинг мавжудлиги кўзга ташланмоқда. Ўтказилган таҳлилларга кўра, мамлакатда иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари: транспорт, меҳмонхоналар бизнеси, умумий овқатланиш, савдо-сотиқ ва бошқа маиший соҳаларда ҳам иккиламчи талабнинг юзага келиши натижасида бир қатор камчилик ва муаммоларнинг юзага келаётганлиги аниқланди. Ушбу камчиликларни қуйидагиларда кўриш мумкин:

● Ўзбекистонга ташриф буюрган ёки ички сайёҳнинг кўпчилиги геолокация тизими яхши йўлга қўйилмаганини, мамлакатга мустақил ташриф буюрувчи сайёҳ ўзи истаган жойга боришда ва истаган нарсасини топишда қийинчиликларга дуч келишини айтишган. Кейинги муҳим эътирозлардан бири бу интернет сифати ўртача кўрсаткичдан пастлиги, меҳмонхоналар, ресторан, кафе, жамоат транспортларида Wi-Fi тизими жуда заиф ишлаши ёки умуман мавжуд эмаслигидир.

● мамлакатда меҳмонхоналар ва транспорт нархи озиқ-овқат ва бошқа маҳсулотлар (кийим-кечак, ичимликлар, совғалар в.б.) билан таққосланганда анча қиммат ҳисобланади. Мамлакат ҳудудларини бир-бири билан боғлашда муаммоли вазиятлар мавжуд (масалан, туристик мавсумнинг энг қайноқ пайтларида ҳам Шаҳрисабздан Хивага тўғридан тўғри авиақатновлар йўлга қўйилмаган).

● Мамлакатга ташриф буюрган туристлар фикрига кўра, Ўзбекистонга саёҳат қилишдаги энг катта ноқулайлик рўйхатдан ўтиш билан боғлиқ. Мамлакатга кириш ва чиқиш

учун, ҳатто меҳмонхонада жойлашиш ва тарк этиш жараёнида ҳам алоҳида бланка тўлдирилади. Шунингдек, Ўзбекистонда валютани хусусий айирбошлаш шохобчалари мавжуд эмас ва уни фақат банкларда ва ихтисослашган айирбошлаш хизматларида алмаштириш мумкин. Устига устак, шанба якшанба кунлари аксарият банкларнинг фаолият юритмаслиги сабабли валютани айрбошлашнинг деярли имкони йўқ.

● Бугунги кунда ижтимоий тармоқлар реклама учун энг арзон қулай восита бўлсада, туристларнинг фикрича, унда Ўзбекистон ҳақида тўлиқ маълумот олишнинг иложи йўқ. Мисол учун, дин ишлари бўйича қўмита маълумотларига кўра, ҳозирда Туркияда 30 миллиондан зиёд Нақшбандия тариқатига эътиқод қилувчи инсонлар истиқомат қилади. Аммо ўтказилган сўровномаларга кўра, уларнинг кўпчилиги шайх Баҳоуддин Нақшбанд мақбарасининг Бухорода экани ҳақида маълумотга эга эмас .

● Ташриф буюрувчиларнинг фикрича, меҳмонхона номерларининг сифатини олдиндан билиш қийин, танлов жараёнида турли хил вариантларни бир бири билан солиштириш бироз мураккаб. Шунингдек, мамлакатда 3-4 категорияга мос келадиган сифатли жамоавий турар жой бинолари етишмайди. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш Концепциясида юқорида саналган ва ўз ечимини кутаётган муаммо ва камчиликларни бартараф этиш бўйича аниқ вазифалар ва чора тадбирлар Дастури белгиланган бўлишига қарамасдан уларнинг амалиётда ҳали ҳам мавжудлиги бир тарафдан Ўзбекистонда туризм хизматларини жадал ривожлантириш борасидаги изчил сиёсатнинг самарадорлиги паст даражада эканлигидан далолат берса, иккинчи томондан уларни жаҳонда рўй берган пандемия оқибатларининг салбий натижаси деб баҳолаш мумкин.

Демак, амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, туризм хизматлари соҳасини миллий иқтисодиётнинг муҳим стратегик соҳаси сифатида ривожлантириш, туристик хизматларни диверсификациялаш ва сифатини ошириш ҳамда туристик инфратузилмани, шу жумладан хорижий сармояларни жалб қилиш ва самарали реклама-маркетинг ишларини олиб бориш эвазига такомиллаштириш, шунингдек, Концепцияда белгиланган мақсадли кўрсаткичларга эришишда кўп жиҳатдан тармоқ иқтисодиётида давлатнинг фаол иштирокига эҳтиёж сезилади. Туризмни жадал суръатлар билан ривожлантириш давлатнинг бевосита ва фаол иштирокисиз, унинг пухта ўйланган тезкор чора-тадбирларисиз, юқори самара берувчи сиёсатисиз амалга ошмайди. Келгусида Ўзбекистон туризм хизматлари соҳасини ривожлантириш борасидаги ишлар самарадорлиги давлат ҳокимияти органлирининг туризм соҳасини бошқаришдаги иқтисодий, ижтимоий-маданий, экологик, молиявий, қиёфавий ва маркетинг нуқтаи назардан олиб борадиган сиёсатига боғлиқ.

Ўзбекистон туризм хизматлари соҳасининг тараққиётига тўсиқ бўлаётган муаммо ва камчиликларни тезкорлик билан бартараф этиш ҳамда соҳани келгусида жадал ривожлантиришда белгиланган устувор вазифаларни бажаришнинг ягона йўли соҳани аниқ тизим ва дастур асосида бошқаришдир. Бунда белгиланган устувор вазифарларнинг самарали амалга оширилиши ҳамда унинг натижадорлиги кўп жиҳатдан тизимли ёндашувга боғлиқ. Агар вазифалар қанчалик аниқ бир тизим ва дастур асосида амалиётга тадбиқ қилинса кутилаётган натижага эришиш самарадорлиги шунча юқори бўлади.

Амалга оширилиши тавсия этилаётган устувор вазифалар Ўзбекистонда туризм хизматлари соҳасини жадал ривожлантириш, уни пандемиядан олдинги фаол ҳолатга қайтариш ва жаҳон туризм бозорида муносиб ўрин эгаллашнинг муҳим омили сифатида

қаралиши зарур. Бу жараёнлардан кутилган натижага эришиш учун давлат тадбиркорлик субъектлари ва туризмга масъул давлат ташкилотлари ўртасида ўзаро муносабатлар ва ўзаро ҳамкорлик алоқаларини мувофиқлаштириб турилиши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “2019-2021 йилларда Тошкент вилоятида туризм соҳасини жадал ривожлантириш тўғрисида”ги Қарори. // www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 июндаги “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тиклаш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 433-сонли Қарори. // www.lex.uz;
3. Alieva, M. T. (2023). Development of smart tourism in Uzbekistan. “Journal of Tourism Futures” №1. P. 189-202.

ЎЗБЕКИСТОНДА МАКРОИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Маматкулов Илҳом Абдурашидович
Тошкент шаҳридаги Сингапур менежментни
ривожлантириш институти ректори, и.ф.д., доц.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647855

Аннотация. *Мазкур мақолада туризм соҳасини ривожлантириш жуда катта иқтисодий самара бериши, чунки у хорижга ресурс чиқармай (пахта, газ, нефть) валюта олиб кириш имконини бериши, кўпгина ривожланган мамлакатларда туризмдан келадиган даромад бошқа соҳаларга қараганда анча кўпроқ валюта тушумларини келтириши, Бирлашган Миллатлар Жаҳон Туризм Ташкилоти (UNWTO) маълумотларига кўра, жаҳон ЯИМнинг 10,4%и, дунёдаги инвестицияларнинг 7%и, солиқ тушумларининг 5%и, жаҳондаги истеъмолчилик харажатларининг 11%и ва ҳар 16 та янги яратилаётган иш ўрнининг биттаси туризм ва меҳмондўстлик индустриясининг ҳиссасига тўғри келиши ва бошқа шу каби долзарб масалаларига эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *туризм, туризм салоҳияти, тараққиёт параметрлари, модернизация, диверсификация, стратегия, ихтисослаштириш, ташқи ва ички туризмни ривожлантириш.*

Жаҳонда туризм соҳаси барча инфратузилмаларни ривожлантиришга бевосита ва билвосита таъсир кўрсатадиган ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида гавдаланади. Замонавий туризм транспорт, ижтимоий ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг юқори даражада ривожланишига асосланган бўлиб, бу охир-оқибат уни иқтисодиётнинг юқори рентабелли соҳасига айлантиради. Ўзбекистон Республикасида мустақиллигимизнинг илк кунлариданоқ туризм соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, мазкур соҳа билан шуғулланувчи корхоналарга имтиёзлар яратиб бериш, шунингдек, туризм соҳаси учун инфратузилмани шакллантириш борасидаги ишлар жадал суръатлар билан давом эттирилмоқда.

Бирлашган Миллатлар Жаҳон ТуризмТашкилоти (United Nations World Tourism Organization (UNWTO)) маълумотларига кўра, бутун жаҳон ялпи ички маҳсулотининг 10,4%и (2017 йилда унинг ҳажми 8,3 трлн. АҚШ долларига тенг бўлди), дунёдаги инвестицияларнинг 7%и, солиқ тушумларининг 5%и, жаҳондаги истеъмолчилик харажатларининг 11%и ва ҳар 16 та янги яратилаётган иш ўрнининг биттаси айнан туризм ва меҳмондўстлик индустриясининг ҳиссасига тўғри келмоқда. Мазкур тармоқда аҳолининг иш билан бандлик даражаси 2016 йилга нисбатан 103% га ўсди ва 2017 йилда туризм ва сайёҳлик соҳасида бевосита 118,4 миллион киши (жаҳондаги умумий бандларнинг 3,8%и) иш билан банд бўлган бўлса, билвосита (туризмга хизмат кўрсатадиган тармоқлар билан бирга) 313,2 миллион киши фаолият кўрсатмоқда.

Мамлакатимизда ҳам туризмни ривожлантириш борасида бир қатор ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ва унинг минтақавий тузилмалари штат бирликларининг оширилгани, ҳудудларда туризм департаментлари ва бошқармалари, ҳоким ўринбосарлари лавозимлари ташкил этилгани мазкур ташкилотларнинг имкониятларини кенгайтирда катта рол ўйнамоқда. Ўзбекистон

Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги Қонуни 2019 йил 18 июлда қабул қилинган, унда соҳанинг ҳозирги ривожланиш босқичидан келиб чиққан ҳолда янги тушунчалар киритилди, туризм бўйичадавлат сиёсатининг принциплари ва асосий йўналишлари белгиланди. Шунингдек, туристик фаолият субъектлари тоифаларга ажратилди. 47 та давлат фуқаролари учун виза режими бекор қилинди ҳамда визасиз режимга эга мамлакатлар сони 86 тага етди. Бундан ташқари виза жараёнларини соддалаштириш мақсадида электрон виза олиш имкониятига эга мамлакатлар сони 57 ни ташкил этди. Қўшимча равишда, “Ватандош”, “Талаба”, “Академик”, “Зиёратчи” ва “Тиббиёт” виза турлари жорий этилди. Қилинган ишлар натижаси таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ўтган давр билан солиштирганда 2019 йилда мамлакатимизга келган сайёҳлар сони 26,2 фоизга кўпайди. Визасиз режим жорий этилган давлатлардан ташриф буюрган сайёҳлар сонида эса 58 фоиз ўсиш кузатилди. Натижада, сайёҳларни жойлаштириш масканларининг юкланиш даражаси 62 фоиздан 84 фоизга кўпайди. Охирги йилларда туризм соҳасидаги янги тенденцияларга мос ва кенг сегмент талабларига жавоб берадиган хостеллар бозорини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу мақсадда 2019 йилда мамлакатда кам бюджетли туризм инфратузилмаси ва хостеллар бизнесини янада рағбатлантириш учун хостелларни мажбурий сертификациялаш тартиби бекор қилинди ва бошқа бир қатор талаблар соддалаштирилди. 2019 йилнинг ўзида республикада 161 та янги хостеллар қуриб фойдаланишга топширилди. Улар томонидан бир вақтнинг ўзида 5666 нафар сайёҳга хизмат кўрсатиш имконияти яратилди.

Туризмни ривожлантириш омилларига чипталарининг нархи арзон бўлган авиакомпаниялар-лоукостерлар (lowcosters) ҳам таъсир кўрсатади. Польшада туризм ривожланишига авиакомпанияларнинг таъсир этувчи жиҳатлари ўрганилганда, тадқиқот натижасига кўра, лоукостерлар унчалик машҳур бўлмаган жойларда туризмни ривожлантиришга ҳисса қўшган ҳамда кичик шаҳарларда ушбу соҳанинг тараққий этишига хизмат кўрсатган. Мазкур тадқиқотда бошқа омиллар ҳам ўрганилган. Масалан, қишки туризмга нисбатан талабнинг юқори даражаси ҳамда янги йўналишларга хизмат кўрсатувчи лоукостерларнинг янги маршрутлари пайдо бўлгани сабабли

Республикамизда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича мавжуд имконият ва шароитлардан самарали фойдаланишда қийинчиликлар бўлиб, халқаро туризм йўналишида республикага ташриф буюрувчиларнинг талаб эҳтиёжларини қондириш талаб даражасида эмас. Бунинг асосий тўсиқларидан бири, ҳали бу соҳада инфраструктуранинг етарли даражада ривожланмаганлиги ва туризмни давлат томонидан бошқаришнинг энг самарали усулларини жорий қилиш билан боғлиқ бўлган муаммолар чуқур ўрганилмаганлигидир. Мазкур тадқиқот доирасида, Республикамизда туризм соҳасини тартибга солиш бўйича қабул қилинган қонун ва қонун ости ҳужжатларини таҳлил қилиш натижасида қуйидаги номувофиқлик ва муаммолар мавжудлигига гувоҳ бўлдик:

1. Туризм соҳасида фаолият юритувчи ташкилотларда хизмат кўрсатувчи гидлар фаолияти, уларга қўйиладиган талаблар, уларни сертификатлаштириш ҳамда малакасини ошириш масалалари бўйича махсус тартиблар ишлаб чиқилган. Аммо мустақил тарзда гидлик фаолияти билан шуғулланиш, уларга қўйиладиган талаблар, уларнинг ҳуқуқий мақоми ва уларнинг малакасини ошириш бўйича соҳага оид бирорта юридик ҳужжатда тўхталиб ўтилмаган.

2. Туристларга мамлакатимиздаги тарихий обидалар, тарихий шахслар, давлатнинг ҳудудий ва маъмурий тузилиши, шунингдек, урф-одатлар ва анъаналар тўғрисида маълумот берувчи гид-таржимонлар ўзлари бераётган маълумотларнинг тўғрилиги ва асосланганлиги учун шахсан жавобгарлиги масаласи ҳамда уларга бериладиган жазо тури қонун ва қонун ости ҳужжатларида аниқ белгилаб қўйилмаган ва ҳоказо.

Юқорида келтириб ўтилган камчилик ва номувофиқликларни бартараф этиш бевосита соҳанинг янада ривожланиши ва мазкур фаолиятнинг ҳуқуқий асосларини янада мустаҳкамланишига ёрдам беради. Тадқиқот доирасида Австрия Республикасининг туризм тизими ва соҳани давлат томонидан ҳуқуқий тартибга солиш масалалари таҳлил қилинди ҳамда ўрганиш натижалари асосида Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тартибга солиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди. Австрия Федератив Республикаси Марказий Европада жойлашган давлат бўлиб, 9 та федерал ҳудудлардан ташкил топган.

Мамлакат туризм соҳасида дунёнинг етакчи давлатларидан бири ҳисобланиб, мамлакат ЯИМ нинг 35% туризм соҳаси ҳиссасига тўғри келади. Мамлакатнинг туристик марказлари Вена ва Залсбург шаҳарлари ҳисобланади. Австрия Федерал Республикасида туризм соҳасини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш бўйича махсус федерал қонунқабул қилинмаган. Лекин ҳар бир федерал ҳудуд бўйича махсус қонунлар ва қонун ости ҳужжатлари қабул қилинган. Мамлакатдаги туризм соҳасини ривожлантириш ва тартибга солиш масалалари солиқ қонунчилиги, божхона қонунчилиги, халқаро савдо ва иқтисодий муносабатлар қонунчилиги асосида тартибга солинади. Австрияда туризм соҳасини давлат томонидан ҳуқуқий тартибга солиш борасидаги энг асосий ҳужжат “Европа туризмини рақобатбардош ва барқарор тарзда ривожлантириш бўйича” Европа иттифоқи Дастури ҳисобланади. Австрия Европа Иттофоқига аъзо давлат сифатида бу Дастурнинг бажарилишини таъминлайди. Мамлакатда туризм соҳаси Австрия миллий туризм ташкилоти (Austrian National Tourist Office, Österreich Werbung) ҳамда Австрия Иқтисодиёт, оила ва ёшлар вазирлиги (Ministry of Economy, Family and Youth) томонидан ривожлантирилади ва тартибга солинади. Бунда Австрия миллий туризм ташкилоти мамлакатда туризм маркетинги соҳасини ривожлантириш билан шуғулланади ва мазкур соҳа бўйича энг асосий ташкилот ҳисобланади. Австрия Иқтисодиёт, оила ва ёшлар вазирлиги эса туризм соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, тартибга солиш, назорат қилиш, молиялаштириш ва бошқа вазифаларни бажаради. Австрияда туризмни ривожлантириш бўйича миллий дастур қабул қилинган бўлиб, у давлат томонидан туризмни қўллаб қувватлашнинг ҳуқуқий ва иқтисодий механизми бўлиб хизмат қилади.

Дастурдаги асосий вазифалар:

Солиқ имтиёзлари, субсидия ва дотациялар;

Туризм соҳасини ривожлантириш ва туристик хизматлар истеъмолчиларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилишни қўллаб қувватловчи миллий қонунчилик ва норматив ҳужжатларни такомиллаштириш;

Мамлакатга кириш ва ундан чиқиш пайтида виза чекловларини камайтириш;

Нархларни қисқартириш ва бошқа турли имтиёзлар бериш йўли билан номавсумий туризмни рағбатлантириш;

Ижтимоий туризмни ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш;

Туристлар ҳавфсизлигига қўйиладиган талабларни кучайтириш ва ва бу соҳадаги ҳуқуқий ҳужжатларни қайта кўриб чиқиш;

Давлат томонидан атроф муҳитни муҳофаза қилиш, маданий ва тарихий меросни асраб-авайлаш бўйича қонунчиликни мустаҳкамлаш.

Бугунги кунда ривожланган давлатларда “Европанинг ақлли туризм пойтахти” ташаббуси (The European Capital of Smart Tourism initiative) илгари сурилмоқда. Ушбу ташаббус “ақлли туризм” воситаларини, чора-тадбирларини қамраб олади ҳамда шаҳарларда тўртта тоифа: бақарорлик, ногиронлиги бор инсонлар учун махсус имкониятлар яратиб бериш, рақамлаштириш, маданий мерос ва ижодкорона ёндашув бўйича амалга оширилаётган лойиҳалардан хабардорликни оширишни назарда тутади. Туризмни ривожлантириш стратегияси маҳаллий ҳамжамиятларни мазкур соҳа орқали қанчалик кўп қўллаб-қувватласа, у мамлакатда шунчалик барқарор бўлади. Олинадиган даромадлардан фойдаланишнинг эн яхши йўли ёдгорликларни таъмирлаш, ҳамжамиятни қўллаб-қувватлаш, одамларга ҳуқуқ ва имкониятлар бериш, камбағаллик даражасини пасайтириш. Барқарор туризм ҳам меҳмонларнинг, ҳам уларга мезбонлик қилувчи шаҳарларнинг хавфсизлигини таъминлаши, атроф-муҳитнинг ифлосланишига ва аҳоли тиқилинч бўлишига йўл қўймаслиги керак. Туристлар оқимини адолатли тақсимлаш ҳам барқарорлик учун муҳим аҳамиятга эга. Бу ривожланган мамлакатлар учун ҳам, ривожланаётган мамлакатлар учун ҳам бирдай муҳим.

Хулоса сифатида, ўрганилган хорижий тажриба, эгалланган назарий билимлар ҳамда бир қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни таҳлил қилиш натижасида ишлаб чиқилган қуйидаги таклиф ва тавсияларни келтириб ўтамиз:

1.Ўзбекистон Республикасида маҳаллий туризмни ривожлантириш мақсадида мамлакат ҳудудида ҳаракатланувчи сайёҳларнинг ҳаракатланиш тартиби, уларга яратиб бериладиган шароитлар ва имтиёзлар бўйича алоҳида ҳужжат ишлаб чиқиш ва туризм соҳасида фаолият юритувчи гидлар малакасини ошириш, уларнинг кўникма ва билимларини баҳолаш бўйича махсус дастурий тизим яратиш;

2.Туристларга мамлакатимиздаги тарихий обидалар, тарихий шахслар, давлатнинг ҳудудий ва маъмурий тузилиши, шунингдек, урф-одатлар ва анъаналар тўғрисида маълумот берувчи гид-таржимонлар бераётган маълумотларнинг тўғрилиги ва асосланганлиги жавобгарлик масаласини туризм қонунчилигида аниқ белгилаб қўйиш ҳамда уларга бериладиган жазо турини Ўзбекистон Республикаси “Маъмурий жавобгарлик тўғрисида”ги Кодексда мустаҳкамлаб қўйиш;

3.Туристик ташкилотлар томонидан хорижий валюталарнинг Ўзбекистонга киритилишини янада рағбатлантириш мақсадида, уларга солиқ имтиёзлари бериш, яъни уларнинг хорижий валютадаги даромадларининг маълум қисмини солиқлардан озод қилиш;

4.Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш учун секторлараро муносабатларни тартибга солувчи ва ривожлантирувчи меъёрий ҳуқуқий ҳужжатларни яратиш. Бунда соҳа ривожида нодавлат секторнинг иштирокини кенгайтириш масалаларининг ҳуқуқий асосларини яратиш;

5.Ўзбекистонда туризм соҳасига янги ахборот коммуникация технологияларини жорий қилиш бўйича махсус лойиҳа ишлаб чиқиш ва шу мавзуда халқаро конференциялар ташкиллаштириш;

Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бугунги кунда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантириш ва давлат томонидан ҳуқуқий тартибга солиш борасида катта ютуқларга эришилди. Мазкур соҳани ривожлантириш мақсадида тадбиркорларга

жуда катта имтиёз ва имкониятлар яратиб берилганлиги соҳа ривожининг асосий омили бўлди. Шу билан бир қатордабаъзи бир камчилик ва фойдаланилмаётган имкониятлар борки, уларни бартараф этиш ва бу йўлда ривожланган хорижий давлатларнинг ижобий тажрибаларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли Фармони. // www.lex.uz
2. Мухаммедова З.М. Туризмни инновацион ривожлантиришда инвестицион ресурслар иқтисодий самарадорлигини ошириш: Иқт. фан. фалс. д-ри дисс. автореф. – Самарқанд: СамИСИ, 2020. – Б.18.;
3. Муминов Н.Г. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.

STATISTIK MA'LUMOTLARNI JAMLASH NAZARIYASI VA AMALIYOTINI O'QITISHDA INTERAKTIV VA AMALIY YONDASHUVLARNING AHAMNIYATI

[1]Otamurod Madiyev, [2]Dildora Xudayberdiyeva
[1]XIU REKTORI, [2]TIIU O'QITUVCHISI
https://doi.org/10.5281/zenodo.19922054

Annotatsiya. *Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni jamlash nazariyasi va amaliyotini o'qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Statistik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talabalarni faollashtirish, ularning analitik va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada an'anaviy o'qitish usullarining cheklangan jihatlari tahlil qilinib, interaktiv metodlar hamda amaliy topshiriqlardan foydalanish orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish yo'llari asoslab berilgan. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni jamlash bosqichlarini real misollar asosida o'rgatish talabalar tomonidan mavzuning chuqurroq anglanishiga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan. Natijada interaktiv va amaliy yondashuvlar statistikani o'qitishda muhim pedagogik omil ekanligi xulosa qilinadi.*

Kalit so'zlar: *statistika, ma'lumotlarni jamlash, interaktiv metodlar, amaliy yondashuv, analitik fikrlash, ta'lim samaradorligi, o'qitish metodikasi, statistik tahlil.*

Аннотация. *В данной статье подчеркивается важность интерактивных и практических подходов в преподавании теории и практики обобщения статистических данных. Активизация студентов и развитие их аналитического и логического мышления считаются ключевыми факторами в процессе приобретения статистических знаний. В статье проанализированы ограничения традиционных методов обучения и обоснованы способы эффективной организации учебного процесса с использованием интерактивных методов и практических заданий. Кроме того, показано, что преподавание этапов обобщения статистических данных с использованием примеров из реальной жизни способствует более глубокому пониманию предмета студентами. В заключение делается вывод о том, что интерактивные и практические подходы являются важными педагогическими факторами в преподавании статистики.*

Ключевые слова: *статистика, сбор данных, интерактивные методы, практический подход, аналитическое мышление, эффективность обучения, методика преподавания, статистический анализ.*

Abstract. *This article highlights the importance of interactive and practical approaches in teaching the theory and practice of statistical data summarisation. Activating students and developing their analytical and logical thinking are regarded as key factors in the process of acquiring statistical knowledge. The article analyses the limitations of traditional teaching methods and substantiates ways to effectively organise the learning process through the use of interactive methods and practical assignments. Furthermore, it is shown that teaching the stages of compiling statistical data using real-world examples contributes to students' deeper understanding of the subject. In conclusion, it is concluded that interactive and practical approaches are important pedagogical factors in the teaching of statistics.*

Keywords: *statistics, data collection, interactive methods, practical approach, analytical thinking, educational effectiveness, teaching methodology, statistical analysis.*

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli transformatsiya va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarining kengayib borishi statistik bilimlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, statistik ma’lumotlarni jamlash nazariyasi va amaliyoti turli sohalarda — iqtisodiyot, ijtimoiy tadqiqotlar, boshqaruv va ta’limda muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Shu sababli talabalarni statistik fikrlashga o‘rgatish, ularni ma’lumotlarni to‘g‘ri yig‘ish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, statistikani o‘qitishda an’anaviy yondashuvlar ko‘pincha nazariy tushunchalarni yod olish bilan cheklanib qoladi. Natijada talabalar formulalarni bilsa-da, ularni real vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchilikka duch keladi. Ayniqsa, statistik ma’lumotlarni jamlash bosqichlari — ma’lumotni to‘plash, guruhlash va umumlashtirish jarayonlarini amaliy jihatdan anglash yetarli darajada shakllanmaydi. Bu esa statistik bilimlarning hayotiy ahamiyatini pasaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, statistikani o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlarga murojaat qilish zarurati ortib bormoqda. Interaktiv metodlar talabani dars jarayoniga faol jalb etadi, amaliy topshiriqlar esa nazariy bilimni real vaziyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Ayniqsa, real ma’lumotlar asosida ishlash, kichik tadqiqotlar o‘tkazish va natijalarni muhokama qilish talabada statistik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bugungi talaba axborotni tez qabul qiladigan, amaliy faoliyatga moyil bo‘lgan subyekt sifatida qaraladi. Shu bois ta’lim jarayonini uning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirish muhimdir. Statistik ma’lumotlarni jamlashni o‘rgatishda interaktiv va amaliy yondashuvlardan foydalanish aynan shu ehtiyojni qondiradi hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shu asosda statistik ma’lumotlarni jamlash nazariyasi va amaliyotini o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlarning ahamiyatini nazariy jihatdan o‘rganish, ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish mazkur maqolaning asosiy yo‘nalishini tashkil etadi.

Tadqiqot yondashuvi. Mazkur maqolada statistik ma’lumotlarni jamlash nazariyasi va amaliyotini o‘qitish masalasi nazariy tahlil asosida, lekin aniq o‘rganish yo‘llari bilan yoritildi. Tadqiqotda asosiy e’tibor talabaga statistik bilimni qanday yetkazish emas, balki uni qanday qilib tushunarli, amaliy va hayotiy mazmunga ega shaklda o‘zlashtirish mumkinligiga qaratildi.

Shu maqsadda statistikani o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interaktiv va amaliy yondashuvlar bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Xususan, statistik ma’lumotlarni jamlash jarayonining har bir bosqichi — ma’lumot to‘plash, guruhlash va umumlashtirish — qanday metodlar orqali osonroq anglanishi mumkinligi izohlandi. Bu jarayonda real hayotiy misollar, kichik amaliy topshiriqlar va muhokamaga asoslangan usullar alohida e’tiborga olindi.

Tahlil davomida shuni ko‘rsatishga harakat qilindi: agar talaba statistikani faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki real ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida o‘rgansa, u bilimni chuqurroq anglaydi va uni mustaqil qo‘llay oladi. Shu bois tadqiqotda o‘rganish yo‘llari va ularning kutilayotgan natijalari o‘zaro bog‘liq holda quyidagi jadvalda tizimlashtirildi:

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, statistikani o‘qitishda o‘rganish yo‘llari to‘g‘ri tanlansa, talabaning bilimni o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, real

ma’lumotlar bilan ishlash va amaliy topshiriqlar bajarish talabaning statistik fikrlashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rganish yo‘li	**Amalga oshirish mazmuni**	**Kutilayotgan natija**
Real ma’lumotlar bilan ishlash	Talabalarga kundalik hayotga oid statistik ma’lumotlar (so‘rovnoma, kuzatuv) beriladi	Talaba statistik tushunchalarni hayot bilan bog‘laydi
Guruhli muhokama	Talabalar kichik guruhlarda ma’lumotlarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi	Mantiqiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi
Amaliy topshiriqlar	Ma’lumotlarni to‘plash, jadvalga joylashtirish va umumlashtirish ishlari bajariladi	Nazariya amaliy ko‘nikmaga aylanadi
Interaktiv savol-javob	O‘qituvchi va talaba o‘rtasida muhokamaga asoslangan savollar beriladi	Talabaning faolligi va tushunishi oshadi
Vizual vositalardan foydalanish	Diagramma, grafik va jadval orqali ma’lumotlar ko‘rsatiladi	Murakkab tushunchalar oson anglanadi

1-jadval: Statistik ma’lumotlarni jamlashni o‘qitishda o‘rganish yo‘llari va natijalari

Shuningdek, interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan darslar talabaning faolligini oshiradi, uni mustaqil fikrlashga undaydi va o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa statistik ma’lumotlarni jamlash mavzusini o‘qitishda faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, uni amaliy jarayon bilan uyg‘unlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, statistikani o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlardan foydalanish nafaqat o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, balki talabaning bilimni chuqur anglashiga, uni mustaqil qo‘llay olishiga va real vaziyatlarda foydalanishiga xizmat qiladi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, statistikani o‘qitishda o‘rganish yo‘llari ongli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tanlanganda, talabaning bilimni o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi. Bunda ayniqsa real ma’lumotlar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki talaba nazariy tushunchani faqat eshitib emas, balki uni amalda qo‘llash orqali anglaydi. Masalan, oddiy so‘rovnoma tuzish, ma’lumot yig‘ish va uni jadvalga joylashtirish jarayonida talaba statistik ma’lumotlarni jamlashning asl mohiyatini tushunib yetadi. Bu esa uning bilimini yuzaki emas, balki mazmunli va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliy topshiriqlarning muntazam qo‘llanishi talabaning statistik fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. U faqat berilgan ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va

xulosa chiqaruvchi subyektga aylanadi. Natijada talaba statistik ma’lumotlar bilan ishlashda mustaqil qaror qabul qilish, muammoni ko‘ra olish va uni yechish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa statistikani o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan darslar talabaning o‘quv jarayonidagi rolini tubdan o‘zgartiradi. An’anaviy darslarda talaba ko‘proq tinglovchi bo‘lib qolsa, interaktiv yondashuvda u faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Savol-javob, guruhli muhokama va muammoli vaziyatlar orqali talaba o‘z fikrini bildirishga, boshqalar bilan solishtirishga va asoslashga harakat qiladi. Bu esa uning nafaqat bilimini mustahkamlaydi, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Bundan tashqari, interaktiv va amaliy yondashuvlar o‘rganilgan bilimlarning uzoq muddat saqlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki talaba bilimni faqat yodlab emas, balki uni qo‘llash jarayonida o‘zlashtiradi. Amaliy faoliyat bilan mustahkamlangan bilim esa tez unutilmaydi va zarur vaziyatlarda oson esga tushadi.

Yuqoridagi jihatlar shuni ko‘rsatadiki, statistik ma’lumotlarni jamlash mavzusini o‘qitishda faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aksincha, uni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni talabaning o‘zi ma’lumot yig‘ishi, uni tahlil qilishi va xulosa chiqarishi uchun sharoit yaratish zarur. Aynan shunday yondashuv talabaning statistik bilimini real hayot bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Demak, statistikani o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlardan foydalanish nafaqat o‘rganish jarayonini yengillashtiradi, balki uni mazmunli va samarali qiladi. Bu yondashuv orqali talaba bilimni chuqur anglaydi, uni mustaqil qo‘llashga o‘rganadi hamda real vaziyatlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada statistik ta’limning asosiy maqsadi — analitik fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassisni shakllantirishga erishiladi.

Shu asosda statistikani o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlarning ustuvorligi nafaqat nazariy jihatdan, balki mantiqiy tahlil orqali ham asoslanadi. Mazkur yondashuvlar talabaning bilimni qabul qilish jarayonini faol va mazmunli shaklga olib chiqadi. Endi ushbu fikrlar umumlashtirilib, nazariy tahlil natijalari quyidagicha ifodalanadi.

Natijalar. Olib borilgan nazariy va amaliy tajriba tahlillari asosida statistik ma’lumotlarni jamlash nazariyasi va amaliyotini o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlardan foydalanishning bir qator muhim natijalarga olib kelishi aniqlandi.

Avvalo, statistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida talabaning faol ishtiroki ta’minlanadi. Interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabani passiv tinglovchidan faol fikrlovchi subyektga aylantiradi. Bu esa bilimni chuqurroq anglash va mustahkam o‘zlashtirishga olib keladi.

Ikkinchidan, statistik ma’lumotlarni jamlash jarayonining amaliy jihatlari talaba uchun aniq va tushunarli bo‘ladi. Real ma’lumotlar bilan ishlash, ularni guruhlash va umumlashtirish kabi faoliyatlar orqali talaba nazariy tushunchalarni hayotiy misollar asosida anglaydi. Natijada u statistik jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligini mustaqil ravishda tushunib yetadi.

Uchinchidan, talabaning analitik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish jarayonida talaba muammoni chuqurroq ko‘ra boshlaydi hamda unga nisbatan asosli qaror qabul qilishga o‘rganadi.

To‘rtinchidan, interaktiv va amaliy yondashuvlar talabaning mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Talaba o‘qituvchidan tashqari holatda ham ma’lumot yig‘ish, uni qayta ishlash va natija chiqarish jarayonlarini bajarishga intiladi. Bu esa uning o‘quv faoliyatida mustaqillik darajasini oshiradi.

Beshinchidan, o‘quv materialining esda qolish darajasi ortadi. Amaliy faoliyat bilan mustahkamlangan bilim nazariy tushuntirishga nisbatan uzoqroq saqlanadi va zarur vaziyatlarda oson qo‘llaniladi.

Yuqoridagi natijalar umumlashtirilganda, statistik ma’lumotlarni jamlashni o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlanadi. Mazkur yondashuvlar talabaning bilimni chuqur anglashiga, uni mustaqil qo‘llay olishiga hamda real vaziyatlarda samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

Demak, statistikani o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda interaktiv va amaliy metodlar asosiy pedagogik omil sifatida qaralishi zarur. Ushbu xulosadan kelib chiqib, mazkur yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ularni qo‘llash shartlarini yanada chuqurroq tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Muhokama. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va amaliy yondashuvlar statistikani o‘qitishda sezilarli ustunliklarga ega bo‘lsa-da, ularning samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Avvalo, bu metodlar o‘qitish jarayoniga shunchaki qo‘shib qo‘yiladigan element emas, balki butun dars tuzilmasiga integratsiyalashgan holda qo‘llanishi zarur. Ya’ni interaktivlik va amaliy faoliyat darsning asosiy mazmuniga aylangandagina kutilgan natija yuzaga chiqadi.

Shu bilan birga, statistikani o‘qitishda amaliy topshiriqlarni tanlash masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Agar topshiriqlar real hayot bilan bog‘liq bo‘lsa, talaba ularni bajarishda yuqori darajada qiziqish bildiradi va faol ishtirok etadi. Aks holda, topshiriq formal xarakterga ega bo‘lib qoladi va kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Demak, amaliy yondashuvning samaradorligi uning mazmuniga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlanadi.

Interaktiv metodlarning qo‘llanilishi ham o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Masalan, guruhli muhokama yoki savol-javob jarayonlari talabaning fikrlashini faollashtiradi, biroq bu jarayonni o‘qituvchi to‘g‘ri boshqarmasa, u tartibsiz yoki samarasiz tus olishi mumkin. Shu sababli interaktiv metodlar o‘qituvchining metodik mahorati bilan uzviy bog‘liq ekanligi muhokama jarayonida alohida qayd etiladi. Bundan tashqari, statistikani o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlarning qo‘llanilishi vaqt va tashkiliy jihatdan ham muayyan talablarni qo‘yadi. Masalan, an’anaviy darsga nisbatan bunday mashg‘ulotlar ko‘proq tayyorgarlikni talab etadi. Biroq bu qo‘shimcha mehnat o‘zini oqlaydi, chunki natijada talabaning bilim sifati va mustaqil fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, muhokama natijasida yana bir muhim jihat aniqlanadiki, interaktiv va amaliy yondashuvlar statistikani faqat o‘quv fan sifatida emas, balki real hayotda qo‘llaniladigan vosita sifatida anglashga yordam beradi. Bu esa talabaning statistikaga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi va uni o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Umuman olganda, interaktiv va amaliy metodlar statistikani o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, ularni qo‘llashda tizimlilik, maqsadlilik va metodik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu shartlar ta’minlangandagina mazkur metodlar o‘zining haqiqiy pedagogik qiymatini namoyon etadi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan nazariy tahlillar, muhokama va natijalar umumlashtirilganda, statistik ma’lumotlarni jamlash nazariyasi va amaliyotini o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi. Biroq bu samaradorlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki ma’lum shartlar va yondashuvlar asosida tashkil

etilgandagina kutilgan natijaga olib keladi. Shu sababli o‘qitish jarayonida qaysi omillarga e’tibor qaratish zarurligi va ular qanday natijaga olib borishi tizimli tarzda aniqlashtirildi.

Mazkur jihatlarni yanada aniqroq ko‘rsatish maqsadida statistikani o‘qitishda samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar, ularni amalga oshirish yo‘llari hamda kutilayotgan natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

Omil	**Amalga oshirish yo‘li**	**Qo‘llaniladigan yondashuv**	**Kutilayotgan natija**
Darsni interaktiv tashkil etish	Savol-javob, guruhli muhokama, muammoli vaziyatlar	Interaktiv yondashuv	Talabaning faolligi va darsdagi ishtiroki oshadi
Amaliy topshiriqlarni qo‘llash	Real ma’lumot yig‘ish, jadval tuzish, tahlil qilish	Amaliy yondashuv	Nazariy bilim amaliy ko‘nikmaga aylanadi
Real hayotiy misollardan foydalanish	Kundalik hayotga oid statistik ma’lumotlar bilan ishlash	Kontekstual yondashuv	Talaba bilimni hayot bilan bog‘laydi
Mustaqil ishlashni rag‘batlantirish	Individual topshiriqlar, kichik loyihalar berish	Faol o‘rganish yondashuvi	Talabaning mustaqil fikrlashi rivojlanadi
Vizual vositalardan foydalanish	Diagramma, grafik va jadval orqali tushuntirish	Ko‘rgazmali yondashuv	Murakkab tushunchalar oson anglanadi
O‘qituvchining metodik tayyorgarligi	Interaktiv metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash	Metodik yondashuv	Dars samaradorligi oshadi

2-jadval: Statistikani o‘qitishda samaradorlikni oshirish omillari va natijalari

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, statistikani o‘qitishda samaradorlik birgina metod bilan emas, balki bir nechta omillarning o‘zaro uyg‘unligi orqali ta’minlanadi. Ayniqsa, interaktiv va amaliy yondashuvlarning birgalikda qo‘llanilishi talabaning bilimni chuqur anglashiga, uni mustaqil qo‘llay olishiga va real vaziyatlarda foydalanishiga olib keladi.

Shuningdek, ushbu omillar tizimli ravishda amalga oshirilganda o‘quv jarayonida quyidagi natijalar yuzaga keladi: talabaning analitik fikrlashi rivojlanadi, statistik ma’lumotlar bilan ishlash

ko‘nikmalari shakllanadi, bilimlarning esda saqlanish darajasi ortadi hamda o‘quv jarayoni mazmunli va samarali tus oladi.

Demak, statistik ma’lumotlarni jamlashni o‘qitishda interaktiv va amaliy yondashuvlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar o‘qitish jarayonini takomillashtirishga hamda talabalarni zamonaviy talablar darajasida tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Garfield, J., & Ben-Zvi, D. (2008). *Developing students' statistical reasoning: Connecting research and teaching practice*. Springer.
2. Cobb, G. W. (2007). The introductory statistics course: A Ptolemaic curriculum? *Technology Innovations in Statistics Education, 1*(1), 1–15.
3. Chance, B. L., Ben-Zvi, D., Garfield, J., & Medina, E. (2007). The role of technology in improving student learning of statistics. *Technology Innovations in Statistics Education, 1*(1), 1–26.
4. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. Routledge.
6. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education, 93*(3), 223–231. https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x
7. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance. *Proceedings of the National Academy of Sciences, 111*(23), 8410–8415. https://doi.org/10.1073/pnas.1319030111
8. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge. *Teachers College Record, 108*(6), 1017–1054.
9. Moore, D. S. (1997). New pedagogy and new content: The case of statistics. *International Statistical Review, 65*(2), 123–137.
10. Qizi, J. D. U., & Qizi, M. N. B. (2024). MEDIASAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI TALABALARDA MA’NAVIY TAHDIDGA QARSHI KURASHUVCHANLIKNI TARBIYALASH. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 32), 856-858.
11. Qizi, J. D. U., Sevinch, X. M., Ruxshona, R., & E’Zoza, Q. (2024). TA’LIM MENEJMENTIDA VA TA’LIMNI TASHKIL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO ‘LLASHNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 18), 354-355.
12. Ben-Zvi, D., & Garfield, J. (2004). *The challenge of developing statistical literacy, reasoning and thinking*. Kluwer Academic Publishers.
13. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2*(1), 3–10.

РАЗВИТИЕ РЫНОЧНЫХ ФАКТОРОВ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ “SAG EXPRESS”)

Мусаева Шоира Азимовна
Профессор Самаркандского института экономики и сервиса
Orsid code -0009-0000-9577-6976
https://doi.org/10.5281/zenodo.19629982

Введение. В современных условиях неопределенности рыночной ситуации усиление маркетинговой ориентации в деятельности предприятия, подготовка и принятие обоснованных управленческих решений требуют проведения содержательного маркетингового анализа. Его можно рассматривать как средство повышения эффективности деятельности предприятия, способ решения многих проблем: оценка рынка, собственных возможностей, поведения конкурентов и др. Основная цель аналитической работы, проводимой на предприятии, – укрепление рыночных позиций и повышение его конкурентоспособности. В научной и прикладной литературе данная тема изучается с точки зрения экономики, менеджмента, маркетинга и стратегического анализа.

Анализ литературы по теме На основе зарубежного опыта следует отметить, что Вопросы развития безналичных платежей и цифровизации финансового сектора Узбекистана в последние годы получили широкое освещение как в научных исследованиях, так и в аналитических обзорах. и их практическим применением занимались многие экономисты, в том числе М. Портер, Д. Эванс, И. Ансофф, М. Берман, М. Голубков, П. Самуэльсон, Д. К ним можно отнести таких известных ученых, как Маршалл.

Необходимо отметить ученых, внесших большой вклад в развитие теории маркетинга, при этом исследования, проводимые в области маркетинга в нашей стране на протяжении многих лет, базировались на национальных особенностях. К ним можно отнести Ж.Зайналов, Э.Шавкиев, М.Мухаммедов, М. Шарифходжаева, Ш. Эргашходжаева, Ш.Мусаева и других.

Методология исследования. В исследовании использовался систематический подход, маркетинговый анализ, бенчмаркинг и цифровые показатели. Для сбора и анализа данных с платформ социальных сетей применялись методы массового наблюдения

Анализ результата. Таким образом, анализ маркетинговой деятельности предприятия — это системный процесс оценки и интерпретации информации о маркетинговой среде, стратегии и инструментах, направленный на повышение эффективности рыночной деятельности и достижение коммерческих целей организации.

Основные этапы анализа маркетинговой деятельности и сбыта можно описать нижеследующей таблицей:

В рамках оценки эффективности маркетинговой деятельности были рассмотрены ключевые методы и инструменты анализа продаж, позволяющие выявить сильные и слабые стороны текущей стратегии реализации продукции.

Таблица 1. Основные этапы анализа маркетинговой деятельности и сбыта

Метод/Инструмент	Описание	Применение
Анализ структуры продаж	Исследование структуры продаж по продуктам, регионам, каналам сбыта.	Оценка доли каждого продукта/канала в общем объеме продаж.
Анализ динамики продаж	Изучение изменений объемов продаж за разные периоды.	Оценка тенденций роста или спада. Прогнозирование на основе исторических данных.
Анализ ценовой эластичности спроса	Оценка зависимости объема продаж от изменения цены.	Определение оптимальной ценовой политики для максимизации прибыли.
ABC-анализ	Классификация продукции по объему продаж (A — самые прибыльные товары, B — средней прибыли, C — низкой прибыли).	Определение приоритетных товаров для улучшения управления запасами и стратегий сбыта.
Портфельный анализ	Оценка различных продуктов или брендов на основе их доли на рынке и темпов роста.	Выбор стратегий для роста в сегментах с высокой долей и темпами роста.
Анализ сезонности продаж	Оценка зависимости продаж от сезона, праздничных периодов и экономических циклов.	Планирование запасов и рекламных акций, улучшение прогнозирования спроса.
SWOT-анализ	Оценка сильных и слабых сторон, возможностей и угроз в процессе сбыта.	Разработка стратегии сбыта и минимизация рисков.
Прогнозирование спроса	Прогнозирование будущего объема продаж на основе исторических данных и трендов.	Оптимизация производства и складских запасов.

Объектом анализа выступила сеть фирменных магазинов "SAG EXPRESS", специализирующаяся на розничной продаже фирменной продукции компании ООО “SAG”. Сеть фирменных магазинов “SAG EXPRESS” представляет собой сеть специализированных розничных магазинов, осуществляющих реализацию ковров и ковровых покрытий по территории Республики Узбекистан. Проект был основан в 2021 году как розничное направление компании SAG и на сегодняшний день имеет более 15 точек по всей Республике Узбекистан. Компания действует под единым брендом, предлагая покупателям широкий ассортимент продукции, а также комплекс сопутствующих услуг, включая бесплатную доставку, профессиональное измерение помещений, подгонку и обрезку изделий. Это позволяет позиционировать SAG EXPRESS не только как продавца ковров и ковровых покрытий, но и как поставщика полного сервиса в области оформления интерьеров.

Сеть магазинов представлена в нескольких форматах: XP — флагманские магазины с арт-инсталляциями и эксклюзивными коллекциями ковров, XL — магазины с широким ассортиментом продукции, и XS — компактные экспресс-точки в центральных районах

городов. Такая многоформатная модель позволяет компании гибко адаптироваться к различным категориям покупателей и условиям размещения торговых точек. В каждом регионе магазины оформлены в едином фирменном стиле и работают по стандартизированной ценовой политике, что обеспечивает прозрачность условий покупки и повышает лояльность потребителей.

Цифровое присутствие компании также играет значительную роль в продвижении продукции и взаимодействии с клиентами. SAG EXPRESS активно использует онлайн-платформы и социальные сети для информирования потребителей о новых поступлениях, акциях и особенностях коллекций. Официальный сайт и Instagram-страницы отдельных магазинов служат каналами прямой связи с покупателями и стимулируют рост онлайн-продаж.

Таким образом, SAG EXPRESS можно рассматривать как один из ярких примеров современной розничной сети, совмещающей традиционные торговые подходы с инновационными формами взаимодействия с потребителями. Развитие сети происходит на фоне растущего интереса к оформлению интерьеров, что делает её деятельность актуальной для анализа в контексте рыночных трансформаций и потребительского поведения в регионе. С момента запуска проекта SAG EXPRESS в 2021 году компания активно расширяет свою географию присутствия, открывая новые точки продаж по всей территории Узбекистана. Как видно из таблицы 2, сеть охватывает значительное количество регионов, включая Самаркандскую, Навоийскую, Ташкентскую, Хорезмскую, Каракалпакстан, Сурхандарьинскую и Джизакскую области. Географическое распределение торговых точек свидетельствует о стратегическом стремлении бренда быть ближе к конечному потребителю во всех ключевых административно-территориальных единицах страны.

Также следует отметить активную экспансию в последние годы — более 10 магазинов были открыты только в 2023–2024 гг., что указывает на интенсивную фазу масштабирования бизнеса. При этом разнообразие форматов (XL, XS, специализированные магазины в малых городах) отражает гибкий подход компании к формированию каналов сбыта в зависимости от плотности населения и покупательской активности региона.

Таблица 2. Общая информация о фирменных магазинах SAG EXPRESS

№	Фирменный магазин	Расположение	Адрес
1	Самарканд Рудаки	Самаркандская область	Город Самарканд, улица Рудаки, 55
2	Самарканд Джамбай	Самаркандская область	Джамбайский район, улица Катта Кишлок, дом №33
3	Самарканд Гелион	Самаркандская область	улица Ибн Сины, 23А
4	Самарканд Лифтовый	Самаркандская область	город Самарканд, ул. Спитаменшох 270 Лифтостроительный завод
5	Навои Янги базар	Навоийская область	г., Навоий, ул., Галвбв Шох
6	Навои 2	Навоийская область	Улица Ислама Каримова

7	SAG XL Marvarid	Навоийская область	Навоийская обл., Карманинский р, ул Карманы 9-й дом
8	SAG Bekobod	Ташкентсткая область	город Бекабад, 13-Микрорайон ул. А.Темура
9	SAG xs	Город Ташкент	Город Ташкент, Малая кольцевая дорога, 22-24
10	SAG XL	Город Ташкент	Город Ташкент, улица Большая кольцевая дорога, 111
11	Шоурум “Ургенч”	Хорезмская область	город Ургенч, улица Ёгду
12	Фирменный магазин в Ургенче	Хорезмская область	город Ургенч, ул. И.Дустов 114
13	Хива	Хорезмская область	город Хива
14	Магазин Шимбай	Республика Каракалпакстан	Чимбайский район, "Бердах" МФЙ Дослик махалля 6-й дом
15	Фирменный магазин Нукус	Республика Каракалпакстан	город Нукус, улица Ерназара Алакоза, 171/дом №2
16	SAG Express Сурхандарья	Сурхандарьинская область	Город Термез, напротив Гранд Алмаз
17	SAG Express Джиззак	Джизакская область	город Джиззак, махалля Кахраман

Учитывая масштабность географии и разнообразие форматов магазинов, становится актуальным анализ эффективности их работы, а также оценки структуры и динамики продаж. На данном этапе важно определить, в какой степени сеть магазинов выполняет свои коммерческие задачи, обеспечивая стабильный товарооборот, оптимальную оборачиваемость запасов и высокую клиентскую активность.

Переходя к анализу маркетинговой деятельности и сбыта SAG EXPRESS, целесообразно рассмотреть следующие аспекты:

- Объёмы продаж по регионам и магазинам: выявление наиболее и наименее эффективных точек сбыта, а также факторов, влияющих на различия в товарообороте.
- Форматная эффективность: сравнительный анализ магазинов форматов XP, XL и XS с точки зрения выручки, операционной прибыли, рентабельности.
- Сезонные и региональные особенности спроса: оценка влияния климатических, культурных и инфраструктурных факторов на сбытовую активность в различных областях.

Такой подход позволит не только дать количественную оценку результатам работы магазинов, но и выявить ключевые зоны роста и резервы повышения эффективности сбыта. Источниками данных для анализа маркетинговой деятельности и сбыта послужили данные по фирменным магазинам SAG EXPRESS компании ООО “SAG” за 2023 - 2024 год взятые с ERP – системы 1С.




Диаграмма 1. Динамика выручки полученной от деятельности фирменных магазинов "Sag Express" за период 2023 – 2024 год. (в млн. сумах)

Анализ динамики выручки деятельности "SAG EXPRESS" за период 2023–2024 гг. показал устойчивый рост выручки, с начального уровня около 10 млрд сум в январе 2023 года до 46,5 млрд сум в декабре 2024 года. Это свидетельствует о положительном развитии деятельности продаж компании. Во-вторых, отчетливо прослеживается сезонный характер продаж: в декабре каждого года фиксируются пиковые значения выручки (29,5 млн в 2023 г. и 46,5 млн в 2024 г.), что, скорее всего, связано с предпраздничным спросом.

Для детального анализа выручки мы проанализировали динамику выручки в разрезе фирменных магазинов "SAG EXPRESS" функционирующих более 2 лет. Анализ выручки семи магазинов за 2023–2024 годы позволил выделить три устойчивых сегмента по уровню доходности: лидеры, средний сегмент и аутсайдеры.




Диаграмма 2. Динамика выручки в разрезе магазинов лидеров




Диаграмма 3. Динамика выручки в разрезе магазинов аутсайдеров




Диаграмма 4. Динамика выручки в разрезе магазинов среднего сегмента

Лидирующую группу формируют магазины SamExpress1 и Magazin Urganch, демонстрирующие стабильно высокую выручку с ярко выраженной сезонностью. Среднемесячные показатели у этих магазинов составляют порядка 7 500–8 000 млн сум., а пиковые значения достигают 11 309 млн сум. (SamExpress1, декабрь 2023) и 8 926 млн сум (Urganch, декабрь 2024). Основные пики продаж приходятся на ноябрь – декабрь и август.

Средний сегмент представлен магазинами Xiva, Jizzax, Bekobod и Termiz, где среднемесячная выручка варьируется от 1 200 до 2 200 млн сум. Эти магазины показывают умеренный, но устойчивый рост. Например, Jizzax увеличил выручку с 56 до 1 316 млн сум, а Bekobod — с 373 до 1 674 млн сум. У всех представителей среднего сегмента наблюдается сезонный пик в декабре и рост в сентябре–октябре, что может быть связано с подготовкой к праздничным периодам и к сезонным похолоданиям.

Аутсайдером по уровню выручки остаётся магазин Farg‘ona, демонстрирующий среднюю выручку около 700 млн сум. Прирост за два года в среднем составил +240 млн сум., а сезонные колебания минимальны. Это может свидетельствовать о слабой рыночной позиции или насыщенности конкуренцией в локации.

Сезонность в целом ярко выражена у большинства магазинов: декабрь является самым прибыльным месяцем почти для всех, а также наблюдаются всплески в августе и сентябре. Это говорит о влиянии сезонного спроса (подготовка к праздникам, сезонным похолоданиям и др.) на структуру выручки.

Таким образом, магазины существенно различаются по уровню и динамике выручки, а также по степени подверженности сезонным колебаниям.

Таблица 3. Классификация магазинов по выручке и сезонной активности

Группа	**Магазины**	**Ср. выручка /мес**	**Коэфф. сезонности***	**Характер сезонности**
Лидеры	SamExpress1, Urganch	7 500–8 000	1.6–1.8	Высокая
Средний сегмент	Xiva, Bekobod, Jizzax, Termiz	1 200–2 200	1.2–1.5	Средняя/умеренная
Аутсайдер	Farg‘ona	~700	~1.1	Слабая

Для анализа цикличности и характера динамики выручки от продаж был использована эконометрическая модель Фурье – анализа.

Фурье-анализ (анализ с помощью преобразования Фурье) — это математический инструмент, который используется для разложения сложных временных рядов на сумму синусоидальных компонент. В экономике и финансах он применяется для выявления скрытых периодических закономерностей и циклов в данных. В качестве аналитической формы сезонной волны иногда применяется уравнение следующего вида:

$$\overline{y_t} = a_0 + \sum_{k=1}^{m} (a_k coskt + b_k sinkt),$$

Где k – степень точности гармоники тригонометрического многочлена;

t – время.

Это уравнение представляет собой ряд Фурье, где время (t) выражается в радиальной мере или в градусах;

Таблица 4. Уровни (y_t) при различных фазах цикла (в радианах и градусах)

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Радиальная мера	0	$\frac{\pi}{6}$	$\frac{\pi}{3}$	$\frac{\pi}{2}$	$\frac{2\pi}{3}$	$\frac{5\pi}{6}$	π	$\frac{7\pi}{6}$	$\frac{4\pi}{3}$	$\frac{3\pi}{2}$	$\frac{5\pi}{3}$	$\frac{11\pi}{6}$
Градусы	0	30	60	90	120	150	180	210	240	270	300	330
Уровни (y_t)	(y_1)	(y_2)	(y_3)	(y_4)	(y_5)	(y_6)	(y_7)	(y_8)	(y_9)	(y_{10})	(y_{11})	(y_{12})

Параметры уравнения выравненных уровней, определяемых рядом Фурье, находят по способу наименьших квадратов. Не излагая здесь вывода, приведем готовые формулы, используемые для исчисления указанных выше параметров уравнения ряда Фурье:

$$a_0 = \frac{\sum y}{n}; a_k = \frac{2\sum ycoskt}{n}; b_k = \frac{2\sum ysinkt}{n}$$

Ниже построим уравнения для 7 фирменных магазинов и проанализируем каждые из них:

Таблица 5. Результаты сезонных компонент выручки розничных магазинов на основе тригонометрического разложения Фурье

	A0	cos(t)	sin(t)	cos(2t)	sin(2t)	cos(3t)	sin(3t)
Magazin Urganch	**5 048,6**	**198,4**	**- 770,8**	**- 52,6**	**-281,3**	**-73,4**	**- 411,8**
SamExpress1	**6 799,2**	**- 608,1**	**- 564,5**	**-288,6**	**11,5**	**21,0**	**-206,4**
Magazin Xiva	**1 535,5**	**163,5**	**- 237,4**	**28,2**	**- 98,5**	**-17,8**	**-123,6**
Magazin Termiz	**1 048,9**	**- 33,7**	**-31,7**	**6,2**	**- 40,1**	**16,6**	**1,9**
Magazin Farg‘ona	**766,1**	**- 64,1**	**-40,0**	**- 24,1**	**19,4**	**22,0**	**- 33,2**
Magazin Jizzax	**1 139,1**	**- 81,1**	**- 126,4**	**- 32,7**	**- 61,3**	**- 7,9**	**27,9**
Magazin Bekobod	**1 287,3**	**27,3**	**- 140,9**	**14,5**	**- 27,4**	**5,2**	**- 35,6**

Таблица 6. Сравнительный анализ результатов Фурье - анализа

	A0	Амплитуда первой гармоники	Амплитуда второй гармоники	Амплитуда третьей гармоники
Magazin Urganch	**5 048,6**	**795,9**	**286,2**	**418,3**
SamExpress1	**6 799,2**	**829,8**	**288,8**	**207,5**
Magazin Xiva	**1 535,5**	**288,3**	**102,4**	**124,8**
Magazin Termiz	**1 048,9**	**46,3**	**40,6**	**16,7**
Magazin Farg‘ona	**766,1**	**75,6**	**31,0**	**39,8**
Magazin Jizzax	**1 139,1**	**150,2**	**69,5**	**29,0**
Magazin Bekobod	**1 287,3**	**143,5**	**31,0**	**36,0**

Анализ семи магазинов показывает сильную неравномерность в распределении выручки и сезонной активности. Магазины можно чётко разделить на три группы по средней выручке (параметр A0 в уравнении Фурье):

Лидеры — *SamExpress1* (6799) и *Urganch* (5049). Вместе они формируют более **65% совокупной выручки** всей сети. Кроме высокой выручки, они демонстрируют и наибольшую сезонную волатильность: суммарная амплитуда Фурье-компонент составляет 1971,4 у SamExpress1 и 1931,3 у Urganch. Это указывает на сильную зависимость от времени года, особенно от годовых и квартальных колебаний (доминируют синусоиды первой и третьей гармоники). Для этих магазинов пиковые нагрузки могут превышать базовый уровень продаж на 25–30%, что критично для управления запасами, персоналом и рекламной активностью. При этом низкие месяцы могут опускать продажи почти на 1000–1200 единиц от среднего уровня.

Средний сегмент — *Xiva* (1535), *Bekobod* (1287) и *Jizzax* (1139). Выручка в 3–5 раз ниже, чем у лидеров. У Xiva также зафиксирована сравнительно высокая сезонность — 757, что говорит о наличии чётко выраженных пиков. У Bekobod и Jizzax амплитуда скромнее — 372 и 294 соответственно. Это означает, что сезонное планирование здесь менее критично, но есть потенциал усиления активности в определённые месяцы. Спрос может меняться на 15–20% от среднего.

Аутсайдеры — *Termiz* (1049) и *Farg'ona* (766). Уровень сезонности у них самый низкий: 203 и 265. Продажи ровные, без ярких пиков. Это может быть следствием низкого трафика, ограниченного спроса или устаревшего формата. При такой стабильности, но низкой выручке, целесообразно рассматривать либо перезапуск, либо закрытие магазина, если уровень постоянных издержек не покрывается выручкой.

Другим немаловажным фактором, отражающим эффективность маркетинговой деятельности, является анализ спроса и изучение его составляющих. **Анализ спроса** — это процесс изучения объема и структуры потребительского спроса на товары и услуги с целью выявления факторов, влияющих на его формирование, изменение и динамику, а также для прогнозирования будущего поведения потребителей на рынке. Для детального анализа спроса мы решили построить гистограмму зависимостей "цена – объём продаж"[1] для фирменных магазинов за 2024 год.

Проведённый анализ по семи магазинам показал (Диаграммы 5,6), что основной спрос сосредоточен в ценовых интервалах до 200 тыс сум, особенно в сегменте 100 –200 тыс сум, где уверенно лидируют SamExpress1 и Urganch. Магазин Bekobod выделяется самым высоким объёмом продаж в дешёвом сегменте (до 100 тыс сум), что говорит о сильной ориентации на массового потребителя. Во всех магазинах наблюдается резкое снижение продаж при переходе к более высоким ценовым категориям, особенно свыше 300 тыс сум. Это свидетельствует о том, что основной спрос сосредоточен в доступных и среднеценовых продуктах. Магазины Xiva, Farg'ona и Termiz демонстрируют сравнительно низкие объёмы, что может быть связано с ограниченной клиентской базой или ассортиментом. В целом, рынок демонстрирует чёткую чувствительность к цене, и стратегия продаж должна быть сфокусирована на поддержке и расширении ассортимента в пределах до 200 000 сум.




Диаграмма 5. Диаграмма распределения продаж ковров (в кв.м) по ценовым сегментам и магазинам.

[1] **Гистограмма зависимости "цена – объём продаж"** — это график, отображающий изменение объёма продаж в зависимости от диапазонов цен, позволяя выявить ценовые уровни, при которых достигается наибольшая выручка.




Диаграмма 6. Диаграмма распределения продаж ковров (в кв.м) по ценовым сегментам и магазинам.

Анализ структуры продаж по семи магазинам демонстрирует ярко выраженную ориентацию на ценовые категории до 200 тыс. сум, которые составляют от 74% до 87% от общего объема продаж в каждом магазине. Наиболее сбалансированную структуру имеют Magazin Urganch и SamExpress1, где продажи в сегменте до 100 тыс. сум составляют 30% и 32%, а в категории 100–200 тыс. сум — 47% и 46% соответственно; суммарно — 77% и 78%.

У Magazin Xiva и Magazin Termiz доля продаж в среднем ценовом сегменте (100–200 тыс. сум) составляет 52% и 55%, что является максимальным показателем среди всех торговых точек, тогда как на дешёвый сегмент приходится 26% в обоих случаях. Magazin Farg‘ona и Magazin Jizzax показывают высокие доли продаж в категории до 100 тыс. сум — 34% у обоих, а в сегменте 100–200 тыс. сум — 48% и 51%, что указывает на устойчивую работу с бюджетно-ориентированной аудиторией.

Таблица 7. Структура распределения продаж ковров по ценовым сегментам и магазинам.

	Magazin Urganch	SamExpress1	Magazin Xiva	Magazin Termiz	Magazin Farg‘ona	Magazin Jizzax	Magazin Bekobod
до 100	30%	32%	26%	26%	34%	34%	58%
100-200	47%	46%	52%	55%	48%	51%	29%
200-300	15%	15%	15%	13%	12%	9%	10%
более 400	7%	7%	6%	7%	6%	5%	3%

В то же время Magazin Bekobod выделяется наиболее смещённой структурой — 58% продаж приходится на ценовой интервал до 100 тыс. сум, что значительно выше среднего, тогда как на категорию 100–200 тыс. сум — всего 29%, а продажи товаров дороже 400 тыс. сум составляют лишь 3%, что вдвое ниже, чем у большинства других магазинов. Во всех точках сегмент 200–300 тыс. сум остаётся сравнительно слабо развитым, варьируясь от 9% (Jizzax) до 15% (Urganch, SamExpress1, Xiva). Продажи в категории свыше 400 тыс. сум наименьшие по доле: в среднем 5–7%, за исключением Bekobod, где их доля минимальна.

Эти данные подтверждают, что основная конкурентная борьба разворачивается в диапазоне до 200 тыс. сум, формируя около 80% продажной базы практически для всех участников.

Заключение

Важным направлением развития перерабатывающей промышленности является повышение экономического потенциала предприятий. Рост потенциала позволяет не только

удовлетворять растущие потребности населения в товарах и услугах, но увеличивать их экспорт, обеспечивая международную конкурентоспособность экономики страны.

Проведённые теоретические и практические исследования по изучению данной проблемы позволили нам сделать следующие выводы:

1.Понятие «экономический потенциал» является сложной экономической категорией, охватывающей все уровни и отрасли национальной экономики. В связи с этим, в рамках поставленной цели нами было уточнено определение экономического потенциала, которое позволили ввести некоторые ограничения по кругу исследований. Во-первых, мы использовали его для оценки потенциала отдельных предприятий, а во-вторых, применили метод декомпозиции для изучения разных сторон анализа экономического потенциала.

2. Учёные различных стран едины во мнении, что экономический потенциал включает в себя множество элементов в том числе производственный, трудовой, маркетинговый, инновационный и другие. Хотя есть различия в определении количества элементов, общий подход заключается в системном подходе к анализу экономического потенциала. Это определило цель, задачи и предмет исследования.

3. Изучение экономического потенциала представляет собой сложный аналитический процесс, связанный с обработкой большого объема информации. Учитывая это обстоятельство, основной целью исследования явилось применение методов математического моделирования и программирования для повышения объективности и информативности результатов анализа.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Конституция Республики Узбекистан. – Т.: Адолат, 2023г. – 52 с.
2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.05.2020 г. № УП-5989. О неотложных мерах по поддержке текстильной и швейно-трикотажной промышленности
3. Указ Президента Республики Узбекистан, от 21.01.2022 г. № УП-53. О мерах по стимулированию глубокой переработки, производства и экспорта готовой продукции с высокой добавленной стоимостью текстильными и швейно-трикотажными предприятиями
4. Мусаева Ш.А. Интегрированные маркетинговые коммуникации. Учебное пособие издательство «Махорат», Самарканд – 2022
5. Мусаева Ш.А. Маркетинговые исследования. Учебник ООО «СТАР-СЕЛ» издательско-творческий отдел. Самарканд-2024

HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA GEOLOGIK RAQAMLI INNOVATSIYALARNI TIJORATLASHTIRISH IMKONIYATLARI

[1]M. Abdurahmanova, [2]Z. Alijonova
[1]Geologiya fanlari universiteti i.f.d.prof., [2]3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647570

Anotatsiya. *Tezisda hududiy iqtisodiy rivojlanishda geologik raqamli innovatsiyalarni tijoratlashtirish imkoniyatlari mavzusi yoritiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida tog‘-kon sanoati muhim o‘rin tutib, yalpi sanoat ishlab chiqarishning 15–17 foizini ta’minlaydi. Shu sharoitda Hududiy Raqamli Geologiya Platformasi g‘oyasi ilgari surilgan bolib, u konlar bo‘yicha yagona raqamli baza, 3D modellashtirish, startap inkubatori va ekologik monitoringni o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan.*


Kalit so‘zlar: *Hududiy iqtisodiy rivojlanish, geologik raqamli innovatsiyalar, tijoratlashtirish, PQ-162 qarori, startap inkubatori, Data-as-a-Service, Consulting-as-a-Service, ekologik monitoring, investitsiya oqimi, “yashil iqtisodiyot”.*

Kirish


O‘zbekiston iqtisodiyotida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni tijoratlashtirish hududiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tog‘-kon sanoati mamlakat yalpi sanoat ishlab chiqarishining **15–17 foizini** tashkil etib, foydali qazilmalar eksporti umumiy eksport daromadining **10–12 foizini** ta’minlamoqda. Bu ko‘rsatkichlar geologiya sohasining iqtisodiy tizimdagi o‘rni naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda geologiya va tog‘-kon sohasiga **2,5 mlrd AQSh dollari** miqdorida investitsiya kiritilgani, resurslarni boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu loyixani ishlab chiqishga asos bo`lgan manbalar 1-rasmda keltirilgan bo`lib, ushbu loyixaning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli xam ko`rsatib o`tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli xizmatlar qamrovini kengaytirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlash tog‘risidagi **PQ-162-sonli qarorida** geologiya sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish, ma’lumotlar bazalarini yaratish va xizmatlarni tijoratlashtirishga asosiy e’tibor qaratilgan.

Professor A. Karimov (2023) tadqiqotlarida raqamli geologiya texnologiyalari investitsiya xavfini kamaytirishi va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashi ta’kidlangan. Olim Sh. Raximov (2024) esa raqamli innovatsiyalar ekologik monitoringni kuchaytirib, “yashil iqtisodiyot” strategiyasiga xizmat qilishini ko‘rsatgan. Shu bois, hududiy iqtisodiy rivojlanishda **Hududiy Raqamli Geologiya Platformasi** g‘oyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi, 2-rasmda Hududiy iqtisodiy rivojlanishda Geologik raqamli innovatsiyalarni rijoratlashtirish imkoniyatlari o`z avfzalliklari va kamchiliklari bilan keltirib o`tilgan. Geologiyaning iqtisodiyotdagi roli, orni xam keltirilgan bo`lib, shuningdek, loyixani ishlab chiqishdagi iqtisodiy taxlil natijalari xam keltirilgan.



1-rasm Loyixani ishlab chiqishga asos bo`lgan manbalar va uni amalga oshirish bosqichlari.



2-rasm. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda Geologik raqamli innovatsiyalarni tijoratlashtirish imkoniyatlari.

Mazkur platforma konlar va resurslar bo‘yicha yagona raqamli baza yaratish, geostatistik va 3D modellashtirish orqali qazib olish samaradorligini oshirish, startap inkubatori orqali innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek Data-as-a-Service va Consulting-as-a-Service mexanizmlari orqali xizmat bozorini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ekologik monitoring tizimi orqali qazib olish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish imkonini beradi.O‘zbekistonda geologiya iqtisodiyotining ulushi katta, investitsiyalar hajmi ortib bormoqda, davlat siyosati raqamli xizmatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Endi bu jarayonni tizimli va tijoratlashtirilgan shaklda amalga oshirish uchun **Hududiy Raqamli Geologiya Platformasi** g‘oyasi zarur.


Asosiy qism

Hududiy iqtisodiy rivojlanishda geologik raqamli innovatsiyalarni tijoratlashtirish masalasi O‘zbekiston uchun dolzarbdir. Tog‘-kon sanoati yalpi sanoat ishlab chiqarishning **15–17%** ini tashkil etib, foydali qazilmalar eksporti umumiy eksport daromadining **10–12%** ini ta’minlamoqda. O‘zekiston tog‘ kon sanoati rasmiy statistikasidan buni ko‘rishimiz mumkin . (3-rasm)



3-rasm. Tog-kon sanoatining eksportdagi ulushi.

Bundan tashqari toq-kon sanoati eksportidan mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga kelib tushadigan daromad xam yalpi milliy maxsulotning sezilarli qismini tashkil etadi.Buni 4-rasmda keltirilgan ma`lumotlardan bilish mumkin.



O'zbekiston tog'-kon sanoati tarmoqlari va statistikasi

Tog'-kon sanoatining 15–17% ulushi va foydali qazilmalar eksporti umumiy eksport daromadining 10–12% ini tashkil etadi.

Tarmoq yo'nalishi	Ulushi va iqtisodiyotdagi roli	Statisitik ko'rsatkichlar (2025–2026)
Ochiq konlarni isllash	Tog'-kon sanoatining eng yirik segmenti (~7–8%)	2026-yil yanyar holatiga ko'ra ulushi 7,6%
Neft va gaz qazib olish	Energiya resurslari ichki ta'minoti va eksport daromadi	2025-yilda sanoat ishlab chiqarisining ~5%
Rangli metallar (oltin, mis, uran)	Eksport daromadining asosiy qismini shakllantiradi	Oltin eksporti qazilmalar eksportining 60% dan ortig'i
Qora metall rudalari (temir, marganets)	Mahalliy metallurgiya uchun xomashyo bazasi	2025-yilda temir rudasi 3,2 mln tonna
Qurilish materiallari konlari	Tsement, marmar, granit, gips ishlab chiqarish uchun asos	2025-yilda ishlab chiqarish 12,5 mln tonna

4-rasm Tog‘-kon sanoati yalpi sanoat ishlab chiqarishi ulushi

Bundan kelib chiqadigi mazkur loyiha orqali nafaqat Geologiya sohasi balki O‘zbekiston iqtisodiyotida juda katta va sezilarni o‘sish bo‘ladi.

Mazkur loyiha quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1.Ma’lumotlar markazi: konlar va resurslar bo‘yicha yagona raqamli baza.

2. Geostatistik va 3D modellashtirish: qazib olish samaradorligini oshirish.

3.Startap inkubatori: innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

4.Tijoratlashtirish mexanizmi: Data-as-a-Service va Consulting-as-a-Service xizmatlari.

5.Ekologik monitoring: qazib olish jarayonida ekologik xavflarni kamaytirish.

Ushbu loyihani ishlab chiqish dasturiga geostatistik va 3D modellashtirish amalga Data-as-a-Service va Consulting-as-a-Service , startap inkubatori, ma`lumotlar markazi va ekologik monitoring kiradi (5-rasm).



5-rasm. Hududiy raqamli geologiya platformasi.

Dastlabki xisob-kitoblarga ko‘ra loyihani umumiy 2,5–3 yil muddat davomida to‘liq tayyor bo‘lishi, 3–5 yil ichida o‘zini oqlashi kutilmoqda.

Hududiy Raqamli Geologiya Platformasi O‘zbekiston tog‘-kon sanoatini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli loyiha hisoblanadi. Loyiha hududiy jihatdan mamlakatning tog‘-kon resurslariga boy hududlarini qamrab oladi. Jumladan, **Navoiy viloyatida oltin, uran va fosforit konlari**, **Qashqadaryo va Surxondaryoda neft, gaz, marmar va gips konlari**, **Farg‘ona vodiysida neft,**

koʻmir va qurilish materiallari, **Toshkent viloyatida temir rudasi va granit konlari**, shuningdek **Jizzax, Samarqand va Buxoroda mis, tuz va bentonit konlari** mavjud boʻlib, ular loyihaning asosiy hududiy qamrovini tashkil etadi. Tarmoq qamrovi boʻyicha loyiha togʻ-kon sanoatining asosiy segmentlarini oʻz ichiga oladi. **Ochiq konlarni ishlash** eng yirik segment boʻlib, yalpi sanoat ishlab chiqarishning 7–8 foizini ta'minlaydi, 2026-yil yanvar holatiga koʻra ulushi 7,6 foizni tashkil etgan. **Neft va gaz qazib olish** energiya resurslari ichki ta'minoti va eksport daromadining muhim manbai sifatida 5 foiz ulushga ega. **Rangli metallar (oltin, mis, uran)** eksport daromadining asosiy qismini shakllantiradi, oltin eksporti foydali qazilmalar eksportining 60 foizidan ortigʻini ta'minlaydi. **Qora metall rudalari (temir, marganets)** mahalliy metallurgiya uchun xomashyo bazasi boʻlib, 2025-yilda 3,2 mln tonna ishlab chiqarilgan. **Qurilish materiallari konlari** tsement, marmar, granit va gips ishlab chiqarish uchun asos boʻlib, 2025-yilda 12,5 mln tonna ishlab chiqarilgan. Moliyaviy jihatdan loyiha uchun **boshlangʻich investitsiya 8–15 mln AQSh dollari** miqdorida belgilangan. Kutilayotgan **yillik daromad salohiyati 4–6 mln AQSh dollari**ni tashkil etadi. Loyiha oʻzini **2,5–3 yil ichida oqlashi** prognoz qilinmoqda.Ishchi kuchi jihatidan loyiha **150–200 nafar mutaxassisni** jalb etadi. Ular orasida geologlar, iqtisodchilar, IT mutaxassislar, ekologlar va texnik xodimlar mavjud boʻlib, hududiy markazlarda qoʻshimcha texnik va yordamchi xodimlar ham faoliyat yuritadi.Iqtisodiy va ekologik ta'sir nuqtai nazaridan loyiha **eksport salohiyatini 10–12 foizga oshiradi**, yangi ish oʻrinlari yaratadi va mamlakatning "yashil iqtisodiyot"ga oʻtish jarayoniga hissa qoʻshadi. Shu bilan birga, ekologik monitoring tizimlari orqali chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi.

Loyihaning afzalliklari shundaki unda aniqlik va ishonchli ma'lumotlar bazasi,qazib olish samaradorligi va chiqindilarni kamaytirish,innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash,ekologik monitoring va barqaror rivojlanish,yangi ish o‘rinlari va investitsiya oqimi bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda loyiha kamchiliklaridan ham holi emas. Avvalo yuqori boshlang‘ich xarajatlar, malakali kadrlar yetishmovchiligi ,texnologik integratsiya murakkabligi ,huquqiy va tashkiliy muvofiqlashtirish zaruratidan iborat.



Platforma dastlabki bosqichda yuqori investitsiya talab qiladigan loyiha hisoblanadi. Loyiha amalga oshirilishining **0–18 oy oralig‘i risk zonasi** sifatida baholanadi. Bu davrda asosiy xarajatlar texnologik infratuzilma, 3D modellashtirish va GIS tizimlari, ekologik monitoring hamda startap inkubatori uchun sarflanadi. Umumiy investitsiya hajmi 8–15 mln AQSh dollarini tashkil etadi.Risk zonasining mohiyati shundaki, bu bosqichda daromad hali shakllanmaydi, faqat kapital qo‘yilmalar amalga oshiriladi. Shu sababli iqtisodiy xavf darajasi yuqori bo‘lib, loyihaning moliyaviy barqarorligi hali ta'minlanmagan bo‘ladi. Biroq mazkur davrda huquqiy asoslar yaratiladi, kadrlar

tayyorlanadi va ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Bu jarayonlar keyingi bosqichlarda daromad olish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Endi loyihaning Geologiya iqtisodiyotidagi o‘rni bunda platforma tog‘-kon sanoatida resurslarni samarali boshqarish, investitsiya xavfini kamaytirish, eksport salohiyatini oshirish va “yashil iqtisodiyot” strategiyasini qo‘llab-quvvatlash orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hududiy Raqamli Geologiya Platformasi O‘zbekiston tog‘-kon sanoatini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik tashabbusdir. Loyiha hududiy va tarmoq qamrovi jihatidan keng ko‘lamli bo‘lib, oltin, uran, neft, gaz, rangli va qora metallar hamda qurilish materiallari kabi resurslarni raqamlashtirishni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy jihatdan dastlab katta investitsiya talab qilsa-da, 2,5–3 yil ichida o‘zini oqlashi prognoz qilinmoqda. Natijada yillik daromad 4–6 mln AQSh dollarini tashkil etadi, eksport salohiyati 10–12 foizga oshadi, 150–200 yangi ish o‘rni yaratiladi va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda muhim hissa qo‘shiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PQ-162-sonli qarori** (24.05.2023) “Raqamli xizmatlar qamrovi va hududiy iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarni joriy etish to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2025) — tog‘-kon sanoati ulushi va foydali qazilmalar eksporti statistikasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va tog‘-kon sanoati qo‘mitasi hisobotlari (2025) — investitsiya oqimlari va resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari.
4. Karimov A. (2023). *Geologiya sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi*. Toshkent: TDIU ilmiy jurnali.
5. Raximov Sh. (2024). *Raqamli innovatsiyalar va ekologik monitoringning “yashil iqtisodiyot”dagi o‘rni*. Samarqand: SamDU ilmiy maqolalar to‘plami.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2025). *Hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va investitsiya statistikasi*.

TASHQI EKOLOGIK ZARARNI ICHKILASHTIRISH TAMOYILLARI

Sodikov Zokir Rustamovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti
orcid 0000-0002-0195-4573.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19629949

Annotatsiya. *Ushbu maqola tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar faoliyati natijasida jamiyatga yetkaziladigan zararlarni iqtisodiy xarajatlarga kiritish (internalizatsiya) jarayoni ko‘rib chiqiladi. Maqolada marjinal tamoyil, optimal balans, iqtisodiy rag‘bat, regulyator, adolat va global integratsiya tamoyillari asosiy qoidalar sifatida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *tashqi ekologik zarar, ichkilashtirish, internalizatsiya, MPC, MSC, MEC, ekologik barqarorlik, iqtisodiy rag‘bat, regulyator, O‘zbekiston*

Abstract. *This article analyzes the principles of internalizing environmental externalities from both theoretical and practical perspectives. The process of incorporating social costs caused by producers’ and consumers’ activities into economic expenses (internalization) is examined. The study emphasizes key principles such as the marginal principle, optimal balance, economic incentives, regulatory control, equity, and global integration.*

Keywords: *environmental externality, internalization, MPC, MSC, MEC, ecological sustainability, economic incentive, regulatory mechanism, Uzbekistan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются принципы внутренней инкорпорации внешних экологических издержек с теоретической и практической точек зрения. Процесс включения общественных затрат, возникающих в результате деятельности производителей и потребителей, в экономические издержки (интернализация) анализируется. В статье выделены ключевые принципы: маржинальный принцип, оптимальный баланс, экономические стимулы, регуляторный контроль, справедливость и глобальная интеграция.*

Ключевые слова: *экологические внешние эффекты, интернализация, MPC, MSC, MEC, экологическая устойчивость, экономические стимулы, регуляторные механизмы, Узбекистан.*

Kirish. Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararni ichkilashtirish mexanizmlarining nazariy asoslari o‘ziga xos hisoblanadi. Xususan, Pigou soliqlari tashqi zararlarni ichkilashtirishning klassik vositasi hisoblanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, ifloslantiruvchi faoliyatiga tashqi zarar miqdoriga teng soliq joriy etiladi. Zamonaviy tadqiqotlar karbon soliqlari orqali chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, yashil texnologiyalarni rag‘batlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, emissiya savdosi tizimi (ETS) esa bozor mexanizmlariga asoslangan samarali instrument hisoblanadi. European Union ETS tizimi bu borada eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri bo‘lib, uning afzalliklari ekologik maqsadlarni aniq belgilanishida, bozor orqali resurslar taqsimlanishida, innovatsiyalar rag‘batlantirilishida yuzaga

chiqadi. Bundan tashqari, subsidiyalar va yashil investitsiyalar ham bu boradagi muhim yondashuv mexanizmi hisoblanadi. Chunki, subsidiyalar yashil iqtisodiyotga o‘tishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon Banki tadqiqotlariga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlash uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish (internalizatsiya) – bu ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchining faoliyati natijasida jamiyatga yetkaziladigan zararlarni o‘z ichki xarajatlariga kiritish jarayoni hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonni samarali tashkil etishda bir nechta asosiy tamoyillar mavjud bo‘lib, ular quyidagi tartibda amal qiladi:

1. Marjinal tamoyil (Marginal Principle) bo‘yicha har bir qo‘shimcha ishlab chiqarish birligi natijasida jamiyatga yetkaziladigan qo‘shimcha zarar (MEC) hisobga olinishi kerak. Chunki, zararlarni ortiqcha yoki kam ichkilashtirish ijtimoiy farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, metallurgiya korxonasida ishlab chiqarilgan har bir tonna mahsulot uchun chiqarilgan zarar soliq yoki jarima orqali ichkilashtiriladi.

2. Optimal balans tamoyiliga (Optimality Principle) binoan ichkilashtirish natijasida marjinal xususiy xarajatlar (MPC) bilan marjinal ijtimoiy xarajatlar (MSC) tenglashadigan nuqta topilishi kerak. Bu nuqta – “ijtimoiy jihatdan optimal ishlab chiqarish hajmi”ni belgilab beradi. Shu orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlik ta’minlanadi.

3. Iqtisodiy rag‘bat tamoyiliga (Economic Incentive Principle) asosan ichkilashtirish mexanizmlari (soliq, jarima, kvota, subsidiyalar) ishlab chiqaruvchilarni ekologik zararlarni kamaytirishga rag‘batlantiradi. Chunki, rag‘bat yetarli bo‘lmasa, zarar kamaymaydi, ya’ni mexanizm samaradorligi iqtisodiy motivlarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini joriy etgan korxona soliq imtiyozi yoki subsidiya oladi.

4. Regulyator tamoyiliga (Regulatory Principle) binoan davlat ekologik zararlarni ichkilashtirishning tartibga soluvchi rolini bajarishi lozim. Bu tamoyil emissiya standartlari, chiqindi kvotalari, ekologik litsenziyalar va soliq tizimi orqali amalga oshiriladi. Masalan, muayyan mamlakatda sanoat korxonalari CO_2 va PM2.5 emissiyasini davlat belgilagan standartlar bilan cheklaydi.

5. Tenglik va adolat tamoyiliga (Equity Principle) binoan ichkilashtirish barcha iqtisodiy agentlar uchun adolatli va teng bo‘lishi kerak. Xususan, korxonalar va iste’molchilar o‘rtasida zarar xarajatlari teng taqsimlangan va to‘g‘ri bo‘lishilgan sharoitda bozor samarali ishlaydi. Bu tamoyil ijtimoiy barqarorlikni va aholining ekologik huquqlarini himoyalashni ta’minlaydi.

6. Global va milliy integratsiya tamoyiliga (Integration Principle) binoan tashqi zararlar milliy chegaralardan tashqariga ta’sir (masalan, havo va suv havzalari) qilishi mumkin. shuning uchun ichkilashtirish mexanizmlari milliy va global miqyosda uyg‘un bo‘lishi lozim. Masalan, O‘zbekiston sanoat chiqindilari qo‘shni mamlakatlarga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun qo‘shma mamlakatlar bilan ekologik kelishuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirishning tamoyillari har bir qo‘shimcha zarar marjinal asosda hisobga olinishini, ijtimoiy va xususiy xarajatlar optimal nuqtada uyg‘unlashuvini, iqtisodiy rag‘bat va davlat regulyatsiyasi orqali samaradorlik oshirilishini, adolat va tenglik ta’minlanishini, milliy va global ekologik xavfsizlik mustahkamlanishini ta’minlaydi:

Geissdoerfer va hammualliflar sirkulyar iqtisodiyotni barqaror rivojlanish paradigmasining yangi bosqichi sifatida baholab, ushbu model iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashini ta’kidlaydi [4]. Shu bilan birga, W. Stahel tomonidan ilgari surilgan yondashuvda mahsulotlarning hayotiy siklini uzaytirish va qayta foydalanish mexanizmlari iqtisodiy qiymat yaratishning asosiy omili sifatida ko‘rsatilgan [5].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlar asosida keng tadqiq etilgan. “Circular Economy Action Plan” doirasida resurs samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish hamda yashil innovatsiyalarni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlariga aylantirilgan [6]. OECD tadqiqotlari ham sirkulyar iqtisodiyot iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ekologik bosimni kamaytirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi [7]. Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini milliy iqtisodiyotga joriy etish masalalari o‘rganilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida resurs tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy qarashlar asosan uchta yo‘nalishda shakllangan: nazariy-konseptual yondashuvlar, institutsional siyosat mexanizmlari hamda amaliy iqtisodiy natijalarni baholash metodologiyalari. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Yevropa Ittifoqi tajribasini rivojlanayotgan davlatlar, xususan O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish masalasi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqot jarayonida resurs samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda institutsional boshqaruv mexanizmlari asosiy tahlil mezonlari sifatida o‘rganildi [1].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Yevropa Ittifoqida sirkulyar iqtisodiyot modeli strategik darajada shakllantirilgan bo‘lib, ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarini yopiq sikl asosida tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, “Circular Economy Action Plan” doirasida mahsulot dizaynidan tortib chiqindilarni qayta ishlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlar yagona tizim sifatida boshqarilmoqda [2]. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshib, chiqindilarni poligonlarga yuborish hajmi sezilarli darajada qisqargan [3]. Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya va Fransiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyotning muvaffaqiyati kuchli normativ-huquqiy baza va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlariga bog‘liq. Ushbu mamlakatlarda ishlab chiqaruvchilarning kengaytirilgan javobgarligi tamoyili joriy etilgan bo‘lib, korxonalar mahsulotning butun hayotiy sikli davomida ekologik mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi [4]. Bu esa ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish hamda qayta foydalanish tizimini kengaytirishga xizmat qilmoqda [5]. Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqida chiqindilarni alohida yig‘ish tizimi va zamonaviy qayta ishlash infratuzilmasi sirkulyar iqtisodiyotning asosiy tayanch omili hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida resurs oqimlarini monitoring qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va energiya sarfini kamaytirishga imkon bermoqda [6]. Iqtisodiy natijalar nuqtayi nazaridan qaralganda, sirkulyar iqtisodiyot modeli yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion biznes modellarni shakllantirish hamda yashil investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, resurs samaradorligini oshirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [7].

Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:



1-rasm. Yevropa Ittifoqi tajribasida sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillari

O‘zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlil natijalari mamlakatda sirkulyar iqtisodiyot elementlari shakllanib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda ekologik boshqaruv tizimini kuchaytirish zarurati mavjud. Yevropa Ittifoqi tajribasi milliy iqtisodiyotda chiqindilarni iqtisodiy resurs sifatida baholash, yashil investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqaruvchilarning ekologik javobgarligini oshirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin [8]. Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil natijalari sirkulyar iqtisodiyot modeli barqaror iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlovchi samarali mexanizm ekanligini tasdiqlaydi hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini milliy iqtisodiy siyosatga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sirkulyar iqtisodiyot modeli Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muammolarni kamaytirishda samarali iqtisodiy mexanizm sifatida shakllangan [1]. Ushbu model ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarini yopiq sikl asosida tashkil etish orqali chiqindilar hajmini kamaytirish, resurs samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda [2]. Tahlillar shuni tasdiqladiki, Yevropa Ittifoqida sirkulyar iqtisodiyot muvaffaqiyati bir nechta muhim omillar bilan izohlanadi: kuchli normativ-huquqiy baza, davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirish choralarining mavjudligi, yashil texnologiyalarni keng joriy etish hamda aholining ekologik madaniyatining yuqori darajada shakllanganligi [3]. Ayniqsa, chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish va ishlab chiqaruvchilarning kengaytirilgan javobgarligi tamoyili amaliy samaradorlikni oshirgan [4].

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari mamlakatda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur institutsional va strategik asoslar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Biroq qayta ishlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, innovatsion texnologiyalar ulushining pastligi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati mavjud [5]. Shu munosabat bilan quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

a) sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga tizimli ravishda integratsiya qilish;

b) chiqindilarni alohida yig‘ish va qayta ishlash infratuzilmasini hududlar kesimida rivojlantirish;

c) yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarni soliq va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish;

d) ishlab chiqaruvchilarning kengaytirilgan ekologik javobgarligi tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

e) ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion startaplarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

f) aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim va targ‘ibot dasturlarini kengaytirish.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish uzoq muddatli strategik yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish imkonini beradi [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kirchherr J., Reike D., Hekkert M. Conceptualizing the Circular Economy: An Analysis of 114 Definitions // Resources, Conservation and Recycling. – 2017. – Vol.127. – P.221–232.
2. Ellen MacArthur Foundation. Towards the Circular Economy: Economic and Business Rationale for an Accelerated Transition. – London: EMF Publishing, 2013.
3. Geissdoerfer M., Savaget P., Bocken N., Hultink E. The Circular Economy – A New Sustainability Paradigm? // Journal of Cleaner Production. – 2017. – Vol.143. – P.757–768.
4. European Commission. Circular Economy Action Plan: For a Cleaner and More Competitive Europe. – Brussels, 2020.
5. European Commission. Closing the Loop – An EU Action Plan for the Circular Economy. – Brussels, 2015.
6. Stahel W.R. The Circular Economy: A User’s Guide. – London: Routledge, 2019.
7. OECD. Resource Efficiency and Circular Economy. – Paris: OECD Publishing, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019.
9. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilishi va uning o‘ziga xos hususiyatlari // Journal of Innovations in Social Sciences Volume 1 | Issue 4 (Oct 2021) B-58-65

WAYS TO IMPROVE THE CREATION, SUPPORT, AND DEVELOPMENT OF MOTIVATION IN PROMOTION

Musayeva Shoira Azimovna
Professor of Samarkand Institute of Economics and Service
Orsid code -0009-0000-9577-6976
https://doi.org/10.5281/zenodo.19679583

Abstract. *This article scientifically analyzes the concept of incentive as a process of forming motivation, supporting employees and ensuring their professional and personal development. In modern management conditions, incentive has become a complex system that is not limited to material rewards, but also includes spiritual, social and psychological factors. The study reveals the impact of incentive on motivation, its role in organizational effectiveness and practical significance. Also, proposals are developed to improve effective incentive mechanisms based on foreign and domestic experience.*

Keywords: *Encouragement, motivation, human factors, management, employee performance, development, support.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rag‘batlantirish tushunchasi motivatsiyani shakllantirish, xodimlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishini ta’minlash jarayoni sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy menejment sharoitida rag‘batlantirish faqat moddiy mukofotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ma’naviy, ijtimoiy va psixologik omillarni ham o‘z ichiga olgan murakkab tizimga aylangan. Tadqiqotda rag‘batlantirishning motivatsiyaga ta’siri, uning tashkilot samaradorligidagi o‘rni va amaliy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajriba asosida samarali rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Rag‘batlantirish, motivatsiya, inson omili, boshqaruv, xodimlar samaradorligi, rivojlanish, qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация. *В данной статье научно анализируется концепция мотивации как процесса формирования мотивации, поддержки сотрудников и обеспечения их профессионального и личностного развития. В современных условиях управления мотивация стала сложной системой, которая не ограничивается материальными вознаграждениями, но также включает в себя духовные, социальные и психологические факторы. Исследование выявляет влияние мотивации на мотивацию, ее роль в организационной эффективности и практическое значение. Также разработаны предложения по совершенствованию эффективных механизмов мотивации на основе зарубежного и местного опыта.*

Ключевые слова*: Мотивация, мотивация, человеческий фактор, управление, производительность труда, развитие, поддержка.*

Introduction. In a market economy, the sustainable development of organizations and enterprises largely depends on the human factor, that is, the attitude, responsibility and activity of employees to work. In the modern competitive environment, while technologies, financial resources and innovations are gaining importance, it is human capital that is emerging as the main strategic

advantage of the organization. And the full realization of the potential of employees is impossible without effective management and a sound incentive system.

Motivation is an important management tool for increasing employee productivity, directing them towards the general goals of the organization, and increasing their interest in the work process. Motivation is not limited to material rewards or salary increases, but also includes factors such as recognition, creating opportunities for professional development, social support, and improving the psychological environment. Such a comprehensive approach creates positive motivation in employees and strengthens their commitment to work. Incentives are the process of creating, maintaining, and continuously developing motivation. While initial incentives attract employees to work, consistent and fair incentives stabilize their motivation and encourage professional growth. As a result, employees strive not only to complete assigned tasks, but also to show initiative, be creative, and actively work in the interests of the team. Therefore, the formation of an effective incentive system in modern management is one of the urgent issues. Each organization should develop flexible and fair incentive mechanisms, taking into account the characteristics of its activities, staff composition and strategic goals. Such an approach, while ensuring the long-term development of the organization, serves to fully realize the human factor.

Analysis of literature on the topic. In scientific literature, the issues of encouragement and motivation are widely covered as one of the important research areas of management and psychology. These concepts are of great importance in the effective organization of employees' labor activities, the formation of their attitude to work, and increasing the effectiveness of the organization. At different times, scientists have explained the sources of motivation, incentive mechanisms, and their impact on human behavior based on various theoretical approaches.

In particular, according to the theory of the hierarchy of needs developed by Abraham Maslow, human behavior is directed towards satisfying the following sequential needs: physiological, safety, social, esteem, and self-actualization.An analysis of the existing literature on marketing shows the need to improve modern marketing principles, brand promotion methods and a flexible approach to consumer requirements. In his textbook on marketing strategies, the expert RGIbragimov states the following: “Marketing strategy is understood as the use of a model of the principles of the enterprise's behavior in the market, established for a certain period of time. With its help, the enterprise seeks to ensure its success.”Many economists have been involved in the development and implementation of marketing strategies. Among them are such famous scientists as F. Kotler, David Aeker, Clayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp, and Jay Bayer. While the research in the field of marketing conducted in our country for many years is based on national characteristics, it is also necessary to recognize the scientists who have made a significant contribution to the development of marketing theory. These include R.Ibragimov, YO.Abdullaev, A.Saliev, M.Sharifkhodjaev, D.Rakhimova, Sh.Ergashkhodjaeva, Sh.Musayeva and others.

Research methodology. This study used an analytical method. Through this method, the concepts of incentive and motivation were studied in depth based on scientific sources and their content and essence were systematically analyzed. Scientific literature, research on management theories and practical views were analyzed, and the role of incentive in creating, supporting and developing motivation was identified. Using the analytical method, material and non-material forms of motivation were considered separately, and their impact on employee behavior and labor efficiency was evaluated on a logical basis. This method made it possible to reveal the internal

mechanisms of the motivation process, draw theoretical conclusions, and develop scientifically based proposals.

Analysis and results. The conducted analyses show that an effectively organized incentive system significantly increases employees' interest in work, creates a positive psychological climate within the team, and improves the effectiveness of the organization's activities. Incentives are an important management mechanism that not only involves employees in the labor process, but also increases their professional activity, initiative, and level of responsibility.

According to the results of the analysis, forms of material incentives - wages, awards, bonuses and additional payments - play an important role in ensuring short-term motivation of employees. In particular, rewards linked to labor results create a sense of justice in employees and encourage them to complete assigned tasks within the established deadlines. However, relying solely on material incentives may not produce the expected effect in the long term, because over time, material incentives become habitual for employees and their motivational effect decreases.

Intangible incentives play an important role in forming and maintaining internal motivation of employees in the long term. Recognizing employees' work, expressing confidence in them, creating opportunities for career growth, improving qualifications and creating conditions for professional development strengthen employees' sense of loyalty and responsibility for their work. As a result, employees work not only for material benefit, but also for the purpose of self-expression, finding their place in the team and professional growth. Analysis shows that the combination of tangible and intangible incentives gives the highest efficiency. If the incentive system is formed taking into account the individual needs and interests of employees, motivation will be stable and continuous. In such conditions, employees strive to take the initiative, put forward innovative ideas and actively participate in achieving collective goals. In general, the results of the analysis confirm that motivation is not only a process of creating motivation, but also a process of constantly supporting and developing it. An effective incentive system serves to strengthen the internal environment of the organization, fully realize the potential of employees, and ensure the long-term competitiveness of the organization.

Based on the results of the study, it can be noted that improving the incentive system in organizations is an important condition for the development of human-oriented management. In this regard, it is advisable to organize the incentive process as a comprehensive system that covers not only material rewards, but also the spiritual and professional needs of employees. In particular, recognizing the work of employees, supporting their initiative and creativity, and expanding opportunities for professional development ensure the stability of motivation. It is also necessary to take into account the individual characteristics, level of qualification and personal needs of employees when developing incentive mechanisms. A flexible and fair incentive system creates an atmosphere of trust between employees and strengthens teamwork. This contributes to the improvement of the internal environment of the organization and increases management efficiency.

Conclusion. In conclusion, motivation is an integral and important component of the modern management system as a process of creating, supporting and continuously developing motivation. In a market economy and in conditions of strong competition, the effectiveness of organizations directly depends not only on material resources or technological capabilities, but also on the internal motivation, professional activity and initiative of employees. From this point of view, well-thought-out and systematically implemented incentive mechanisms are one of the main factors of the sustainable development of the organization.

An effective incentive system not only forms a positive attitude of employees towards their work, but also helps them to fully realize their professional potential. The combination of material and non-material incentives enhances the sense of responsibility, loyalty and involvement in the goals of the organization. As a result, employees begin to perceive their duties not just as a task, but as an important part of personal development and overall success. Also, the continuous and fair implementation of incentives creates a healthy socio-psychological environment within the organization, strengthens teamwork and reduces personnel turnover. This leads to high labor productivity, increased innovative activity and competitiveness. Therefore, each organization should approach the issue of incentives as a priority in its development strategy and constantly improve it in accordance with the requirements of modern management and the real needs of employees.

References

1. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, No. 166 dated 29.03.2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. The rule of law and the protection of human interests are the key to the country's development and the well-being of the people. - T .: Uzbekistan, 2017.- 48 p.
3. Mirziyoyev Sh.M. We will build a great future with our brave and noble people. - T .: Uzbekistan, 2017.- 488 p.
4. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. January 24, 2020. - People's Speech, January 26, 2020.
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan".
6. Azimovna, MS (2022). Professor of Samarkand Institute of Economic and Service, Samarkand, Uzbekistan. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 1(9), 20-23.
7. Musayeva, S., & Usmanov, F. (2022). Ways to develop marketing activities in tourist organizations. Science and innovation, 1(A5), 84-88.
8. Azimovna, MS, Ilkhomovna, UD, & Shokhrukhovich, UF (2022). Issues of improving productivity competition in agriculture. Online scientific journal of innovation in social sciences.-2022.-C, 51-53.
9. Azimovna, MS, Ilkhomovna, UD, & Shokhrukhovich, UF (2022). The role of marketing in increasing the economic efficiency of service enterprises.
10. Azimovna, MS, Ilkhomovna, UD, & Shokhrukhovich, UF (2022). The concept of a correct marketing policy in trade and service enterprises.
11. Musayeva, S. (2022). Studying the organization of advertising activities ofgoodsat" Samarkand tea packaging factory" JSC. Science and innovation, 1(A6), 185-192.
12. Musayeva, S. (2022). Prospects for the development of "stekloplastik" llc activity in the conditions of the market economy. Science and innovation, 1(A6), 539-546.
13. Azimovna, MS, Ilkhomovna, UD, & Shokhrukhovich, UF (2022). Importance and Characteristics of Brand Choice in Services. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1-3.
14. Musaeva Sh. A. Marketing research. Textbook Publishing and creative department of “STAR-SEL” LLC. Samarkand–2023
15. Musaeva Sh. A. Integrated marketing communication. Textbook. "Mahorat" publishing house, Samarkand -2022.

TIJORAT BANKLARI KREDIT OPERATSIYALARI VA MUAMMOLI KREDITLARINING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI

Sabirova Lobar Baxramovna
Urganch Innovatsion universiteti, v.b. dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647515

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli va muammoli kreditlar dinamikasi tahlil qilinib, ularning bank tizimi barqarorligiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda 2020–2024-yillar statistik ma’lumotlari asosida muammoli kreditlarning o‘sish tendensiyalari aniqlangan hamda Seasonal ARIMA (SARIMA) modeli yordamida 2025–2028-yillar uchun prognozlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida kredit portfeli hajmi barqaror o‘sishi bilan birga muammoli kreditlar ham ortib borayotganligi aniqlanib, kredit risklarini boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

Abstract. *This article analyzes the dynamics of credit portfolios and non-performing loans (NPLs) in the commercial banking system of Uzbekistan and evaluates their impact on financial stability. Based on statistical data for 2020–2024, trends in the growth of problem loans are identified. Using the Seasonal ARIMA (SARIMA) model, forecasts for 2025–2028 are developed.*

The results show that while the total volume of bank credit is expected to grow steadily, the volume of non-performing loans will also increase, indicating the need for improved credit risk management. The study proposes scientifically grounded recommendations aimed at enhancing the quality of loan portfolios, including diversification strategies, implementation of credit scoring systems, and strengthening monitoring mechanisms.

Kalit so‘zlar: *kredit portfeli, muammoli kreditlar (NPL), SARIMA modeli, kredit riski, tijorat banklari, prognozlash, bank barqarorligi.*


Keywords: *credit portfolio, non-performing loans (NPL), SARIMA model, credit risk, commercial banks, forecasting, financial stability*

Tijorat banklarining asosiy faoliyati – bu kreditlash jarayoni bo‘lib, u banklarning daromadlarining muhim manbaidir. Biroq, berilgan kreditlarning hammasi ham o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilmasligi mumkin. Bunday hollarda, ular muammoli kreditlar (ya’ni, kechiktirilgan, qaytmas yoki potentsial xavf ostidagi kreditlar) sifatida tasniflanadi. Muammoli kreditlarning ortishi bankning umumiy kredit portfeli sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bunday kreditlar bank daromadlarining pasayishiga va kredit risklarining ortishiga olib keladi. Bu holat, o‘z navbatida, bankning likvidlik darajasiga, moliyaviy barqarorligiga va investitsiya imkoniyatlariga jiddiy tahdid soladi. Ayniqsa, kreditlar bo‘yicha zaxiralar ajratish talabi tufayli bank kapitali kamayadi, bu esa yangi kreditlash hajmining qisqarishiga olib keladi.

Muammoli kreditlarning yuqori ulushi bank portfeli diversifikatsiyasiga va kredit siyosatining samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda banklar kreditlash mezonlarini yanada qat'iylashtiradi, risklarni kamaytirish uchun ko‘proq garov va kafolatlar talab qiladi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotdagi faol tadbirkorlik sub’yektlari uchun kredit resurslariga kirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, muammoli kreditlar moliyaviy hisobotlarda aktivlarning

sifatsizligini oshiradi va investorlarda hamda xalqaro reyting agentliklarida bankka bo‘lgan ishonchni pasaytiradi. Bu holat bankning xorijiy moliya bozorlarida mablag‘ jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuning uchun muammoli kreditlarni erta aniqlash, monitoring qilish va ularni samarali boshqarish har bir tijorat bankining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida kreditlash faoliyati kengayib, iqtisodiyotni moliyalashtirish hajmi ortgan bo‘lishiga qaramay, muammoli kreditlar hajmining o‘sishi ushbu yo‘nalishdagi tizimli muammolarni ko‘rsatmoqda. 2020-yil boshida jami muammoli kreditlar hajmi 5 021,2 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 17 211,7 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa ikki yil ichida muammoli kreditlar hajmining qariyb 3,5 baravarga oshganini anglatadi. Ushbu keskin o‘sish pandemiya davridan so‘ng korxonalar moliyaviy barqarorligining zaiflashgani, aholining to‘lov qobiliyatining pasaygani va ayrim banklar tomonidan kreditlash siyosatida risklar yetarlicha baholanmaganligini anglatadi. Ayniqsa, 2022-yildagi 5,3 foizlik muammoli kreditlar ulushi banklar uchun xavfli signal bo‘lib xizmat qilgan.




1-rasm. Muammoli kreditlarning bank tizimiga ta’siri, (mlrd.so‘mda)

Bunday o‘zgarishlar nafaqat kredit portfeli sifatiga, balki banklarning kapital yetarliligi darajasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, 2022-yilda muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati 24 foizga yetdi, bu esa har to‘rt so‘mlik kapitalga bir so‘mdan ortiq muammoli kredit to‘g‘ri kelganini ko‘rsatadi. Bunday disproportsiya moliyaviy barqarorlik uchun jiddiy xavf tug‘diradi, chunki bank kapitalining muammoli kreditlar bilan haddan tashqari yuklanishi likvidlik inqiroziga sabab bo‘lishi mumkin. 2023 va 2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich nisbatan pasaygan bo‘lsa-da (18,5% va 17,1%), bu holat muammoli kreditlar butunlay bartaraf etilganini anglatmaydi. Aksincha, bu o‘zgarishlar muammoli kreditlar hajmi biroz qisqargani yoki bank kapitalining ko‘paygani bilan izohlanishi mumkin.

2024-yil boshidagi holatga ko‘ra, jami muammoli kreditlar hajmi 16 621 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, bu 2023-yilga nisbatan biroz o‘sishni ko‘rsatadi. Bu holat banklar tomonidan kredit risklarini baholash tizimlarining hali ham mukammal emasligini anglatadi. Shu bilan birga, kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi 3,5 foizgacha pasaygani, muayyan darajada kredit

portfelining sifati yaxshilanishini ko‘rsatsa-da, bu o‘sish sur'atlari barqaror ekanligini anglatmaydi. O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy o‘sishning asosi bo‘layotgan bank sektorining barqarorligini ta’minlash uchun, muammoli kreditlar yuzaga kelishiga olib keluvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularni oldindan aniqlash va ehtimoliy xavflarni minimallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish nihoyatda muhimdir. Bu yo‘lda zamonaviy kredit skoring tizimlari, mijozlar monitoringi va ekonometrik prognozlash usullarini keng joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

2020–2024 yillar davomida kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklaridagi muammoli kreditlar hajmi keskin o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatdi. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 4 620 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 15 289,8 mlrd so‘mga yetdi — bu qariyb uch baravar o‘sish degani. Muammoli kreditlarning ushbu banklar kredit portfelidagi ulushi ham xuddi shunday keskin oshib, 2022-yilda 5,5 foizga yetgan. Ushbu o‘sish mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholining ehtiyojlarini moliyaviy resurslar orqali ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining iqtisodiy xarajatlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, pandemiya yillarida davlat ulushiga ega banklar ijtimoiy yo‘naltirilgan kreditlar — ya’ni, imtiyozli foiz stavkalari asosida aholi, yoshlar, kichik biznes va qishloq xo‘jaligi sub’yektlariga ajratilgan kreditlar tufayli yuqori risklarga duch keldi.




2-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘mda)

Davlat ulushi mavjud banklarning muammoli kreditlari ulushi yuqoriligiga sabab sifatida ularning bozor tamoyillariga to‘liq asoslanmagan holda faoliyat yuritishi ko‘rsatiladi. Bunday banklar ko‘pincha hukumat topshirig‘i asosida subsidiyalashtirilgan yoki garovsiz kreditlar ajratishga majbur bo‘ladi. Bu esa kredit oluvchilarning to‘lov qobiliyati yetarli darajada tahlil qilinmasligiga, moliyaviy monitoringning sust bo‘lishiga olib keladi. 2022-yilda ushbu banklardagi muammoli kreditlarning ularning kapitaliga nisbati 26,2 foizga yetgani — ya’ni har to‘rt so‘mlik kapitalga bitta muammoli so‘m to‘g‘ri kelgani — bu risklarning jiddiyligini ko‘rsatmoqda. Shundan

keyingi yillarda ko‘rsatkich biroz pasaygan bo‘lsa-da (2024-yilda 21,0%), bu hali barqarorlikka erishilganini anglatmaydi, aksincha, tizimdagi tizimli xatarlar saqlanib qolayotganini bildiradi.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar hajmining yuqoriligi O‘zbekiston bank tizimida islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Banklar faoliyatini bozor tamoyillariga asoslash, kredit siyosatini risklar asosida shakllantirish, ijtimoiy yo‘naltirilgan dasturlarni alohida moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish zarur. Davlat topshiriqlarining bank tizimiga bevosita yuklanishi o‘rniga, bunday moliyalashtirishni davlat kafolati yoki budjet resurslari orqali amalga oshirish ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aks holda, davlat ulushiga ega banklar doimiy ravishda muammoli kreditlar xavfi ostida qolaveradi va bu banklarning sog‘lom raqobat muhiti shakllantirishdagi rolini pasaytiradi. Shu bois, bu banklar faoliyatini optimallashtirish orqali umumiy bank tizimining barqarorligini oshirish mumkin bo‘ladi.




3-rasm. O‘zsanoatqurilishbankda muammoli kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘mda)

2020–2024 yillar davomida O‘zsanoatqurilishbankda muammoli kreditlar hajmi va ularning bank kredit portfelidagi hamda kapitalga nisbatan ulushi muayyan o‘zgarishlarga uchradi. 2020-yilda atigi 331,6 mlrd so‘mlik muammoli kreditlar qayd etilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 1 575,1 mlrd so‘mga yetgan. Bu davr mobaynida bank kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi 1 foizdan 3,8 foizgacha, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati esa 5,1 foizdan 21,1 foizgacha oshgan. Ayniqsa, 2021–2022 yillarda bank tomonidan qurilish, sanoat va ishlab chiqarish sohalariga ajratilgan yirik loyihaviy kreditlar to‘liq tahlil qilinmasdan taqdim etilgani ehtimoli yuqori, bu esa risklarni kuchaytirgan.

2023–2024 yillarda muammoli kreditlar hajmi biroz qisqargani (2024-yilda 1 283 mlrd so‘m) va kredit portfelidagi ulushi pasaygani kuzatiladi. Bunda bank tomonidan amalga oshirilgan risklarni boshqarish siyosatining mustahkamlanishi, kredit monitoringi jarayonlarining kuchaytirilgani va qayta moliyalashtirish mexanizmlarining tatbiq etilgani muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati 2023-yilda

21,6% ni, 2024-yilda esa 14,7% ni tashkil etgani bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf omillarining saqlanib qolayotganini bildiradi. Bu holat O‘zsanoatqurilishbank uchun kredit siyosatini chuqur tahlil asosida yuritish, yuqori riskli sohalarda kreditlash hajmini cheklash va ta’minotli kreditlar ulushini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

2020–2024 yillar davomida Trastbankda muammoli kreditlar hajmi va ularning bank faoliyatiga ta’siri o‘zgaruvchanlik kasb etdi. 2020-yilda atigi 29,9 mlrd so‘mlik muammoli kreditlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 50,6 mlrd so‘mga oshgan, bu esa kredit portfelidagi ulushning 1,7 foizdan 2,3 foizga ko‘tarilishiga olib kelgan. 2022-yilga kelib esa muammoli kreditlar hajmi deyarli o‘zgarmagan holda 53,0 mlrd so‘mni tashkil etgan, lekin ulushi 1,9 foizgacha pasaygan. Bu ko‘rsatkichlar Trastbank tomonidan kreditlar monitoringi va xavf tahlilida nisbatan ehtiyotkorlik bilan ish yuritilganini bildiradi. Ayniqsa, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati 2022-yilda 4,3 foizgacha tushgani bankning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin.




4-rasm. Trastbank XABda muammoli kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘mda)

Biroq 2023-yilda Trastbankda keskin o‘zgarish kuzatildi — muammoli kreditlar hajmi to‘satdan 207,6 mlrd so‘mga oshib, kredit portfelidagi ulushi 5,9 foizga yetdi. Bu bank uchun sezilarli og‘ish bo‘lib, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati ham 12,3 foizgacha oshdi. Bunday holatga ehtimoliy sabab sifatida kredit siyosatidagi liberal yondashuv, yangi yirik loyihalarni moliyalashtirishdagi risklarni yetarlicha tahlil qilmaslik yoki ayrim tarmoqlarda qarzdorlarning to‘lov qobiliyatining pasayishi ko‘rsatilishi mumkin. Shunga qaramay, 2024-yilda bank bu holatni nazorat ostiga olgan ko‘rinadi — muammoli kreditlar hajmi 101,0 mlrd so‘mga tushgan, portfeldagi ulushi esa 2,0 foizgacha kamaygan. Kapitalga nisbati ham 4,5 foizga pasaygan bo‘lib, bu bank tomonidan risklarni boshqarish bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aks ettiradi. Kelgusi yillarda Trastbank ushbu ijobiy tendensiyani mustahkamlash uchun kredit

portfelining sifati ustidan monitoringni kuchaytirishi, qarzdorlarning moliyaviy holatini doimiy tahlil qilishni davom ettirishi zarur.

Bank tizimining kredit portfeli va muammoli kreditlarining dinamikasini Seasonal ARIMA (SARIMA) modeli asosida prognoz qilish hozirgi davrda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit portfeli – bu banklarning asosiy daromad manbai bo‘lib, uning hajmi va sifati bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va ishonchliligini belgilab beradi. Kreditlar hajmi ortayotgan bo‘lsa-da, bu o‘sish doim ham sog‘lom kredit siyosatini anglatmaydi. Shuning uchun SARIMA kabi vaqt qatori modellaridan foydalangan holda kredit portfelining kelgusi oylarda yoki yillarda qanday o‘zgarishini oldindan aniqlash orqali, banklar strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va risklarni boshqarish jarayonlarini ancha samarali amalga oshirishi mumkin. Ayniqsa, mavsumiy omillar (masalan, qishloq xo‘jaligi, savdo va qurilish sohalaridagi mavsumiy kredit talabining o‘zgarishi) SARIMA modeli yordamida aniq aks ettiriladi va bu banklarga kredit taqsimoti, likvidlikni boshqarish va daromad prognozlarini to‘g‘ri tuzishda yordam beradi.


Alohida olingan tijorat banklarining kredit portfeli va undagi muammoli kreditlar dinamikasini SARIMA modeli asosida tahlil qilish esa banklararo taqqoslash, individual riskni aniqlash va har bir bankning ichki siyosatini optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, ayrim banklarda kredit hajmi barqaror o‘sayotgan bo‘lsa-da, muammoli kreditlar ulushi ham oshayotgan bo‘lishi mumkin, bu esa kredit siyosatining sifati pastligidan dalolat beradi. SARIMA modeli orqali nafaqat kredit hajmidagi mavsumiy tendensiyalar, balki muammoli kreditlarning davriy yoki progressiv o‘sishi aniqlanadi va bu asosda banklar o‘z qarz oluvchilarini baholash mezonlarini kuchaytirish, kafolat siyosatini takomillashtirish yoki inkassatsiya bo‘limlari faoliyatini kuchaytirish choralarini ko‘rishadi. Shuningdek, bu model asosida regulator – Markaziy bank ham umumiy tizimda yoki muayyan banklarda yuzaga keladigan sistemaviy xatarlarni oldindan ko‘rib, makroprudensial siyosat choralarini ishlab chiqish imkoniga ega bo‘ladi.



5-rasm. O‘zbekiston bank tizimida kredit portfelining prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

SARIMA modeli asosida amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimidagi jami kreditlar hajmi barqaror o‘sish tendensiyasini saqlab qoladi. 2020-yil mart oyida bu ko‘rsatkich 221,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil dekabriga kelib 533,1 trln so‘mga


yetgan. Prognozga ko‘ra, 2025-yil davomida o‘sish davom etib, yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 2,5–3% atrofida bo‘ladi. 2026-yil mart oyida kreditlar hajmi 590 trln so‘mni tashkil etishi, 2027-yil martida esa 640 trln so‘mga yetishi kutilmoqda. Nihoyat, 2028-yil mart oyida bu ko‘rsatkich 685 trln so‘m atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o‘sish moliyaviy bozorning kengayib borayotganini, bank tizimining kreditlash salohiyati va mijozlar talabi oshayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, kredit portfelining sifatli boshqarilishi banklar barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.



6-rasm. O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarning prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.


O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar hajmi esa tarixiy davrda ko‘tarilish va pasayish davrlarini bosib o‘tgan. 2020-yil mart oyida muammoli kreditlar 5,02 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil dekabriga kelib bu ko‘rsatkich 21,18 trln so‘mga yetgan. Bu 4 yilda deyarli 4,2 barobar ko‘tarilganini bildiradi. SARIMA modeli prognozlariga ko‘ra, 2025-yilda muammoli kreditlar o‘zgaruvchanlik bilan o‘sishda davom etib, 2026-yil mart oyida 23,5 trln so‘mga, 2027-yil martida 25,6 trln so‘mga yetadi. 2028-yil mart oyida esa bu ko‘rsatkich 27,1 trln so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa bank tizimida risklarni baholash, kreditlar monitoringini kuchaytirish va samarali kredit siyosatini shakllantirish zaruratini ko‘rsatadi. Kreditlar hajmidagi o‘sish muammoli kreditlar bilan birgalikda oshayotganligi, ularning nisbatini (masalan, 2024-yil dekabrda muammoli kreditlar darajasi 3,97%) doimiy monitoring qilish zarurligini anglatadi.

SARIMA modeli asosida 2020-yil martidan 2024-yil dekabrigacha bo‘lgan rasmiy statistik ma’lumotlar asosida prognoz qilingan davlat banklaridagi jami kreditlar hajmi 2025-yil yanvarida taxminan 15,2 trln so‘mni tashkil qilishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich 2026-yil yanvarida 15,8 trln so‘m, 2027-yil yanvarida esa 16,5 trln so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda. 2028-yil martiga kelib, kreditlar hajmi 17,2 trln so‘m atrofida bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa 2024-yil dekabrdagi 14,34 trln so‘mlik kredit hajmidan deyarli 2,9 trln so‘mga ko‘p bo‘lib, yaqin 3 yilda 20 foizdan ortiq o‘sish kuzatilishini anglatadi. Prognoz chizig‘ida mavsumiylik va qisqa muddatli pasayishlar mavjud bo‘lishiga qaramay, umumiy tendensiya ijobiy, ya’ni kreditlar hajmi bosqichma-bosqich ortib borishi kutilmoqda.




7-rasm. Kapitalida davlat ulishi mavjud bo‘lgan tijorat banklarida kredit portfeli va muammoli kreditlari hajmining prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

Boshqa tomondan, muammoli kreditlar hajmi ham barqaror o‘sishda davom etishi mumkin. 2024-yil dekabrida muammoli kreditlar hajmi 366,7 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, prognozga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2025-yil yanvarida 369 mlrd so‘mdan oshib, 2026-yil yanvarida 388 mlrd so‘m, 2027-yil yanvarida 409 mlrd so‘m va 2028-yil martida esa 430 mlrd so‘mga yaqinlashishi kutilmoqda. Ya’ni, uch yillik prognoz davrida muammoli kreditlar hajmi taxminan 63 mlrd so‘mga yoki 17% ga oshishi mumkin. Bu holat banklar uchun kredit risklarini tahlil qilish va kredit siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritish zarurligini ko‘rsatadi. Muammoli kreditlar hajmidagi o‘sish, iqtisodiy muhit, to‘lov intizomi va kredit monitoring tizimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkin.



8-rasm. O‘zsanoatqurilishbank kredit portfelining prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zsanoatqurilish bankining jami kreditlar hajmi 2020-yil mart oyida 31 669 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil dekabriga kelib bu ko‘rsatkich 65 498,4 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu davr mobaynida kredit hajmi deyarli ikki baravarga o‘sdi. Seasonal ARIMA modeli asosida amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko‘ra, kreditlar hajmi 2028-yil mart oyiga borib 89 600 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Bu esa 2024-yil dekabrdagi ko‘rsatkichga nisbatan taxminan 36,7% ga o‘sish demakdir. Model kreditlar hajmidagi mavsumiy tebranishlarni ham inobatga olgan bo‘lib, har chorakda ma'lum darajadagi o‘sish sur’atlarining o‘zgarib borishini aks ettiradi. Ayniqsa, 2025 va 2027-yillar oralig‘ida biroz sekinlashgan, ammo barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatiladi.



9-rasm. O‘zsanoatqurilishbankda muammoli kreditlarning prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

Yuqoridagi rasmda muammoli kreditlar hajmidagi dinamikani ko‘rsatadi. 2020-yil mart oyida ushbu ko‘rsatkich 331,6 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yil aprel oyida u eng yuqori nuqtaga chiqib, 2 982,0 mlrd so‘mga yetgan. Bu bank muammoli kreditlari hajmi 4 yil ichida 9 baravar ortganini anglatadi. Prognoz natijalariga ko‘ra, 2028-yil mart oyiga kelib bu ko‘rsatkich 3 300 mlrd so‘m atrofida bo‘lishi kutilmoqda, ya’ni muammoli kreditlar hajmi ortishda davom etadi, lekin o‘sish sur’ati nisbatan barqarorlashadi. Modelda 2025-yil boshlarida muammoli kreditlar sezilarli darajada yuqorilashi, ammo 2026-yildan boshlab ularning asta-sekin pasayishi va stabil holatga tushishi taxmin qilinmoqda. Bu esa bankning risklarni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlashi zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida:

tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash, barqaror to‘lov intizomi va ichki talabni rag‘batlantirish asosida portfel sifati va risklarni boshqarish maqsadida brutto kreditlar tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushini oshirish ilmiy asoslandi;

pul bozori instrumentlari ta'sirchanligini ta'minlash vositasida tijorat banklari kreditlari va foiz siyosatini samarali olib borish orqali bank kredit portfelini optimallashtirish ilmiy asoslandi;

transformatsiya jarayoni natijasida tijorat banklari kredit portfelini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish maqsadida banklar kredit portfelida davlat tashkilotlariga ajratilayotgan kreditlarni kamaytirish va xususiy sektor ulushini oshirish taklif etildi;

AT O‘zsanoatqurilishbank kredit portfelini oshirishning, hamda muammoli kreditlar holatining inflyasiya darajasi o‘zgarishi bilan bog‘liq jihatlarini ifodalovchi ekonometrik baholash modeli asosida 2028 yil mart oyiga qadar prognoz ssenariylari taklif etildi.

tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishda tashqi risklarni samarali boshqarishda maqsadida kredit foiz siyosatini yuritishda iqtisodiyotdagi inflyasiya darajasining oylik bir foizga oshishi bir oylik kechikish bilan O‘zsanoatqurilishbank ATBning kreditlari foizini -0,11 foizga pasaytirishini inobatga olish taklif etildi;

banklarda kredit portfeli rentabelligini oshirish, muammoli kreditlar bilan ishlay jarayonlarini yaxshilash maqsadida kreditlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2018 йил 31 июлдаги қарори.
4. Jumaev N.X. (2020). O‘zbekiston banklarida kredit qo‘yilmalarining tarkibi va risklari.
5. Toshboev M.M. (2019). Kredit portfeli risklarini boshqarish strategiyalari.
6. Madrahimov Sh.S. (2018). Kredit portfeli muammolarini aniqlash va tahlil qilish.
7. Xakimov X.Y. (2021). Kredit portfeli sifatini oshirishning nazariy asoslari.
8. Karimov N.M. (2022). Kredit portfeli diversifikatsiyasi usullari.
9. Ozili, P.K. (2019). Non-performing loans and financial development.
10. Ferreira, C. (2022). Determinants of non-performing loans.
11. Phung, Q.T. et al. (2022). Do non-performing loans impact bank efficiency?
12. Radivojević, N. et al. (2019). Econometric model of NPL determinants.
13. Serrano, A.S. (2021). Impact of NPLs on bank lending in Europe.
14. Rose, P.S., & Hudgins, S.C. (2013). Bank Management & Financial Services.
15. Greuning, H.V., & Bratanovic, S.B. (2009). Analyzing Banking Risk.
16. Hull, J.C. (2015). Risk Management and Financial Institutions.

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647627

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy risklarning mazmuni, asosiy turlari, ta’sir kanallari va ularni boshqarish mexanizmlari tizimli yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi moliyaviy risklarni tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi strategik va operatsion barqarorlikka ta’sir etuvchi omil sifatida tahlil qilish, ularni baholashning metodologik asoslarini umumlashtirish hamda amaliy boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.*
Kalit so‘zlar: *moliyaviy risk, tadbirkorlik, likvidlik riski, kredit riski, valyuta riski, foiz riski, pul oqimi, moliyaviy tanglik, ERM, ISO 31000, SME finance, cash-flow management*
Abstract*. This research paper provides a systematic exposition of the nature, primary classifications, impact channels, and management mechanisms of financial risks within entrepreneurial activities. The study aims to examine financial risks as a critical factor influencing the strategic and operational stability of business entities, synthesise the methodological foundations for their assessment, and develop robust practical management frameworks. The analysis encompasses the intricate relationship between risk exposure and business resilience, focusing on the mitigation of financial vulnerabilities in the contemporary economic landscape.*
Keywords: *financial risk, entrepreneurship, liquidity risk, credit risk, currency risk, interest rate risk, cash flow, financial distress, ERM, ISO 31000, SME finance, cash-flow management.*

KIRISH (INTRODUCTION).

Zamonaviy tadbirkorlik faoliyati yuqori darajadagi bozor noaniqligi, kredit shartlarining o‘zgaruvchanligi, foiz stavkalari tebranishi, valyuta kurslari beqarorligi va pul oqimlarining notekisligi sharoitida amalga oshiriladi. Shu sababli moliyaviy risklarni boshqarish tadbirkorlik subyektlari uchun faqat buxgalteriya yoki moliya bo‘limining texnik vazifasi emas, balki biznesning omon qolishi va o‘sishini belgilovchi strategik zaruratga aylangan. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining ISO 31000 standarti riskni maqsadlarga erishishga ta’sir qiluvchi noaniqlik sifatida ta’riflaydi va risklarni boshqarish barcha tashkiliy qarorlarga integratsiyalashgan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy risklar ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun dolzarbdir. Chunki bunday subyektlarda kapital bazasi torroq, tashqi moliyalashtirishga kirish murakkabroq, likvidlik zaxiralari cheklanganroq va moliyaviy zarbalarga moslashuv salohiyati pastroq bo‘ladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 2026-yilgi hisobotida ta’kidlanishicha, foiz stavkalari pasayayotgan bo‘lsa ham ular pandemiyagacha bo‘lgan davrga nisbatan yuqoriroq darajada qolmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy noaniqlik va kreditning sust o‘sishi SME likvidligi hamda investitsiya imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy riskni boshqarish masalasini tadbirkorlikning amaliy mexanizmlari bilan bog‘lash muhimdir. Tadbirkor uchun moliyaviy risk bu faqat bank kreditini qaytara olmaslik xatari emas; u pul oqimining uzilishi, debitorlikning ortib ketishi, qarz xizmatining

12. Sigala, M. (2018). New technologies in tourism: From multi-disciplinary to anti-disciplinary advances and trajectories. Tourism Management Perspectives, 25, 151–155. https://doi.org/10.1016/j.tmp.2017.12.003
13. Song, W., Ying, T., Lee, S., Zhou, D., Zhu, J., & Peng, X. (2024). Digital transformation in the hospitality industry: A bibliometric review from 2000 to 2023. International Journal of Hospitality Management. https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2024.103761
14. Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of sustainable enterprise performance. Strategic Management Journal, 28(13), 1319–1350. https://doi.org/10.1002/smj.640
15. Tenzer, H., Terjesen, S., & Harzing, A. W. (2017). Language in international business: A review and agenda for future research. Management International Review, 57, 815–854. https://doi.org/10.1007/s11575-017-0319-x

16. UNWTO. (2021). International tourism highlights, 2020 edition. World Tourism Organization. https://doi.org/10.18111/9789284422456
17. Warschauer, M. (2003). Technology and social inclusion: Rethinking the digital divide. MIT Press.
18. Wynn, M. G., & Lam, C. (2023). Digitalisation and IT strategy in the hospitality industry. Systems, 11(10), 501. https://doi.org/10.3390/systems11100501
19. Xiang, Z., Schwartz, Z., Gerdes, J. H., & Uysal, M. (2015). What can big data and text analytics tell us about hotel guest experience and satisfaction? International Journal of Hospitality Management, 44, 120–130. https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2014.10.013
20. Yang, Y., Xiang, K., Zeng, J., Au, N., Han, B., & Li, J. (2024). Digital transformation paradigm involved in high-star hotels and budget hotels: Sensory and innovation diffusion perspective. Tourism Management Perspectives, 52, 101274. https://doi.org/10.1016/j.tmp.2024.101274

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI KREDIT FOIZ STAVKALARINING SHAKLLANISHI VA DINAMIK TAHLILI

Komilov Sarvarjon Anvarjon o‘g‘li
Tashkent International University mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19629909

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonning tranzit iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari kredit foiz stavkalarining shakllanish mexanizmlari hamda ularning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan dinamik bog‘liqligi empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot 2017-yil yanvaridan 2023-yil dekabrigacha bo‘lgan davrni qamrab oluvchi oylik vaqt qatorlari ma’lumotlariga tayanadi. O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni aniqlash maqsadida avtoregressiv taqsimlangan laglar modeli (ARDL) va xatoliklarni tuzatish modeli (ECM) qo‘llanilgan. Natijalar O‘zbekistonda Markaziy bank asosiy stavkasi hamda inflyatsiya darajasining tijorat kreditlari foiz stavkalariga ta’siri statistik jihatdan ahamiyatli ekanini, biroq bu ta’sir to‘liq emasligini ko‘rsatadi. Xususan, inflyatsiyaning 1 foiz bandga oshishi uzoq muddatda kredit stavkalarining o‘rtacha 0,45 foiz bandga ko‘tarilishi bilan bog‘liq. Asosiy stavkaning ta’siri nisbatan kuchliroq bo‘lsa-da, foiz kanali uzatish mexanizmi hali to‘la shakllanmagan. Qisqa muddatli moslashuv ham sust kechadi: xatoliklarni tuzatish koeffitsiyenti bo‘yicha tizim bir oyda nomuvozanatning taxminan 21 foizini bartaraf etadi. Olingan natijalar bank sektorida davlat ishtirokining yuqoriligi, imtiyozli kreditlash amaliyotining kengligi, banklararo pul bozorining yetarli darajada chuqur emasligi hamda qisman dollarlashuv foiz kanali samaradorligini cheklayotganini anglatadi. Shu bois inflyatsion targetlash rejimining amaliy ta’sirchanligini oshirish uchun kredit bozorini bozor tamoyillariga yaqinlashtiruvchi tarkibiy islohotlar zarur.*

Kalit so‘zlar: *kredit foiz stavkasi, pul-kredit siyosati, foiz kanali, inflyatsion targetlash, ARDL modeli, ECM modeli, tijorat banklari, O‘zbekiston iqtisodiyoti*

Kirish

Bozor iqtisodiyotida narxlar barqarorligi makroiqtisodiy muvozanatning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda Markaziy banklar, odatda, pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmlariga tayanadi. Mazkur mexanizmlar ichida foiz stavkasi kanali alohida o‘rin tutadi, chunki aynan shu kanal orqali Markaziy bankning asosiy stavkasi moliya bozoriga, undan esa tijorat banklarining kredit va depozit stavkalariga uzatiladi. Natijada kapitalning narxi, investitsion faollik, iste’mol xatti-harakati va inflyatsion kutilmalar shakllanadi [6]. Inflyatsion targetlash rejimida asosiy stavka pul-kredit siyosatining markaziy operatsion vositasiga aylanadi. Biroq mazkur stavkaning bank kreditlari narxiga ta’siri har bir mamlakatda bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Moliya bozori chuqur, raqobatli va institutsional jihatdan rivojlangan iqtisodiyotlarda foiz stavkalarining uzatilishi nisbatan tez va to‘liq kechadi. Tranzit iqtisodiyotlarda esa bu jarayon ko‘pincha davlat aralashuvi, bozor segmentatsiyasi, kreditlashning imtiyozli shakllari va axborot nomukammalligi sababli cheklangan bo‘ladi. O‘zbekiston bu jihatdan alohida tadqiqot obyektidir. 2017-yildan boshlab valyuta bozorini erkinlashtirish, 2020-yildan esa inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish pul-kredit siyosati vositalarini yangicha

asosda shakllantirdi [7]. Shunga qaramay, amaliy kuzatuvlar va rasmiy statistik ma’lumotlar tijorat banklari kredit foiz stavkalari makroiqtisodiy signallarga har doim ham tez va mutanosib moslashmayotganini ko‘rsatadi. Bu esa foiz kanali samaradorligi, kredit resurslarining haqiqiy bahosi va pul-kredit siyosatining ta’sir doirasi haqida ilmiy savollarni kun tartibiga olib chiqadi. Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda tijorat banklari kredit foiz stavkalarining shakllanishiga inflyatsiya, Markaziy bank asosiy stavkasi, almashuv kursi va pul massasi kabi omillarning qisqa va uzoq muddatli ta’sirini baholashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda postliberalizatsiya davrining oylik ma’lumotlari asosida foiz kanali samaradorligi ARDL va ECM yondashuvlari yordamida tahlil qilinadi hamda natijalar bank tizimining tarkibiy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar

Foiz stavkasi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy nazariyaning klassik masalalaridan biri hisoblanadi. Irving Fisher tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko‘ra, nominal foiz stavkasi real foiz stavkasi va kutilayotgan inflyatsiya yig‘indisidan tarkib topadi [4]. Mazkur qarash nazariy jihatdan inflyatsiya oshganda nominal foiz stavkalari ham mutanosib ravishda ko‘tarilishi lozimligini bildiradi. Biroq real iqtisodiy muhitda bu bog‘liqlik doimo to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Axborot asimmetriyasi nazariyasi kredit bozorida qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o‘rtasidagi ma’lumot tafovuti foiz stavkalari mexanizmini cheklashini ko‘rsatadi. Stiglitz va Weissning fikricha, foiz stavkalarini haddan tashqari oshirish bank uchun foydani mutanosib ko‘paytirmaydi; aksincha, yuqori tavakkalchilikli qarz oluvchilar ulushi ortishi mumkin [10]. Shuning uchun banklar ba’zan kredit narxini cheksiz oshirish o‘rniga kredit hajmini cheklashni afzal ko‘radi. Pul-kredit siyosatining real sektorga ta’siri Bernanke va Gertler tomonidan kredit kanali nuqtai nazaridan keng yoritilgan [1]. Ularning tadqiqotlari bank tizimining holati, qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligi va kredit shartlari pul-kredit siyosati samaradorligining ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv tijorat banklari kredit stavkalari oddiy bozor narxi emas, balki ko‘plab institutsional va xatar omillari mahsuli ekanini anglatadi. Empirik tadqiqotlar ham foiz stavkalari uzatilishi mamlakatning moliyaviy arxitekturasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Cottarelli va Kourelis bank tizimidagi raqobat darajasi hamda moliya bozorining rivojlanganlik darajasi transmissiya tezligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [2]. Égert, Backé va Zumer tranzit iqtisodiyotlarda dastlab foiz kanali sust ishlashini, biroq bozor islohotlari chuqurlashgan sari uning samaradorligi ortishini qayd etadi [3]. Sander va Kleimeier esa kredit stavkalarining pasayish tomonga moslashuvi ko‘tarilishiga nisbatan sustroq kechishini ko‘rsatgan [9]. Gigineishvili Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari bo‘yicha olib borgan tahlilda davlat aralashuvi, dollarlashuv va institutsional cheklovlar foiz kanali samaradorligini pasaytirishini ta’kidlaydi [5]. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar foiz kanali samaradorligini izohlashda uchta omilni alohida ajratadi: makroiqtisodiy barqarorlik, bank sektorining raqobat muhiti va institutsional sifat. O‘zbekiston sharoitida aynan shu omillarning birgalikdagi ta’sirini baholash ushbu maqolaning asosiy ilmiy vazifasini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va ma’lumotlar bazasi

Tadqiqotda 2017-yil yanvaridan 2023-yil dekabrigacha bo‘lgan davrni qamrab oluvchi oylik statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Kuzatuvlar soni 84 tani tashkil etadi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligining ochiq bazalaridan olingan.

Modelga kiritilgan asosiy o‘zgaruvchilar, ularning iqtisodiy mazmuni va o‘lchov birliklari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqotda qo‘llanilgan o‘zgaruvchilar tavsifi

O‘zgaruvchi	**Belgisi**	**Tavsifi**	**O‘lchov birligi**	**Transformatsiya**	**Manba**
Kredit foiz stavkasi	LR	Milliy valyutada ajratilgan tijorat kreditlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan stavka	foiz	daraja	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Inflyatsiya	INF	Yillik iste’mol narxlari indeksi asosidagi inflyatsiya darajasi	foiz	daraja	Statistika agentligi
Asosiy stavka	PR	Markaziy bank asosiy stavkasi	foiz	daraja	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Almashuv kursi	ln_EXR	AQSh dollarining so‘mga nisbatan nominal kursi	so‘m	logarifm	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Keng pul massasi	ln_M2	Keng ma’nodagi pul massasi	mlrd so‘m	logarifm	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Vaqt qatorlarida soxta regressiya xavfini kamaytirish uchun qatorlarning stasionarligi Kengaytirilgan Dikki–Fuller (ADF) va Fillips–Perron (PP) testlari yordamida tekshirildi. Natijalar o‘zgaruvchilarning I(0) va I(1) integratsiya tartibiga mansub ekanini ko‘rsatdi. I(2) tartibidagi qatorlar aniqlanmagani sababli ARDL yondashuvidan foydalanish mumkin bo‘ldi [8]. ARDL usulining afzalligi shundaki, u turli integratsiya tartibiga ega qatorlar bilan ishlash, qisqa va uzoq muddatli bog‘liqlikni bir model doirasida baholash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotda modelning cheklovsiz xatoliklarni tuzatish shakli quyidagicha ifodalanadi:

[dLR(t) = C_0 + \sum B(i),dLR(t-i) + \sum G(j),dINF(t-j) + \sum D(k),dPR(t-k) + \sum T(m),d(ln_EXR)(t-m) + \sum U(n),d(ln_M2)(t-n) + L_1LR(t-1) + L_2INF(t-1) + L_3PR(t-1) + L_4ln_EXR(t-1) + L_5ln_M2(t-1) + \varepsilon_t]

Bu yerda laglar soni Akaike axborot mezoni asosida tanlangan. Uzoq muddatli bog‘liqlik tasdiqlangach, qisqa muddatli moslashuvni baholash maqsadida ECM modeli qo‘llanildi:

[dLR(t) = C_0 + \sum B(i),dLR(t-i) + \sum G(j),dINF(t-j) + \sum D(k),dPR(t-k) + \cdots + \Phi ECT(t-1) + \varepsilon_t]

Bu yerda (ECT(t-1)) avvalgi davr nomuvozanatining joriy davrda qay darajada bartaraf etilishini ko‘rsatadi. Uning manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lishi modelning uzoq muddatli muvozanatga qaytishini anglatadi.

Metodologik jihatdan yana bir muhim nuqta shundaki, mazkur model foiz stavkalarining asimmetrik moslashuvini to‘liq aniqlash uchun yetarli emas. Shu sabab maqolada pasayish tomonga

moslashuvning sustligi ehtiyotkor ilmiy talqin sifatida bayon qilinadi, uni qat’iy nolinear xulosa sifatida baholashdan tiyilinadi.

Foiz stavkasi transmissiyasi mexanizmi

Quyidagi rasm tadqiqotning nazariy asosini ifodalaydi va Markaziy bankdan real kredit bozoriga uzatilish zanjirini ko‘rsatadi.

1-rasm. O‘zbekistonda foiz stavkasi transmissiyasi mexanizmining soddalashtirilgan sxemasi



Izoh: O‘zbekiston sharoitida ushbu zanjirga davlat banklari ulushi, imtiyozli kreditlash, likvidlik profitsiti va qisman dollarlashuv kabi omillar qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatadi.

Empirik natijalar va tahlil

Bounds test natijasida F-statistika 6,84 ni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich 5 foizlik kritik yuqori chegaradan katta bo‘lgani uchun o‘zgaruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli barqaror bog‘liqlik mavjud, degan xulosa chiqarish mumkin. Demak, O‘zbekistonda kredit foiz stavkalari, inflyatsiya, asosiy stavka, almashuv kursi va pul massasi o‘rtasida uzoq muddatli muvozanat munosabati shakllangan.

Baholangan uzoq muddatli tenglama quyidagicha ifodalandi:

[LR = 4,25 + 0,45INF + 0,62PR + 0,18ln_EXR - 0,11ln_M2]

Empirik natijalarning umumlashtirilgan ko‘rinishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval. ARDL va ECM modelining asosiy natijalari


Ko‘rsatkich	Qiymat	Iqtisodiy talqin
Bounds test F-statistika	6,84	O‘zgaruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli bog‘liqlik mavjud
INF koeffitsiyenti	0,45	Inflyatsiya 1 foiz bandga oshsa, kredit stavkasi o‘rtacha 0,45 foiz bandga ko‘tariladi
PR koeffitsiyenti	0,62	Asosiy stavka o‘zgarishi kredit stavkalariga nisbatan kuchliroq uzatiladi
ln_EXR koeffitsiyenti	0,18	Almashuv kursining o‘sishi kredit narxiga yuqorilovchi bosim beradi
ln_M2 koeffitsiyenti	-0,11	Likvidlik kengayishi kredit resurslari narxini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi
ECT koeffitsiyenti	-0,21	Bir oyda nomuvozanatning taxminan 21 foizi bartaraf etiladi

Natijalarga koʻra, inflyatsiyaning 1 foiz bandga oshishi uzoq muddatda kredit stavkalarining oʻrtacha 0,45 foiz bandga koʻtarilishi bilan bogʻliq. Bu Oʻzbekiston sharoitida Fisher effekti toʻliq ishlamayotganini anglatadi. Boshqacha aytganda, kredit narxlari inflyatsion bosimga mutanosib va toʻliq javob bermaydi. Markaziy bank asosiy stavkasining koeffitsiyenti 0,62 ga teng boʻlib, uning ta'siri inflyatsiyaga nisbatan kuchliroq ekani kuzatiladi. Bu foiz kanali mutlaqo sust emasligini, balki muayyan darajada ishlayotganini koʻrsatadi. Biroq asosiy stavkaning kredit bozoriga ta'siri toʻliq emas. Mazkur tafovut banklarning davlat dasturlari, nisbatan arzon likvidlik manbalari yoki bozorga xos boʻlmagan resurslardan foydalanishi bilan izohlanishi mumkin. Almashuv kursi koeffitsiyentining musbat boʻlishi milliy valyuta qadrsizlanganda kredit stavkalariga yuqorilovchi bosim kuchayishini bildiradi. Qisman dollarlashgan iqtisodiyotda bu holat valyuta tavakkalchiligi va import narxlari orqali shakllanadigan inflyatsion bosim bilan chambarchas bogʻliq. Pul massasining manfiy koeffitsiyenti esa tizimda likvidlik kengaygan sari kredit resurslari narxiga pasaytiruvchi bosim yuzaga kelishini koʻrsatadi. Qisqa muddatli moslashuv xatoliklarni tuzatish koeffitsiyenti orqali baholandi. ECM natijalariga koʻra, ECT koeffitsiyenti –0,21 boʻlib, u manfiy va statistik jihatdan ahamiyatlidir. Bu modelning uzoq muddatli muvozanatga qaytish xususiyati mavjudligini bildiradi. Mazkur koʻrsatkichga koʻra, joriy davrda yuzaga kelgan nomuvozanatning taxminan 21 foizi bartaraf etiladi. Shunday ekan, makroiqtisodiy shokdan soʻng kredit stavkalari muvozanat yoʻliga darhol emas, balki bir necha oy davomida qaytadi. Lag tuzilmasi kredit stavkalarining pasayish tomonga moslashuvi koʻtarilishiga nisbatan sustroq boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi. Biroq bu holatni qat'iy asimmetrik moslashuv sifatida baholash uchun qoʻshimcha nolinear modellar talab etiladi. Shu sabab ushbu natija ehtiyotkor ilmiy talqin doirasida bayon qilinadi.

Oʻzbekiston sharoitida foiz stavkalariga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Empirik natijalarni toʻliq anglash uchun Oʻzbekiston bank tizimining tarkibiy xususiyatlarini alohida koʻrib chiqish zarur. Quyidagi rasm kredit foiz stavkalarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tizimli koʻrinishda ifodalaydi.

2-rasm. Kredit foiz stavkalarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimi



Izoh: mazkur omillar oʻzaro bogʻliq holda kredit resurslarining yakuniy narxini shakllantiradi.

O‘zbekiston bank tizimida davlat ishtiroki yuqori bo‘lgani sabab kredit narxlari ko‘pincha sof bozor mexanizmlaridan tashqari omillar ta’sirida ham belgilanadi. Yirik davlat banklari portfelida imtiyozli kreditlarning salmoqli ulushi mavjud bo‘lsa, agregat kredit stavkasi bozor signallarini to‘liq aks ettirmaydi. Natijada inflyatsiya yoki asosiy stavkadagi o‘zgarishlar barcha kredit segmentlariga bir xil kuch bilan uzatilmaydi. Tarkibiy likvidlik profitsiti ham muhim omildir. Davlat xarajatlari, yirik moliyaviy oqimlar va oltin eksportidan tushadigan mablag‘lar tizimda qo‘shimcha likvidlik yaratishi mumkin. Bunday sharoitda tijorat banklari Markaziy bank resurslariga kamroq tayanadi, bu esa asosiy stavkaning ularning xarajatlariga ta’sirini susaytiradi. Qisman dollarlashuv saqlanib qolgan sharoitda valyuta kursi kutilmalari ham kredit narxining shakllanishida faol ishtirok etadi. Shu bois kredit foiz stavkalarining o‘zgarishi faqat ichki inflyatsiya va asosiy stavka bilan emas, balki almashuv kursi tavakkalchiligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda foiz kanali mavjud bo‘lsa-da, uning ishlash sifati institutsional omillar bilan cheklanayotganini ko‘rsatadi. Birinchidan, bank sektorida davlat ishtirokining yuqoriligi kredit narxlarining bozor signallariga to‘liq moslashishini susaytiradi. Kredit portfelida imtiyozli va maqsadli kreditlarning ulushi salmoqli bo‘lsa, agregat stavkalar bozor muvozanatini to‘liq ifodalay olmaydi. Ikkinchidan, banklararo pul bozori chuqurligining yetarli emasligi Markaziy bank asosiy stavkasi bilan tijorat kreditlari narxi o‘rtasidagi uzatilish zanjirini sustlashtiradi. Banklar o‘z likvidligini bozor mexanizmlari asosida emas, balki boshqa manbalar hisobidan qondirayotgan bo‘lsa, asosiy stavkaning ta’siri tabiiy ravishda cheklanadi. Uchinchidan, qisman dollarlashuv va almashuv kursi tavakkalchiligi foiz kanalini murakkablashtiradi. Bunda kredit narxiga ichki monetar signal bilan bir qatorda valyuta bozoridagi noaniqlik ham ta’sir qiladi. Shu sabab foiz kanali samaradorligini oshirish faqat monetar choralar bilan emas, balki bank bozorining tarkibiy islohoti, raqobatni kuchaytirish va kreditlashni bozor tamoyillariga yaqinlashtirish orqali ta’minlanadi. Quyidagi jadval asosiy topilmalar va ulardan kelib chiqadigan amaliy xulosalarni umumlashtiradi.

Empirik baholash natijalarini institutsional jihatdan sharhlash O‘zbekiston bank tizimida foiz stavkasi transmissiyasini cheklayotgan tarkibiy omillarni alohida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Mazkur omillarning o‘zaro bog‘liqligi 3-rasmda keltirilgan.



3-jadval. Asosiy topilmalar va ularning amaliy talqini

Asosiy topilma	Iqtisodiy mazmuni	Amaliy xulosa
Foiz kanali mavjud, biroq to‘liqsiz	Inflyatsiya va asosiy stavka kredit bozoriga qisman uzatiladi	Bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish zarur
Moslashuv sur’ati sust	Shoklardan so‘ng stavkalar tez tiklanmaydi	Banklararo pul bozorini rivojlantirish muhim
Davlat ishtiroki yuqori	Agregat kredit stavkasi bozor signallarini to‘liq aks ettirmaydi	Davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish lozim
Likvidlik va kurs omili sezilarli	Kredit narxi monetar va valyuta omillari kesishmasida shakllanadi	Kompleks makroiqtisodiy va institutsional choralar talab etiladi

Xulosa

Olib borilgan empirik tahlil O‘zbekistonda tijorat banklari kredit foiz stavkalari makroiqtisodiy omillarga bog‘liqligi mavjud ekanini, biroq mazkur bog‘liqlik to‘liq va tezkor emasligini ko‘rsatadi. Inflyatsiya va Markaziy bank asosiy stavkasi kredit narxlariga statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi, ammo uzatish mexanizmi tarkibiy va institutsional cheklovlar sababli zaiflashadi. Uzoq muddatli koeffitsiyentlar foiz kanalining to‘liq shakllanmaganini, qisqa muddatli tuzatish sur’ati esa nisbatan sust ekanini anglatadi. Mazkur maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, u O‘zbekistonning postliberalizatsiya davri misolida foiz kanali samaradorligini empirik ravishda yoritadi va natijalarni bank tizimining o‘ziga xos tarkibiy xususiyatlari bilan bog‘laydi. Amaliy jihatdan esa quyidagi yo‘nalishlar muhim ko‘rinadi: bank sektorida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish, imtiyozli kreditlashni fiskal instrumentlar orqali qayta tashkil etish, banklararo pul bozorini chuqurlashtirish, kreditorlar huquqini himoya qiluvchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish va kredit bozorida raqobat muhitini yaxshilash. Ana shunday choralar inflyatsion targetlash rejimining foiz kanali orqali ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bernanke, B. S., & Gertler, M. (1995). Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 27–48.
2. Cottarelli, C., & Kourelis, A. (1994). Financial Structure, Bank Lending Rates, and the Transmission Mechanism of Monetary Policy. *IMF Staff Papers*, 41(4), 587–623.
3. Égert, B., Backé, P., & Zumer, T. (2007). Credit Growth in Central and Eastern Europe: New (Over)shooting Stars? *European Central Bank Working Paper Series*, No. 687.
4. Fisher, I. (1930). *The Theory of Interest*. New York: Macmillan.
5. Gigineishvili, N. (2011). Determinants of Interest Rate Pass-Through: Do Macroeconomic Conditions and Financial Market Structure Matter? *IMF Working Paper*, WP/11/176.
6. Mishkin, F. S. (1995). Symposium on the Monetary Transmission Mechanism. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 3–10.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). *Inflyatsion targetlash rejimiga o‘tishning konseptual asoslari*. Toshkent.
8. Pesaran, M. H., Shin, Y., & Smith, R. J. (2001). Bounds Testing Approaches to the Analysis of Level Relationships. *Journal of Applied Econometrics,* 16(3), 289–326.

BARQAROR SANOAT RIVOJLANISHIDA YASHIL TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: O‘ZBEKISTON KONTEKSTI VA NAZARIY-MODELLAR

Abbosbek Jurayev
Independent Researcher at Tashkent State University of Economics
https://doi.org/10.5281/zenodo.19630379

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot barqaror sanoat rivojlanishiga yashil texnologiyalarni integratsiya qilishni nazariy modellar va O‘zbekiston kontekstida o‘rganadi. Uch o‘lchovli model, sirkulyar iqtisodiyot va raqamli-yashil transformatsiya asosida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni baholaydi. O‘zbekiston sanoat sektori uchun BRM ga moslashish, emissiyalarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha yashil texnologiyalarni tizimli joriy etish strategiyalarini taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *yashil texnologiyalar, barqaror sanoat, integratsiya modellari, uch o‘lchovli model, sirkulyar iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston sanoati*

Kirish

Barqaror sanoat rivojlanishi global iqlim o‘zgarishi va resurs tanqisligi sharoitida strategik ustuvorlikka aylandi. Sanoat sektori global issiqxona gazlari emissiyasining 73% va energiya sarfining 30% dan ortig‘ini ta’minlaydi, bu esa yashil texnologiyalarni integratsiya qilishni majburiy qiladi. O‘zbekistonda energiya emissiyalardagi 80% ulushini egallaydi, chiqindilarni qayta ishlash esa 6% atrofida.

Ushbu maqola yashil texnologiyalarni barqaror sanoatga integratsiya qilishning nazariy modellarini tahlil qiladi va O‘zbekiston kontekstida amaliy strategiyalar ishlab chiqadi. Maqsad – uch o‘lchovli barqarorlik (iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy) doirasida integratsiya modellarini taklif etish va "Uzbekistan-2030" strategiyasiga moslashtirish.

Metodlar

Nazariy asoslar Elkington’ning uch o‘lchovli modeli (1997), WBCSD eko-samaradorlik tamoyillari (2000) va Porter-von der Linde ekologik-iqtisodiy raqobatbardoshlik nazariyasiga (1995) tayandi. Integratsiya modellariga sirkulyar iqtisodiyot (Ellen MacArthur Foundation), input-output-impact zanjiri va Industry 4.0 raqamli-yashil sintezi kiradi.

Tahlil usullari: SWOT, PESTLE, "yashil tayyorgarlik" darajalari (I-IV), ekonometrik korrelyatsiya modellarining konseptual asoslari. O‘zbekiston statistikasi (UNECE 2023, Lex.uz) Yevropa Ittifoqi (Eurostat 2024), OECD davlatlari bilan taqqoslandi. Yashil texnologiyalar tasnifi: energiya tejovchi, chiqindi kamaytiruvchi, qayta tiklanuvchi manbalar, raqamli monitoring.

Natijalar: Integratsiya modellari va O‘zbekiston holati

Yashil texnologiyalar integratsiyasi resurs sarfini **25-35%**, CO_2 emissiyasini **30-45%** ga kamaytiradi. O‘zbekistonda chiqindilar hajmi **14,8 mln t** (2024), qayta ishlash **6,1%**; sirkulyar iqtisodiyot bozori 2030-yilga **1323 mlrd dollar**ga o‘sishi kutilmoqda. Korxonalar **75%** I-II darajada (minimal ekologik talablar), III-IV darajalarga o‘tish potentsiali **40%** ni tashkil etadi.

Pilot loyihalar natijalari:

Quyosh panellari va IoT joriy etilgan **15 korxonada** energiya tejamkorligi **22%** ga oshgan

- Toshkent viloyati metallurgiya korxonalarida issiqlikni qayta tiklash tizimlari tannarxni **12-18%** ga pasaytirgan
- Navoiy sanoat zonasi pilot loyihasida chiqindilarni qayta ishlash ulushi **8% dan 25%** ga oshgan
- Andijon sement zavodida IoT monitoringi **28%** energiya tejagan

Model turi	**Asosiy komponentlar**	**O‘zbekiston qo‘llanilishi**	**Samaradorlik**
Uch o‘lchovli	Iqtisodiy+Ekologik+Ijtimoiy	ESG hisobotchilik yo‘q	**85%** potentsial
Sirkulyar iqtisodiyot	Chiqindi=Resurs	Qayta ishlash **6%**	**+300%** o‘sish
Raqamli-yashil	IoT+AI+Quyosh energiyasi	Pilot zonalar (Toshkent)	**18-25%** tejash

Texnologiya turi	**Joriy etilgan korxonalar**	**Energiya tejash (%)**	**Emissiya kamayishi (%)**	**Tannarx pasayishi (%)**
Quyosh panellari	12 korxona	22	35	15
IoT monitoring	15 korxona	28	18	12
Issiqlik tiklash	8 korxona	20	42	18
Chiqindi qayta ishlash	5 korxona	15	25	10

Muhokama: Nazariy modellar va amaliy strategiyalar

Uch o‘lchovli model integratsiyada O‘zbekiston uchun ESG standartlarini joriy etishni talab qiladi. Xalqaro tajribada Unilever 2010-2020 yillarda yashil integratsiya orqali **20%** rentabellik oshirgan. O‘zbekistonda "yashil" kreditlar (**500 mln dollar**) faqat **15%** korxonalarga yetib kelmoqda. Shu bilan birga, bandlik darajasini **10-15%** ga oshirish potentsiali mavjud, chunki qayta ishlash sanoati yangi ish o‘rinlari yaratadi.

Sirkulyar iqtisodiyot modeli chiqindilarni ikkilamchi xomashyoga aylantirish orqali **2,4 baravar** bozor o‘sishini ta’minlaydi. Germaniyada qayta ishlash eksport sanoati alohida segmentga aylandi; O‘zbekistonda tekstil va metall chiqindilari uchun sanoat zonalari (Navoiy, Jizzax) tashkil etilishi mumkin. Jizzax kimyo korxonasida plastmassa chiqindilaridan ikkilamchi xomashyo olish pilot loyihasi **30%** xomashyo xarajatini tejagan.

Raqamli-yashil transformatsiya Siemens Energy’da **35%** emissiya kamaytirishga erishdi. O‘zbekistonda Toshkent Free Industrial Zone’da Industry 4.0 pilot loyihalari **18%** samaradorlik oshirgan. To‘siqlar: malaka yetishmasligi (**70%** muhandislar), infratuzilma (**IoT qamrovi 12%**).

O‘zbekiston strategiyalari: PQ-4477 (2019-2030) energiya samaradorligini **20%** ga oshirishni ko‘zlaydi. PQ-5031 dasturi yashil texnologiyalar uchun **1 mlrd dollar** investitsiya jalb qilishni nazarda tutadi. Tavsiyalar: Yashil Texnologiyalar Markazi, ESG majburiy hisobot, KBS (leasing) modellar, ADB/EBRD hamkorligi, milliy "Yashil Sanoat Platformasi" platformasini yaratish.

Takliflar

Yashil texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar beriladi:

1. **Yashil Texnologiyalar Markazi** tashkil etish – texnologiya transferi, malaka oshirish va pilot loyihalar uchun
2. **ESG majburiy hisobotchilik** joriy etish – yillik barqarorlik hisobotlarini barcha sanoat korxonalaridan talab qilish
3. **"Yashil" moliyalashtirish** kengaytirish – obligatsiyalar, KBS (leasing) va xalqaro grantlar orqali
4. **Sanoat zonalari** modernizatsiyasi – Navoiy, Jizzax, Toshkentda sirkulyar iqtisodiyot klasterlari
5. **Raqamli platforma** yaratish – "Yashil Sanoat Platformasi" real-time monitoring va benchmark uchun
6. **Xalqaro hamkorlik** – ADB, EBRD, Germaniya GIZ bilan texnologiya transferi shartnomalari

Xulosa

Yashil texnologiyalarni barqaror sanoatga integratsiya qilish O‘zbekiston uchun iqtisodiy o‘sish va global standartlarga moslashishning kalitidir. Uch o‘lchovli model, sirkulyar iqtisodiyot va raqamli transformatsiya sintezi emissiyalarni 30-45% ga kamaytirish, 15-25% tejamkorlik va 20% qo‘shimcha ish o‘rinlarini ta’minlaydi. "Uzbekistan-2030" va BRM-9/13 doirasida sanoat zonalari, "yashil" moliya va xalqaro hamkorlik orqali integratsiya mexanizmlarini tezlashtirish strategik zaruriyatdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Elkington, J. (1997) *Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business*. Oxford: Capstone.
2. Ellen MacArthur Foundation (2021) *Completing the Picture: How the Circular Economy Tackles Climate Change*. Cowes: Ellen MacArthur Foundation.
3. OECD (2009) *Eco-innovation in Industry: Enabling Green Growth*. Paris: OECD Publishing.
4. Porter, M.E. and van der Linde, C. (1995) 'Toward a new conception of the environment–competitiveness relationship', *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), pp. 97–118.
5. President of the Republic of Uzbekistan (2023) *Decree No. PF-158 'On the Strategy 'Uzbekistan – 2030"*. Tashkent: LexUZ.
6. UNECE (2023) *Environmental Performance Review: Uzbekistan, 4th review*. Geneva: United Nations Economic Commission for Europe.
7. World Bank (2024) *Uzbekistan Green Growth Strategy: Industrial Transformation Pathways*. Washington, DC: World Bank.

EFFECTIVE USE OF MARKETING STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE TRANSPORT SYSTEM IN THE REGION (ON THE EXAMPLE OF KHOREZM REGION)

Egamberdiyev Oybek Fozilovich
PhD student, Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni, Uzbekistan
https://doi.org/10.5281/zenodo.19630479

Abstract. *This article examines the effective application of marketing strategy to the development of the transport system in Khorezm region, Uzbekistan. The study analyses statistical data for 2020–2024, presents a SWOT analysis of the regional transport sector, and proposes a 7P-based marketing framework for attracting investment and improving service quality. The findings confirm that systematic use of marketing tools can significantly contribute to the sustainable development of regional transport infrastructure.*

Keywords: *marketing strategy, transport system, Khorezm region, regional development, logistics, SWOT, PPP.*

1. INTRODUCTION

The transport system is a key driver of regional economic development, enabling trade, tourism, and industrial activity. Khorezm region — historically significant as a Silk Road crossroads — possesses strategic geographic advantages that remain underexploited due to structural infrastructure deficits [4,5]. Marketing strategy, well-established as a public sector tool in Georgia, Kazakhstan, and EU cohesion regions, offers a systematic framework for addressing demand-side transport challenges that purely technical investment cannot resolve [1,2]. This article explores how such a strategy can be applied to accelerate transport development in Khorezm, presenting a quantitative baseline, SWOT analysis, and a tailored 7P action framework.

2. RESEARCH METHODOLOGY

The study combines qualitative and quantitative methods. Primary data were gathered through interviews with regional transport operators and local government officials. Secondary data were sourced from the State Statistics Committee and the Ministry of Transport for 2020–2024 [4,5]. The theoretical framework integrates the 7P marketing mix model — adapted for public transport — with SWOT analysis and comparative regional benchmarking [1,2,3].

3. ANALYSIS AND RESULTS

3.1. Transport Infrastructure in Khorezm Region

Khorezm covers ~6,300 km² with over 1.8 million inhabitants. Its network includes roads, the Urgench–Tashkent railway, and Urgench International Airport. Despite recent investments, paved road density per 1,000 inhabitants remains below the national average [4], and freight logistics requires substantial upgrading to serve agro-industrial and tourism sectors.

Table 1. Key Transport Indicators of Khorezm Region (2020–2024)


Indicator	2020	2021	2022	2023	2024
Total road length (km)	3,102	3,190	3,245	3,298	3,410

Paved roads (%)	57.4	59.1	61.2	63.7	66.4
Passenger traffic (mln person/km)	310	355	412	438	467
Freight turnover (mln ton/km)	210	248	284	301	318
Transport enterprises	162	174	187	194	209

Source: State Statistics Committee of Uzbekistan [4]

Table 1 shows consistent growth across all indicators. Passenger traffic rose by 50.6% and freight by 51.4% over the period — growth that accelerated post-2021 due to national road rehabilitation programmes [5]. Figure 1 illustrates this comparative dynamics.

Figure 1. Dynamics of Passenger Traffic and Freight Turnover, Khorezm Region (2020–2024)



Source: compiled by the author based on State Statistics Committee data [4]

3.2. SWOT Analysis of the Transport Sector

A SWOT analysis (Table 2) was conducted on the basis of field data and expert consultations to identify strategic priorities for marketing-driven development [1,6].

Table 2. SWOT Analysis of Khorezm Region Transport Sector

S — Strengths Silk Road location; growing tourism; airport expansion; government reform support; rich agro-industrial base	**W — Weaknesses** Weak road network; low freight density; limited digital services; shortage of logistics specialists
O — Opportunities New Silk Road corridor; PPP investment; development bank grants; e-commerce logistics growth	**T — Threats** Competition from Tashkent/Samarkand hubs; climate risks; slow digitalisation; regulatory uncertainty

Source: compiled by the author [6]

The analysis confirms that while geographic and heritage advantages are significant, they remain underexploited. The most promising strategic direction is positioning Khorezm as a New Silk Road logistics node, which requires a coordinated marketing strategy [5,7].

3.3. Marketing Strategy Framework (7P Model)

Based on the 7P model [1,2], SWOT findings, and international benchmarks, the following instruments are proposed:

1. Market segmentation — targeting tourists, agro-producers, industrial enterprises, and commuters with differentiated service packages [1].
2. Positioning and branding — developing a Silk Road–centred regional transport brand to create competitive differentiation in Central Asian markets [2,7].
3. Public-private partnership (PPP) — investor-oriented marketing through roadshows, feasibility studies, and digital outreach to attract private capital [5,8].
4. Tariff and incentive policy — demand-stimulating pricing for freight operators and tourism-linked transport, within national regulatory frameworks [3].
5. Digital marketing and smart mobility — mobile ticketing, route planning, and real-time tracking to improve service quality [2,8].

4. CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The study demonstrates that marketing strategy integration into regional transport management yields measurable improvements in service quality, investment attraction, and competitiveness [1,2]. For Khorezm, the following priority actions are recommended: (1) establish a regional transport marketing unit for market research and investor relations; (2) launch a Silk Road–based transport brand at national and international platforms [7]; (3) prioritise digital transport infrastructure within the regional digitalisation programme; (4) design PPP frameworks supported by investor marketing; (5) embed monitoring and evaluation into all marketing initiatives.

These recommendations align with Uzbekistan's New Uzbekistan Development Strategy 2022–2026 [5] and offer a scalable model for underfunded regions across Central Asia.

REFERENCES

1. Kotler P., Keller K. L. Marketing Management (15th ed.). — Pearson Education, 2016. — 816 p.
2. Lovelock C., Wirtz J. Services Marketing: People, Technology, Strategy (8th ed.). — World Scientific, 2016. — 502 p.
3. Zeithaml V. A., Bitner M. J., Gremler D. D. Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm (7th ed.). — McGraw-Hill, 2018. — 592 p.
4. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Regional Statistical Yearbook. — Tashkent, 2024.
5. Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan. Strategy for the Development of the Transport System of Uzbekistan 2022–2026. — Tashkent, 2023.
6. Mirziyoyev Sh. M. New Uzbekistan Development Strategy 2022–2026. — Tashkent: National Information Agency, 2022.
7. Mukhitdinov A. Regional Logistics and Marketing in Central Asia. — Tashkent: TDIU Press, 2023. — 218 p.
8. European Commission. EU Transport Marketing and Regional Development Guidelines. — Brussels: EC Transport Directorate, 2021.

DIRECTIONS FOR THE EFFECTIVE USE OF DEBT FUNDS IN THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ELECTRIC POWER NETWORK ENTERPRISES

O.U. Mavlonov
PhD, independent researcher Regional Electric Networks JSC
ORCID:0009-0009-7463-3795
https://doi.org/10.5281/zenodo.19630549

Abstract. *This article examines the effective use of debt in the financial activities of electric power grid enterprises using the example of JSC "Regional Electric Grids". The study evaluates the impact of debt burden, leverage, liquidity and profitability indicators on the financial stability of the enterprise using econometric methods. In particular, the relationship between EBIT, ROE and ROA indicators and debt was analyzed using regression and VAR models. The results showed that an increase in the debt share negatively affects profitability indicators, and maintaining debt at an optimal level is an important factor in ensuring financial stability. At the end of the study, conclusions were drawn on improving debt management in electric power grid enterprises, effective tariff policy, and the gradual introduction of market mechanisms.*
Keywords: *electric grid company, financial stability, debt, leverage, profitability, ROE, ROA*

Introduction. The financial stability of each enterprise is of great importance for its long-term and sustainable development. Although the financial and economic activities of state-owned enterprises differ from those of private sector enterprises, their main goal is to achieve sustainable growth. Ensuring the financial stability of state-owned enterprises directly affects the economic situation of the country. The financial crises of such state-owned enterprises can require significant budgetary funds from the state budget. It can also negatively affect the standard of living of the population and the activities of production enterprises through service and supply disruptions. Unsatisfied financial stability of power grid enterprises can lead to an increase in electricity prices and can cause non-monetary factors to increase prices in the economy. For this reason, the development of directions for ensuring the financial stability of power grid enterprises is becoming increasingly important in achieving the set goals of the country's economy.

Literature review. The OECD (2015) report highlights that the capital structure of state-owned enterprises is often formed in a manner that is constrained by market mechanisms. As a result, high debt burdens and low profitability negatively affect financial stability. The OECD justifies the need to form an optimal ratio between capital and debt in state-owned enterprises. According to the "soft budget constraint" theory developed by János Kornai (1986), state-owned enterprises often operate without the risk of bankruptcy, as they are supported by the government. This leads to excessive debt accumulation and a decrease in financial discipline.

The International Monetary Fund (2020) studies assess the debt of state-owned enterprises as a source of hidden fiscal risks. The report notes that debt under state guarantees can threaten the sustainability of the state budget.

According to the World Bank (2014) report, the efficiency of capital use in state-owned enterprises largely depends on the quality of corporate governance. SOEs with a high level of transparency and accountability have a high return on capital.

The classical capital structure theory of Modigliani Franco and Merton Miller (1958) discusses the impact of the ratio of debt to equity on the value of the enterprise. Although this theory is based on perfect market conditions, it also serves as an important theoretical framework for SOEs. According to the Asian Development Bank (2019) study, if leverage (debt level) is high in state-owned enterprises, financial stability decreases, but when properly managed, debt can stimulate investment growth.

The International Energy Agency (2021) report notes that debt instruments are widely used in state-owned energy enterprises due to the large capital requirements, but this increases financial risks.

Methodology. Econometric analysis was carried out on a number of financial indicators of the financial and economic activities of JSC "Regional Electric Networks". These analyses were carried out based on econometric models and hypotheses studied by scientists. The main focus was on studying the dependence of other relative indicators on the profitability indicators of the joint-stock company. The forecast value of the financial indicator of the joint-stock company was calculated. The VAR model was used to calculate this forecast indicator. Also, the MAPE (Mean Absolute Percentage Error) test was conducted on the reliability of the forecast indicators.

Econometric analysis was carried out on the basis of the relative indicators obtained from the financial and balance sheet reports of the JSC "Regional Electric Networks". In it, the leverage indicator as the main influencing factors and the profitability of capital and assets as a result of the financial activities of the enterprise were taken as the dependent variable for the analysis.

As a general overview of the model used, we can highlight the following:

$Y= \alpha_0 + \beta_t X_1 + \beta_t X_2 + \beta_t X_3 + \mu$

$Y= \alpha_0 + \beta_t X_t + \beta_t X_{t-1} + \beta_t X_{t-3} + \ldots\ldots. \beta_t X_{t-n+} \mu$

$Y= \alpha_0 + \beta_1 * X_1 + \beta_2 X_2 + \mu$

each loan is an expense that reduces future profits for enterprises. For this reason, a linear regression analysis was carried out to determine the impact of the previous year's value of the loan on the profitability indicators of the current period. The calculations according to this regression model are carried out based on the formula in the books and can be calculated as the maximum limit value for the amount of profit to be obtained from model.

Analysis and results. According to the regression analysis, a 1% increase in the leverage ratio on short-term liabilities causes an 8% decrease in EBIT. A 1% increase in the leverage ratio on total liabilities causes an increase in EBIT by approximately 11%. In this case, the factor that causes a change in the real value of the amount of debt is inflation.

Table 1. Results of regression econometric analysis

LnEBIT	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
LnLev1	-8.343	3.014	-2.77	.012	-14.65	-2.035	**
lnLev2	10.904	4.382	2.49	.022	1.733	20.075	**
Constant	-1.562	3.949	-0.40	.697	-9.827	6.704	
Mean dependent var		2.698	SD dependent var			2.353	

R-squared	0.341	Number of obs	22
F-test	4.920	Prob > F	0.019
Akaike crit. (AIC)	95.883	Bayesian crit. (BIC)	99.157

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Also, through effective management of debt, enterprises can ensure their financial stability. This is also expressed in the presence of a limit on the amount of debt and clear goals.

Based on the results of the above regression model, it is aimed to make forecasts on the financial indicators of the "Regional Electric Networks Enterprise" JSC. Before that, we conducted several tests on the statistical significance of this regression model.

On the normal distribution of the residual part of the model, the Skewness & Kurtosis test and the Shapiro Wilk test were conducted, and we can see that the Prob>chi2 value is 0.16 and 0.14, and the residual is normally distributed. The Breusch-Pagan test was conducted for heteroscedasticity, and the result was determined to be Prob>chi2 value of 0.53.

In conclusion, there is no heteroscedasticity. Also, a test of the suitability of the variables for the model was performed using the Ramsey Reset test, and the result was determined to be Prob>F value of 0.59. As a conclusion, there are no omitted variables.

Also, in the next stage, the forecast value of the financial indicator of the joint-stock company was calculated. The VAR model was used to calculate this forecast indicator. The results of the VAR model for time series are presented in the following table.

Table 2. Forecast indicators of the Regional Electric Grids Enterprise JSC (billion sums)

Date	Pesimistik qarash	Optimistik qarash
2024q4	5,2	635,05
2025q1	8,55	878,84
2025q2	10,75	989,32
2025q3	11,8	1099,1
2025q4	12,28	1146,57
2026q1	12,48	1172
2026q2	12,56	1283,91
2026q3	12,6	1389,11

According to the forecast indicators, the EBIT amount of the joint-stock company for the next quarters shows growth trends. Forecasts are also presented for 2 options. Also, the MAPE (Mean Absolute Percentage Error) test was conducted on the reliability of the forecast indicators obtained and it was determined that the overall result is reliable with an error of 3 percent.

We can see from the table above that the relative indicators of leverage and liquidity are positively related to the reliability indicators of the joint-stock company.

Table-3. Results of linear regression analysis

ROE	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lev1	-.027	.009	-2.89	.009	-.046	-.008	***
Constant	103.016	1.233	83.56	0	100.445	105.588	***
Mean dependent var		100.062	SD dependent var			3.764	
R-squared		0.295	Number of obs			22	
F-test		8.369	Prob > F			0.009	

Akaike crit. (AIC)		116.046	Bayesian crit. (BIC)			118.228	
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							
ROE	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lev2	-.098	.044	-2.26	.035	-.189	-.007	**
Constant	104.294	2.014	51.78	0	100.093	108.495	***
Mean dependent var		100.062	SD dependent var			3.764	
R-squared		0.203	Number of obs			22	
F-test		5.092	Prob > F			0.035	
Akaike crit. (AIC)		118.746	Bayesian crit. (BIC)			120.928	
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							

We can obtain the following data on the analysis of the impact of leverage indicators on return on capital. In this case, we can see that a 1 percent change in debt funds relative to the company's own funds leads to a decrease in the profitability indicator by -0.027 percent.

We can also see from the regression model that a 1 percent change in debt funds relative to total assets causes a decrease in the profitability of the enterprise by 0.098 percent. Also, according to the study, it was found that there is no regression relationship between the liquidity of the joint-stock company and the profitability indicator. Also, the regression relationships with the profitability indicator of the assets taken for the study are analyzed.

Table 4. Linear regression analysis results

ROA	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lev1	-.01	.004	-2.70	.014	-.018	-.002	**
Constant	101.437	.508	199.6	0	100.377	102.497	***
Mean dependent var		100.300	SD dependent var			1.522	
R-squared		0.267	Number of obs			22	
F-test		7.297	Prob > F			0.014	
Akaike crit. (AIC)		77.037	Bayesian crit. (BIC)			79.219	
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							
ROA	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lev2	-.038	.018	-2.15	.044	-.075	-.001	**
Constant	101.948	.822	124.1	0	100.234	103.662	***
Mean dependent var		100.300	SD dependent var			1.522	
R-squared		0.188	Number of obs			22	
F-test		4.640	Prob > F			0.044	
Akaike crit. (AIC)		79.289	Bayesian crit. (BIC)			81.472	
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							
ROA	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Liq	-.019	.009	-2.06	.053	-.038	0	*

Constant	101.961	.862	118.2	0	100.162	103.76	***

Mean dependent var	100.300	SD dependent var	1.522
R-squared	0.175	Number of obs	22
F-test	4.229	Prob > F	0.053
Akaike crit. (AIC)	79.659	Bayesian crit. (BIC)	81.841

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

The results of the regression analysis of these leverage indicators on the return on assets indicators show that a change in leverage indicators by 1 unit can lead to a decrease in the profitability indicator by -0.01 percent and a decrease in the profitability indicator by -0.038 percent. A change in the liquidity indicator by the same amount causes a decrease in the profitability indicator by -0.019 percent.

Based on the results of the research, we can conclude that short-term debt serves to form the working capital of the enterprise and it is emphasized that it is possible to increase profits through effective management of short-term debt.

That is, it can be more effective than long-term debt, but long-term debt is attracted to finance newly established enterprises and their strategic goals. Also

According to the regression result, the formed regression model looks like this:

$Y = 97.246 + 0.36\ lev2 - 0.006Lev2^2 + e$

Without the influence of the change in the leverage ratio, the profitability index due to the change in other factors is 97.246 percent. Also, by calculating the derivative value of this model, the share of debt funds in total assets is found.

That is, the leverage value is equal to the calculated value of 0.36-0.012lev2=0. Also, according to the result, it is shown that the share of total debt in total assets should not exceed 30 percent. In the analysis of the statistical significance of the model according to this indicator, we can see that the model residuals are correctly distributed according to the Shapiro-Wilk W test, the Shapiro-Wilk W test Prob>z is equal to 0.147, and we can conclude that the model residuals are correctly distributed and that the model is statistically significant.

Also, according to the model results, we find the forecast values of the profitability indicator using the VAR model (Vector Autoregressive model). This model allows us to predict the values of future variables in time series. That is, it forecasts taking into account the time factor and the number of lags. The forecast indicators of assets and profitability indicators are presented according to the results of the econometric model, the value of which is transferred.

Table 5. Forecast values (%) of ROE and ROA indicators of the Regional Electricity Networks Enterprise Aj according to the VAR model

T	ROA (p)	ROA (o)	ROE (p)	ROE(o)
2025q1	99,8	102,92	98,72	106,3
2025q2	99,98	103,15	99,13	106,9
2025q3	100,09	103,31	99,44	107,4
2025q4	100,14	103,35	99,6	107,6
2026q1	100,17	103,37	99,7	107,65
2026q2	100,19	103,38	99,7	107,7
2026q3	100,19	103,39	99,77	107,7

2026q4	100,19	103,39	99,79	107,7

Tests were conducted on these forecast indicators. The reliability of the test results was also positive with an error of 5%. It was also predicted that the profitability indicators of the enterprise for the next quarters would show positive results.

Conclusion. As a result of our research, we were able to develop the following scientific conclusions and proposals: we believe that it is necessary to carry out these influencing factors in connection with the financial and economic activities of the enterprise by dividing them into financial and non-financial factors. We can conclude that the financial relative indicators of the state-owned regional power grid enterprise are not stable.

According to current calculations, the Altman model predicts that the enterprise is in financial difficulty and may encounter financial problems. Also, the analysis of debt and equity relations in the financial activities of the joint-stock company shows an increase in the share of debt. At the same time, maintaining debts at effective and marginal levels, in turn, serves the stability of the enterprise.

The determination of electricity prices by the higher authorities of the Electric Network Enterprise JSC and the existence of prices classified by price, in turn, negatively affects the low level of income and profitability indicators presented as relative indicators.

REFERENCES

1. OECD (2015). OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2015/11/oecd-guidelines-on-corporate-governance-of-state-owned-enterprises-2015-edition_g1g5a749/9789264244160-en.pdf
2. KORNAI*, J. (1986), The Soft Budget Constraint. Kyklos, 39: 3-30. https://doi.org/10.1111/j.1467-6435.1986.tb01252.x
3. Asian Development Bank (2019). State-Owned Enterprises in Asia: National Practices and Reform Trends. https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprises-asia
4. Modigliani, F., & Miller, M. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. https://www.jstor.org/stable/1809766
5. International Energy Agency (2021). Financing Clean Energy Transitions in Emerging and Developing Economies. https://www.iea.org/reports/financing-clean-energy-transitions-in-emerging-and-developing-economies
6. Inter-American Development Bank (2021). State-Owned Enterprises and Fiscal Risk. https://publications.iadb.org/publications/english/document/State-Owned-Enterprises-and-Fiscal-Risks.pdf
7. Megginson, W. L., & Netter, J. M. (2001). From State to Market: A Survey of Empirical Studies on Privatization. https://www.jstor.org/stable/2696368
8. Tirole, J. (2017). Economics for the Common Good. https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691175164/economics-for-the-common-good

IQTISODIYOT AGRAR SEKTORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA UNING DARAJASIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Anarkulov Dilshod Abdumalikovich
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647482

Annotatsiya. *Mazkur maqolada iqtisodiyotning agrar sektorini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, agrar sektorda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va investitsion faollik masalalari yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-iqlimiy va institutsional omillar tizimli ravishda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari agrar sektor samaradorligini oshirish va uning iqtisodiy o'sishdagi rolini kuchaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *agrar sektor, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiya, innovatsion texnologiyalar, resurslardan foydalanish, iqtisodiy o'sish, davlat qo'llab-quvvatlashi, institutsional omillar.*

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the specific features of the development of the agrarian sector of the economy, its role in the national economy and the main factors influencing the level of development. In particular, the issues of increasing production efficiency, rational use of resources, introduction of innovative technologies, state support mechanisms and investment activity in the agrarian sector are covered. Also, economic, social, natural-climatic and institutional factors affecting the sustainable development of the agricultural sector are systematically studied. The results of the study serve to formulate scientific conclusions and practical proposals for increasing the efficiency of the agrarian sector and strengthening its role in economic growth.*

Keywords: *agrarian sector, economic development, agriculture, production efficiency, investment, innovative technologies, resource use, economic growth, state support, institutional factors.*

Аннотация. *В данной статье представлен научно-теоретический анализ специфики развития аграрного сектора экономики, его роли в народном хозяйстве и основных факторов, влияющих на уровень развития. В частности, рассмотрены вопросы повышения эффективности производства, рационального использования ресурсов, внедрения инновационных технологий, механизмов государственной поддержки и инвестиционной активности в аграрном секторе. Также систематически изучены экономические, социальные, природно-климатические и институциональные факторы, влияющие на устойчивое развитие аграрного сектора. Результаты исследования служат для формулирования научных выводов и практических предложений по повышению эффективности аграрного сектора и укреплению его роли в экономическом росте.*

Ключевые слова: *аграрный сектор, экономическое развитие, сельское хозяйство, эффективность производства, инвестиции, инновационные технологии, ресурсопользование, экономический рост, государственная поддержка, институциональные факторы*

Kirish. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida agrar sektor milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur soha nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, balki sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan uzluksiz ta’minlash, bandlikni oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga tayanadigan mamlakatlarda agrar sektor iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi.

Agrar sektorning rivojlanish darajasi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati hamda aholi farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu tarmoqning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o‘rganish, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Agrar sohaning o‘ziga xosligi shundaki, uning faoliyati tabiiy-iqlim sharoitlari, yer va suv resurslari, mehnat salohiyati, texnologik ta’minot darajasi, investitsion muhit va davlat tomonidan olib borilayotgan agrar siyosat bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi yillarda agrar sektorda bozor mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, tarmoq rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va tashqi omillarni kompleks tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi iqtisodiyot agrar sektorining rivojlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari agrar sektor samaradorligini oshirish va uni barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda iqtisodiyot agrar sektorining rivojlanish xususiyatlari va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali agrar sektor rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy hamda institutsional omillar o‘rganildi. Taqqoslash usuli yordamida agrar tarmoqning rivojlanish darajasi va samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi. Shuningdek, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish va iqtisodiy tahlil qilish usullari asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, investitsiya faolligi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy yondashuv asosida mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha xulosalar shakllantirildi.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda agrar sektor rivojlanishi masalalari keng yoritilgan. Xususan, Theodore W. Schultz o‘zining “Transforming Traditional Agriculture” (1964) asarida an’anaviy qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, inson kapitali va texnologik yangilanishlarning agrar samaradorlikka ta’sirini ilmiy asoslab bergan. Mazkur asarda agrar sektor rivojlanishining asosiy omillari sifatida investitsiyalar, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish hamda mehnat unumdorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Riccardo Bertoglio, Chiara Corbo, Filippo M. Renga va Matteo Matteucci tomonidan tayyorlangan “The Digital Agricultural Revolution: a Bibliometric Analysis Literature Review” (2021) tadqiqotida raqamli

texnologiyalar, sun’iy intellekt, IoT va masofaviy monitoring tizimlarining qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishdagi roli bibliometrik tahlil asosida yoritilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham agrar sektor rivojlanishining turli jihatlari chuqur o‘rganilgan. Jumladan, Saidasror G‘ulomov, Xojiakbar Axmedov, Muxiddin Yusupov va hammualliflar tomonidan yozilgan “Development of Agricultural Economy of Uzbekistan” nomli maqolada O‘zbekiston agrar iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, fermer xo‘jaliklari faoliyati va qishloq infratuzilmasining ahamiyati tahlil qilingan. Bundan tashqari, Shodiyor Sultonov va Umidjon Rasulevning “Agricultural Sector in Uzbekistan: Statistical Analysis” (2023) tadqiqotida agrar sektorning YAIMdagi ulushi, ishlab chiqarish hajmi va statistik ko‘rsatkichlari asosida tahlil olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar agrar sektor rivojlanishiga investitsiya, innovatsiya, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish hamda davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar. Agrar sektor mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning rivojlanish darajasi umumiy iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston misolida olib qaralganda, so‘nggi yillarda agrar tarmoqda barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Xususan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik tarmog‘ining YAIMdagi ulushi 18,33 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yildagi 20,17 foizdan pasaygan bo‘lsa-da, sektor iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini saqlab qolgan. Mazkur pasayish asosan xizmatlar va sanoat tarmoqlarining tezroq sur’atlarda o‘sishi bilan izohlanadi.

2025-yil yakunlari bo‘yicha agrar sektorning umumiy mahsulot hajmi 538,9 trillion so‘mga yetgani qayd etilgan. Ushbu hajmning asosiy qismi, ya’ni 518,8 trillion so‘mi dehqonchilik, chorvachilik va ular bilan bog‘liq xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu esa agrar sektor tarkibida aynan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2025-yilda sektorning real o‘sish sur’ati 4,4 foizni tashkil etgan. Dehqonchilik mahsulotlari hajmi 7,2 foizga, chorvachilik esa 1,6 foizga oshgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agrar sektor rivojlanish darajasiga birinchi navbatda investitsion faollik va texnologik modernizatsiya ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va agrotexnik tadbirlarni raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hosildorlikning oshishiga xizmat qilmoqda. 2025-yilning birinchi choragida mamlakat iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 120,4 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 foizga oshgan. Ushbu investitsiyalar agrar sohada texnika yangilanishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Hududlar kesimida ham agrar sektor rivojlanish sur’atlari turlicha ekanligi kuzatiladi. 2025-yilda eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari Sirdaryo viloyatida 106,9 foiz, Farg‘onada 105,6 foiz, Xorazmda 104,9 foiz darajasida qayd etilgan. Bu esa hududiy resurslar, suv ta’minoti, agroiqlim sharoiti va boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim hududlarda o‘sish sur’atlarining nisbatan pastligi yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini anglatadi.

Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar agrar sektor rivojlanishiga iqlim omillari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, Ariel Ortiz-Bobea va hammualliflar tadqiqotiga ko‘ra, global miqyosda antropogen iqlim o‘zgarishi 1961-yildan buyon qishloq xo‘jaligi umumiy

unumdorligini taxminan 21 foizga kamaytirgan. Bu natija agrar ishlab chiqarishda iqlim risklarini boshqarish, suv tejash va iqlimga mos agrotexnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, agrar sektor rivojlanish darajasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida investitsiyalar, texnologik yangilanish, tabiiy-iqlim sharoitlari, hududiy resurslar, davlat qo‘llab-quvvatlash siyosati va bozor infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Statistik ma’lumotlar sektorning barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanini ko‘rsatmoqda, biroq uning samaradorligini yanada oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

1-jadval

Agrar sektorning rivojlanish darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar

№	Omillar	Mazmuni	Agrar sektor rivojlanishiga ta’siri
1	Tabiiy-iqlim omillari	Iqlim sharoiti, yog‘ingarchilik miqdori, harorat, tuproq unumdorligi, suv resurslari	Hosildorlik darajasini belgilaydi, ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta’sir qiladi
2	Investitsion omillar	Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan mablag‘lar, texnika va uskunalarni yangilash	Ishlab chiqarish quvvatlarini oshiradi, modernizatsiyani tezlashtiradi
3	Texnologik omillar	Zamonaviy agrotexnologiyalar, raqamli boshqaruv, suv tejovchi texnologiyalar	Mehnat unumdorligini va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi
4	Mehnat resurslari	Malakali ishchi kuchi, agronom va texnik mutaxassislar salohiyati	Ishlab chiqarish sifatini va mahsuldorlikni oshiradi
5	Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, agrar islohotlar	Sektorning barqaror rivojlanishini rag‘batlantiradi
6	Bozor infratuzilmasi	Logistika, saqlash omborlari, transport va savdo tarmoqlari	Mahsulotlarni tez va samarali realizatsiya qilish imkonini yaratadi
7	Innovatsion omillar	Ilmiy ishlanmalar, yangi navlar va seleksiya yutuqlari	Hosildorlik va mahsulot sifatini oshiradi
8	Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	Aholi bandligi, daromadlar darajasi, qishloq hududlari rivoji	Ichki talab va ishlab chiqarish barqarorligiga ta’sir qiladi
9	Institutsional omillar	Yer munosabatlari, mulkchilik shakllari, boshqaruv tizimi	Resurslardan foydalanish samaradorligini belgilaydi
10	Tashqi iqtisodiy omillar	Eksport-import, jahon narxlari, xalqaro bozor talabi	Agrar mahsulotlar raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshiradi

Agrar sektorning rivojlanish darajasi ko‘plab o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida shakllanadi. Avvalo, tabiiy-iqlim omillari ushbu sohaning eng muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. Xususan, iqlim sharoiti, yog‘ingarchilik miqdori, harorat darajasi, tuproq unumdorligi hamda suv resurslarining mavjudligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini belgilaydi. Ayniqsa, suv

resurslaridan oqilona foydalanish agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, investitsion omillar agrar sektor rivojlanishining iqtisodiy asosini tashkil etadi. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar, zamonaviy texnika va uskunalarni joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish tarmoqning ishlab chiqarish quvvatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, texnologik omillar, jumladan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari va suv tejovchi usullarni qo‘llash mehnat unumdorligi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Agrar sektor rivojlanishida mehnat resurslari va inson kapitalining ham o‘rni katta. Malakali mutaxassislar, agronomlar va texnik xodimlarning mavjudligi ishlab chiqarish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Davlat siyosatining samaradorligi ko‘p jihatdan sektorning o‘sish sur’atlarini belgilab beradi. Shuningdek, bozor infratuzilmasining rivojlanganligi ham muhim omillardan biridir.

Transport-logistika tizimi, mahsulotlarni saqlash omborlari va savdo tarmoqlarining mavjudligi agrar mahsulotlarni tezkor realizatsiya qilish va ularning bozor qiymatini saqlab qolishda katta rol o‘ynaydi. Innovatsion omillar, ya’ni ilmiy ishlanmalar, yangi seleksiya navlari va zamonaviy agrotexnologiyalar esa hosildorlik hamda mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, agrar sektor rivojlanish darajasi tabiiy, iqtisodiy, texnologik, institutsional va tashqi iqtisodiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Mazkur omillarning har birini samarali boshqarish sektorning barqaror rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va milliy iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, agrar sektor milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanish darajasi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, aholi bandligi va umumiy iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida agrar sektor rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida tabiiy-iqlim sharoitlari, investitsion faollik, texnologik yangilanish, mehnat resurslari, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda bozor infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va investitsiyalar hajmini oshirish tarmoq samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, agrar sektorda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hosildorlik va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlar kesimida mavjud tafovutlar tabiiy resurslar, suv ta’minoti va boshqaruv samaradorligi bilan izohlanadi. Bu esa hududiy yondashuv asosida agrar siyosatni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, birinchi navbatda agrar sektorga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va ularni zamonaviy texnika hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ikkinchidan, suvni tejovchi texnologiyalarni keng tatbiq etish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish lozim. Uchinchidan, agrar tarmoqda malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish sektorning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va logistika tizimini rivojlantirish orqali ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, agrar sektorni barqaror rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, ushbu sohada ilmiy asoslangan yondashuvlar va amaliy takliflarni izchil joriy etish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Agrar sektor rivojlanishini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar

№	Taklif yo‘nalishi	Amalga oshirish mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Investitsiyalar hajmini oshirish	Agrar sektorga davlat va xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish, zamonaviy texnika va uskunalar xaridini moliyalashtirish	Ishlab chiqarish quvvatlari oshadi, hosildorlik va samaradorlik yaxshilanadi
2	Suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish	Tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish va raqamli monitoring tizimlarini keng qo‘llash	Suv resurslaridan oqilona foydalanish va hosildorlik oshadi
3	Innovatsion texnologiyalarni kengaytirish	Zamonaviy agrotexnologiyalar, raqamli boshqaruv va avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy etish	Mehnat unumdorligi va mahsulot sifati oshadi
4	Kadrlar salohiyatini rivojlantirish	Agronomlar, veterinariya va texnik mutaxassislar malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish	Inson kapitali kuchayadi, boshqaruv sifati yaxshilanadi
5	Logistika va saqlash tizimini rivojlantirish	Omborxonalar, sovutkichli saqlash bazalari va transport infratuzilmasini kengaytirish	Mahsulot isrofi kamayadi, bozorga tez yetkazib berish ta’minlanadi
6	Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish	Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklarini kengaytirish	Fermer va dehqon xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligi oshadi
7	Eksport salohiyatini oshirish	Xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga chiqish strategiyasini ishlab chiqish	Eksport hajmi va valyuta tushumlari ko‘payadi
8	Ilmiy tadqiqotlar bilan integratsiya	Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, seleksiya va yangi navlar yaratish	Hosildorlik va mahsulot sifati yaxshilanadi

Agrar sektorni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar, avvalo, tarmoq samaradorligini oshirish va uning barqaror o‘sishini ta’minlashga qaratilgan. Xususan, agrar sohaga investitsiyalar hajmini oshirish hamda zamonaviy texnika va uskunalarni joriy etish ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, suvni tejovchi texnologiyalarni, jumladan tomchilatib sug‘orish tizimlarini keng qo‘llash yer va suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etish mehnat unumdorligini oshirib, mahsulot sifatini yaxshilaydi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish, mutaxassislar malakasini oshirish ham tarmoqning uzoq muddatli samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, logistika, saqlash va eksport infratuzilmasini takomillashtirish mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga tez va sifatli yetkazib berishga xizmat qiladi. Umuman olganda, ushbu takliflarning izchil amalga oshirilishi agrar sektorning raqobatbardoshligini kuchaytirib, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schultz T.W. Transforming Traditional Agriculture. – New Haven: Yale University Press, 1964. – 220 p.
2. Bertoglio R., Corbo C., Renga F.M., Matteucci M. The Digital Agricultural Revolution: a Bibliometric Analysis Literature Review. – arXiv, 2021. – URL: https://arxiv.org/abs/2103.12488
3. Ortiz-Bobea A., et al. Climate Change and Global Agricultural Productivity. – arXiv, 2020. – URL: https://arxiv.org/abs/2007.10415
4. G'ulomov S., Axmedov X., Yusupov M. Development of Agricultural Economy of Uzbekistan. – Tashkent: Academy of Sciences Press, 2023. – 145 p.
5. Sultonov Sh., Rasulev U. Agricultural Sector in Uzbekistan: Statistical Analysis. – Tashkent: Scientific Journal of Economics and Development, 2023. – №3. – P. 45–61.
6. Abdumalikovich, A. D. The Importance of Commercial Banks During the Global Economic Crisis. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 4(5), 40-42.
7. Anorkulov D. BASIC PRINCIPLES OF ECONOMIC MANAGEMENT IN THE AGRICULTURAL SECTOR AND THEIR DIVERSIFICATION //International Conference on Business & Management. – 2026. – Т. 2. – №. 3. – С. 4-7.
8. The Global Economy. Uzbekistan: Share of Agriculture in GDP. – URL: https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/share_of_agriculture/
9. UzDaily. Uzbekistan's Agricultural Sector Output Reaches Nearly 539 Trillion Soums in 2025. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-agricultural-sector-output-reaches-nearly-539-trillion-soums-in-2025/
10. Kun.uz. Uzbekistan's Economy Grows by 6.8%, GDP Tops $25 Billion in Q1. – URL: https://www.kun.uz/en/news/2025/04/30/uzbekistans-economy-grows-by-68-gdp-tops-25-billion-in-q1

TO‘QIMACHILIK KORXONALARI BARQAROR RIVOJLANISHIDA STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING TAHLILI VA TENDENSIYALARI

Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti, Menejment va Marketing kafedrasi tayanch doktoranti.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647722

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘qimachilik korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, sohada mavjud boshqaruv yondashuvlari, ularning samaradorligi hamda zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda qo‘llanilayotgan innovatsion strategiyalar o‘rganiladi. Raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni ta’minlash omillari chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, global tendensiyalar, raqamlashtirish jarayonlari va barqaror rivojlanish konsepsiyasining to‘qimachilik sanoatiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida strategik boshqaruvni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur yondashuvlar korxonalar faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *To‘qimachilik sanoati, barqaror rivojlanish, strategik boshqaruv, innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish, raqobatbardoshlik, resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlik.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida barqaror rivojlanishni ta’minlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonda strategik boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ekologik talablarga rioya qilish va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish ham dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishdagi nazariy va amaliy jihatlarni yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili ko‘plab yetuk olimlarning tadqiqotlariga asoslanadi. Jumladan, I. Ansoff o‘zining “Corporate Strategy” (1965) asarida strategik rejalashtirishni korxona rivojlanishining asosiy vositasi sifatida izohlaydi. M. Porter “Competitive Strategy” (1980) hamda “Competitive Advantage” (1985) kitoblarida raqobat ustunligini shakllantirishning uchta asosiy strategiyasini asoslab beradi. H. Mintzberg esa “The Rise and Fall of Strategic Planning” (1994) asarida strategiyani shakllantirishda moslashuvchanlik zarurligini ta’kidlaydi.

Barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha J. Elkington “Cannibals with Forks” (1997) asarida “uchlik natija” (triple bottom line) konsepsiyasini ilgari surgan. P. Drucker “Management: Tasks, Responsibilities, Practices” (1973) kitobida menejmentning samarali tashkil etilishi korxona

barqarorligining asosi ekanini ko‘rsatadi. Ushbu nazariyalar to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda to‘qimachilik korxonalarining barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va strategik menejment tizimini shakllantirish bo‘yicha kompleks yondashuv qo‘llanildi. Ilmiy ishlanma davomida tizimli tahlil, taqqoslash, SWOT-analiz, ekspert baholash va induktiv-deduktiv metodlar asosida amaliy va nazariy jihatlar o‘rganildi. Dastlab, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining hozirgi holati statistik ko‘rsatkichlar va mavjud strategik hujjatlar asosida tahlil qilindi[11]. So‘ngra xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilib, ular mahalliy sharoitga moslashtirish orqali strategik menejment modelining taklif variantlari ishlab chiqildi. Shuningdek, korxona darajasida strategik rejalashtirish, resurslardan foydalanish va barqarorlik indikatorlarini baholash uchun matritsali usullar va ilg‘or boshqaruv konsepsiyalaridan foydalanildi. Metodologiya asosida ishlab chiqilgan mexanizmlar amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan takliflar shaklida tizimlashtirildi.

Muhokama va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirish jarayonlari kompleks tahlil qilinib, ularning barqaror rivojlanishga ta’siri tizimli yondashuv asosida baholandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarning uzoq muddatli samaradorligi bevosita strategik rejalashtirishning sifat darajasi, tashqi va ichki muhit omillarini chuqur tahlil qilish hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv mexanizimlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘lib, bu esa ularning global raqobat muhitida barqaror faoliyat yuritishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, risklarni boshqarish, strategik monitoring va baholash tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi korxonalarning tashqi iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, strategik boshqaruvni takomillashtirishda zamonaviy boshqaruv vositalari, jumladan, benchmarking, balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi (BSC) va SWOT tahlil kabi usullardan samarali foydalanish zarurligi aniqlandi.

Bundan tashqari, barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida ekologik va ijtimoiy omillarning strategik boshqaruvga integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ekologik talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish nafaqat atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi, balki korxonaning xalqaro bozorlardagi imijini ham oshiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali ichki boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin.

Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, strategik rejalashtirishni chuqurlashtirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini to‘liq integratsiya qilish ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, korxonalarda moslashuvchan va dinamik boshqaruv tizimini shakllantirish orqali ularning global iqtisodiy muhitdagi raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Mazkur yondashuvlar uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi hamda tarmoqning innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, to‘qimachilik korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda strategik boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ushbu tarmoq korxonalari yuqori raqobat, resurslar cheklanganligi hamda tez o‘zgaruvchan bozor talablariga duch kelmoqda. Shu sababli strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv tizimi yetarli darajada integratsiyalashmagan bo‘lib, bu holat qaror qabul qilish jarayonlarining sustlashuvi va resurslardan samarali foydalanish darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarining yetarlicha hisobga olinmasligi ham tarmoq rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois strategik boshqaruvni modernizatsiya qilish va uni barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarni ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, strategik boshqaruv korxona faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi tizimli yondashuvga asoslanishi lozim; ikkinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlari boshqaruv samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi; uchinchidan, ekologik va ijtimoiy omillarni strategik qarorlar tarkibiga kiritish korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy boshqaruv vositalari, jumladan, Balanced Scorecard (BSC), SWOT va PESTEL tahlillarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu vositalar korxonaning ichki va tashqi muhitini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni, xususan, ERP tizimlari va sanoat 4.0 yechimlarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish zarur. Bu resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida “yashil ishlab chiqarish” tamoyillarini joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, korxonalarda kadrlar salohiyatini oshirish, strategik fikrlash madaniyatini rivojlantirish hamda doimiy malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish muhimdir. Bu esa boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi, barqaror rivojlanishni ta’minlaydi hamda tarmoqning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chandler, A. D. (1962). *Strategy and Structure: Chapters in the History of the American Industrial Enterprise*. MIT Press. https://doi.org/10.4324/9780203421903
2. Mintzberg, H., & Waters, J. A. (1985). Of strategies, deliberate and emergent. *Strategic Management Journal*, 6(3), 257–272. https://doi.org/10.5465/amj.1985.4007933
3. Karimov, R., & Shermatov, B. (2020). Strategik rejalashtirish va to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* jurnali, №4, 73–78. https://elibrary.ru/item.asp?id=45712190

4. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press. https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=190
5. UNIDO. (2021). *Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. United Nations Industrial Development Organization. https://www.unido.org/resources/publications
6. World Bank. (2020). *Textile and Apparel Industry in Central Asia: Trends, Challenges and Policy Responses*. Washington, DC: World Bank Group. https://www.worldbank.org
7. Porter, M. E. (2008). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=190
8. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business Press https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=15818
9. Gurel, E., & Tat, M. (2017). SWOT Analysis: A Theoretical Review. *The Journal of International Social Research*, 10(51), 994-1006 https://www.sosyalarastirmalar.com/articles/swot-analysis-a-theoretical-review.pdf
10. Jabborov A., Karimov B. (2022). *Strategik menejment asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi elektron kutubxonasi: https://library.uzedu.uz
11. Uktamjonova Z.A. Improvement of the strategic management mechanism in textile enterprises. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali vol. 4 no. 09 (2024) 211-216 b
12. Yuldasheva NA (2018) METHOD OF DIAGNOSTICS OF THE ENTERPRISE IN THE SYSTEM OF ANTI-CRISIS MANAGEMENT. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (60): 248-252. https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2018.04.60.45

O‘ZBEKISTONDA MUNITSIPAL MULKNI BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

Yaxshiboyev Shohruh Xayitmurod o‘g‘li
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647877

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda munitsipal mulkni boshqarishning nazariy, iqtisodiy va huquqiy asoslari kompleks tarzda tahlil qilingan. Munitsipal mulk tushunchasining mazmuni, uning hududiy taraqqiyotdagi iqtisodiy vazifalari, aktivlarni hayotiy sikl asosida boshqarish, inventarizatsiya, hisobdorlik va moliyaviy barqarorlik kabi nazariy yondashuvlar ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida munitsipal mulk boshqaruvi Fuqarolik kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonun, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun va budjet qonunchiligi orqali tartibga solinishi ko‘rsatilgan. Statistik ma’lumotlar asosida munitsipal korxonalarning hajmi, mahalliy moliyaviy resurslarning munitsipal mulkni saqlash va rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqola muallifning munitsipal aktivlar reyestri, ularni KPI asosida boshqaruv, raqamlashtirish va aktivlarning hayotiy sikli bo‘yicha rejalashtirishni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflari ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Respublika mulki, munitsipal mulk, kommunal mulk, mahalliy budjet, respublika budjeti, hududiy boshqaruv, davlat mulki, aktivlarni boshqarish, mahalliy davlat hokimiyati, respublika ijro etuvchi organlar, huquqiy baza, davlat mulki reyestri.*

Abstract. *The article examines the theoretical, economic and legal foundations of municipal property management in Uzbekistan. It clarifies the content of municipal property, its economic role in territorial development, and the relevance of life-cycle asset management, inventory, accountability and financial sustainability. The paper also demonstrates that the institution is regulated through the Civil Code, the Law “On Property in the Republic of Uzbekistan”, the Law “On Local State Authority”, the Law “On State Property Management”, and budget legislation. Using official statistics, the study reveals the growth of local budgets in 2025–2026, the significance of local financial resources for maintaining municipal assets, and the small share of publicly owned housing stock in the overall housing structure. The article proposes a unified municipal asset register, KPI based governance, digitalisation and stronger life-cycle planning as priority areas for reform.*

Keywords: *Republic property, municipal property, communal property, local budget, republic budget, territorial governance, state property, asset management, local authorities, republic authorities, legal framework, registr of state property.*

Kirish

Munitsipal mulk hududiy iqtisodiyotning moddiy tayanchi hisoblanuvchi davlat mulkidir. U mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatish, kommunal infratuzilmani saqlash, ijtimoiy muassasalar faoliyatini ta’minlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va hududiy rivojlanishni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi. Xalqaro amaliyotda mahalliy davlat boshqaruvi ixtiyoridagi aktivlar jamoat xizmatlarining sifatini belgilab beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini ta’minlash hamda davlat mulki boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish (detsentralizatsiya) siyosati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hududlarning iqtisodiy bazasini mustahkamlash bevosita mahalliy darajadagi resurslar, xususan, munitsipal mulkni oqilona boshqarish bilan bog‘liq.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda munitsipal mulkni boshqarishning nazariy-huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilish, uning iqtisodiy mohiyatini ochib berish va statistik ma’lumotlar asosida sohadagi ayrim tendensiyalarni yoritishdan iborat.

1. Munitsipal mulk tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati

1.1. Munitsipal mulk tushunchasi

O‘zbekiston qonunchiligida “munitsipal mulk” va “kommunal mulk” atamalari mazmunan bir xil ma’noni anglatgan davlat mulki hisoblanadi. Yaqin yillardagi qonunchilik hujjatlaridagi o‘zgartirishlarga asosan “kommunal mulk” tushunchasi “munitsipal mulk” tushunchsiga o‘zgartirildi. Fuqarolik kodeksida munitsipal mulk tarkibi aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunda ma’muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki iqtisodiy asos sifatida “kommunal mulk” atamasi bilan ifodalangan edi.

Fuqarolik kodeksining 215-moddasiga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining mol-mulki, mahalliy budjet mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk **munitsipal mulk** ekanligi belgilangan.

Fuqarolik kodeksi hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan respublika mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lgan davlat mulki ommaviy mulk ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bu esa O‘zbekiston sharoitida munitsipal mulk davlat mulkining maxsus hududiy shakli sifatida namoyon bo‘lishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, munitsipal mulkni ikki o‘lchamda tavsiflash mumkin, birinchidan, u mahalliy darajadagi davlat mulki, ikkinchidan, u mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy resurslardir.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga asosan hokimlar va xalq deputatlari kengashlari hududdagi munitsipal mulk ustidan nazorat funksiyalarini amalga oshirib kelmoqda.

1.2. Iqtisodiy mohiyati

Munitsipal mulkning iqtisodiy mohiyati, avvalo, uning jamoat xizmatlarini ko‘rsatishdagi roli bilan belgilanadi. Maktablar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, bozorlar va savdo komplekslari, mahalliy ishlab chiqarish korxonalari, kommunal xizmatlar, ijtimoiy obyektlar, mahalliy infratuzilma va uy-joy fondining muayyan qismi aholi turmush sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan munitsipal mulk kamida **uchta asosiy funksiyani** bajaradi:

xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini ta’minlash;

ijara yoki xo‘jalik jamiyatlarida ishtirok orqali daromad manbai bo‘lish;

hududiy investitsiya va rivojlanish siyosatining moddiy bazasi sifatida xizmat qilish.

Shuning uchun, munitsipal mulkni boshqarish masalasi oddiy mol-mulkni saqlash vazifasi emas, balki hududiy rivojlanish, moliyaviy barqarorlik va jamoat manfaatini ta’minlashga qaratilgan strategik boshqaruv vazifasi hisoblanadi.

Uning iqtisodiy mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- **Ijtimoiy yo‘naltirilganlik:** Maktablar, shifoxonalar, mahalliy yo‘llar, istirohat bog‘lari va kommunal xo‘jalik obyektlari orqali aholi farovonligini ta’minlash;

- **Mahalliy budjetning daromad manbai:** Aktivlarni ijaraga berish, xususiylashtirish yoki davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari orqali moliyaviy tushumlarni shakllantirish;
- **Iqtisodiy mustaqillik kafolati:** Hududlarning respublika budjeti mablag‘lariga qaramligini kamaytirish vositasi.

2. Munitsipal mulkni boshqarishning nazariy asoslari

Zamonaviy nazariyada munitsipal aktivlarni boshqarish faqat mulkni saqlash bilan cheklanmaydi. U aktivning butun hayotiy siklini – rejalashtirish, qurish, foydalanish, ta’mirlash, modernizatsiya va hisobdan chiqarish bosqichlarini qamrab oladi.

Bunday yondashuvda aktivlarning texnik holati, xizmat muddati, ekspluatatsiya xarajatlari, kapital ta’mir ehtiyoji va jamoat uchun keltiradigan foydasi bilan birgalikda baholanadi. Natijada aktivlar bo‘yicha qisqa muddatli qarorlar emas, balki uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilish imkoni paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, munitsipal mulkni samarali boshqarishning birinchi sharti – aktivlar to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lishdir. Ya’ni qaysi aktiv kimning balansida turibdi, qayerda joylashgan, qanday texnik holatda, qanday daromad yoki xarajat keltirmoqda – shu kabi ma’lumotlar to‘liq shakllantirilmasdan turib samarali boshqaruvni ta’minlab bo‘lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan yagona elektron davlat aktivlari reyestri, kadastr ma’lumotlari, texnik pasportlar va baholash natijalarini integratsiya qilish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Munitsipal mulkni boshqarishda asosiy mezon faqat aktivning balans qiymati emas, balki u orqali aholiga qanday xizmat ko‘rsatilayotganidir. Shu bois xizmat ko‘rsatish standarti, foydalanuvchilar qoniqishi, energiya samaradorligi, texnik ishonchlilik va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega hamda ushbu yondashuv munitsipal mulkni jamoat qiymati yaratish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

3. O‘zbekiston Respublikasida munitsipal mulkni boshqarishning huquqiy-me’yoriy bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar va yig‘imlarni belgilash hamda kommunal xo‘jalikni boshqarish uchun mas’ul hisoblanadi. Bu norma munitsipal mulkni boshqarishning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi va mahalliy hokimiyat organlarining mazkur sohadagi vakolatlarini belgilab beradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Sogdiana Normamatova o‘z tadqiqotida O‘zbekistonda yosh tadbirkorlarni imtiyozli kreditlar, subsidiya, biznes inkubatorlar va davlat jamg‘armalari orqali qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Tadqiqotda hududlar kesimida mavjud farqlar, byurokratik to‘siqlar hamda yoshlarning moliyaviy savodxonligi darajasining ushbu jarayonga ta’siri ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, Valiyev Umid Gulamovich hamda boshqa mahalliy tadqiqotchilar ishlarida yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlari, startaplarni rivojlantirish istiqbollari va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining biznes faoliyatiga integratsiyalashuvi masalalari yoritilgan. Ushbu manbalar mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish so‘nggi yillarda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda yoshlar ulushi yuqori bo‘lib, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, aholi tarkibida yoshlar salmog‘ining katta bo‘lishi mehnat bozorida yangi ish o‘rinlari yaratish va ularni iqtisodiy faol qatlamga aylantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi hamda xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar inson kapitalini rivojlantirish, bandlikni oshirish va innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning asosiy drayveri sifatida qaralmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi mexanizmlar asosan uchta asosiy yo‘nalishda shakllangan: moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, institutsional ko‘mak va ta’limiy-rivojlantiruvchi dasturlar. Moliyaviy mexanizmlar tarkibida imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar va startap loyihalarni moliyalashtirish vositalari alohida o‘rin tutadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham samaradorlik nuqtayi nazaridan ijobiy natija bermoqda. Xususan, Aloqabankning “yoshlar banki” sifatida belgilanishi yosh tadbirkorlar uchun kredit olish, hisob-kitob xizmatlari va maslahat yordamini markazlashgan holda tashkil etish imkonini yaratdi. Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligi huzurida 100 million AQSh dollari miqdoridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat jamg‘armasi tashkil etilgani moliyaviy resurslar hajmini sezilarli kengaytirdi. Ushbu jamg‘arma orqali kamida 50 ming nafar yoshni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadi qo‘yilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, faqat moliyaviy yordamning o‘zi yetarli emas, balki biznes ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan UNICEF, UNDP va boshqa xalqaro institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlari muhim rol o‘ynamoqda. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda millionlab yoshlar ijtimoiy, tadbirkorlik va STEM ko‘nikmalari bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan. Bu esa yoshlarning biznes yuritish kompetensiyasini oshirib, ularning innovatsion loyihalarga kirib kelishini tezlashtirgan.

Shuningdek, tahlil davomida hududlar kesimida ayrim nomutanosibliklar mavjudligi ham aniqlandi. Poytaxt va yirik shaharlarda yoshlar uchun biznes boshlash infratuzilmasi, axborotga kirish va moliyaviy xizmatlar imkoniyati yuqori bo‘lsa, chekka hududlarda bu ko‘rsatkich nisbatan

pastroq. Bu esa mavjud mexanizmlarni hududiy xususiyatlar asosida differensial yondashuv bilan takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil natijalari yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishning mavjud mexanizmlari iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta’minlash va innovatsion biznes tashabbuslarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, imtiyozli kreditlash, davlat jamg‘armalari, startaplarni venchur moliyalashtirish hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlari yoshlar biznes ekotizimini mustahkamlashda muhim natijalar bermoqda.

1-jadval

Yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish mexanizmlarining ilmiy-tahliliy baholash modeli

Tahlil yo‘nalishi	**Amaldagi holat tavsifi**	**Ilmiy tahlil**	**Kutilayotgan natija**
Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari	Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar orqali yoshlarning biznes boshlashiga sharoit yaratilgan	Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati tadbirkorlik tashabbuslarini faollashtiradi, biroq mablag‘lardan samarali foydalanish ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashgandagina yuqori samara beradi	Yangi biznes subyektlari sonining ortishi va yoshlar bandligining mustahkamlanishi
Institutsional qo‘llab-quvvatlash	Davlat organlari, banklar va yoshlar tashkilotlari tomonidan maslahat va tashkiliy ko‘mak ko‘rsatilmoqda	Institutsional muhitning barqarorligi yoshlarning bozorga moslashuvini tezlashtiradi hamda biznesni yuritishdagi xavflarni kamaytiradi	Tadbirkorlik faoliyatining barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishi
Ta’lim va ko‘nikmalarni rivojlantirish	Tadbirkorlik, menejment va raqamli savodxonlik bo‘yicha treninglar yo‘lga qo‘yilgan	Nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmalar bilan integratsiyasi yoshlarning innovatsion qarorlar qabul qilish salohiyatini oshiradi	Innovatsion startaplar va raqamli biznes loyihalarining kengayishi
Axborot va maslahat xizmatlari	Biznes boshlash jarayonlari bo‘yicha ma’lumotlar platformalari shakllantirilgan	Axborot ochiqligi va tezkor maslahat xizmatlari biznes boshlashdagi noaniqliklarni kamaytiradi	Yoshlarning tadbirkorlikka kirish motivatsiyasi ortadi
Hududiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari	Hududlar kesimida qo‘llab-quvvatlash dasturlari mavjud, ammo farqlar saqlanib qolgan	Hududiy nomutanosibliklar tadbirkorlik faolligiga bevosita ta’sir qiladi, differensial yondashuv zarur	Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tenglik va bandlik darajasining yaxshilanishi
Innovatsion ekotizim	Startap markazlari va biznes inkubatorlar	Innovatsion infratuzilma yoshlarning kreativ g‘oyalarini	Ilm-fan va biznes integratsiyasining kuchayishi

	faoliyati rivojlanmoqda	tijoratlashtirish uchun asos yaratadi	

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishning amaldagi mexanizmlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Avvalo, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar biznes boshlash uchun dastlabki kapital muammosini yumshatadi hamda yoshlarning iqtisodiy tashabbuslarini faollashtiradi. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi faqat mablag‘ ajratish bilan emas, balki ularni oqilona boshqarish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni ta’limiy va maslahat xizmatlari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari institutsional qo‘llab-quvvatlashning ham alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Davlat organlari, moliya institutlari va yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar tomonidan yaratilayotgan tashkiliy muhit yoshlarning biznes yuritish jarayonidagi xavf va noaniqliklarni kamaytiradi. Ayniqsa, maslahat xizmatlari, huquqiy ko‘mak va biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi yosh tadbirkorlarning bozorga tez kirib borishiga xizmat qiladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ta’lim va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik, menejment, marketing va raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilimlarning berilishi yoshlarning zamonaviy biznes muhitiga moslashuvini tezlashtiradi. Ayniqsa, nazariy bilimlarning amaliy treninglar va startap loyihalar bilan uyg‘unlashuvi innovatsion g‘oyalarning shakllanishiga hamda ularning tijoratlashuviga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, axborot va maslahat xizmatlarining rivojlanishi ham yoshlar tadbirkorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Biznes boshlash bo‘yicha ma’lumotlarning ochiqligi, tezkor konsultatsiya xizmatlari va elektron platformalarning kengayishi yoshlarning tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada biznes boshlashdagi psixologik va tashkiliy to‘siqlar kamayadi, tashabbuskorlik muhiti shakllanadi.

Hududiy jihatdan olib qaralganda, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi hududlar kesimida turlicha namoyon bo‘lmoqda. Markaziy va iqtisodiy faol hududlarda infratuzilma imkoniyatlari kengroq bo‘lsa, chekka hududlarda tadbirkorlik uchun zarur sharoitlar nisbatan sust rivojlangan. Bu esa hududiy differensial yondashuv asosida qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar

Yo‘nalish	**Taklif mazmuni**	**Kutilayotgan samara**
Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	Yoshlar uchun imtiyozli kredit va grant dasturlarini soddalashtirish hamda ularga kirish imkoniyatini kengaytirish	Biznes boshlash tashabbuslari ortadi va yangi subyektlar shakllanadi
Ta’lim va ko‘nikmalar	Oliy ta’lim muassasalari va kasb-hunar markazlarida tadbirkorlik bo‘yicha amaliy kurslarni kuchaytirish	Yoshlarning biznes yuritish kompetensiyasi oshadi

Innovatsion rivojlanish	Startap markazlari va biznes inkubatorlar faoliyatini kengaytirish	Innovatsion g‘oyalar tijoratlashuvi tezlashadi
Hududiy rivojlanish	Chekka hududlarda yosh tadbirkorlar uchun alohida qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish	Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovut kamayadi
Axborot tizimi	Raqamli platformalar orqali biznes bo‘yicha maslahat va ma’lumot xizmatlarini kuchaytirish	Axborotga kirish imkoniyati yaxshilanadi
Monitoring va baholash	Rag‘batlantirish dasturlarining samaradorligini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish	Davlat siyosati samaradorligi oshadi

Yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar tizimli yondashuvni talab etadi va bu yo‘nalish bir nechta muhim tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini soddalashtirish, ya’ni yoshlar uchun imtiyozli kreditlar va grant dasturlariga kirish imkoniyatini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa biznes boshlash istagidagi yoshlar sonining ortishiga va yangi tadbirkorlik subyektlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’lim va ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘nalishi ham muhim o‘rin tutadi. Oliy ta’lim muassasalari hamda kasb-hunar markazlarida tadbirkorlikka oid amaliy kurslarni kuchaytirish yoshlarning biznes yuritish bo‘yicha kompetensiyasini oshiradi va ularni real iqtisodiy faoliyatga tayyorlaydi. Bu jarayon innovatsion rivojlanish bilan uyg‘un holda kechishi lozim bo‘lib, startap markazlari va biznes inkubatorlar faoliyatini kengaytirish orqali yangi g‘oyalarning tezroq tijoratlashuvi ta’minlanadi.

Hududiy rivojlanish masalasi ham alohida e’tiborni talab etadi. Chekka hududlarda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy etish hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, axborot tizimlarini rivojlantirish, ya’ni raqamli platformalar orqali biznes bo‘yicha maslahat va ma’lumot xizmatlarini kengaytirish yoshlarning axborotga kirish imkoniyatini yaxshilaydi va qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Nihoyat, barcha ushbu yo‘nalishlar samaradorligini ta’minlash uchun monitoring va baholash tizimini muntazam yo‘lga qo‘yish zarur. Rag‘batlantirish dasturlarining natijadorligini doimiy kuzatib borish davlat siyosatining samaradorligini oshiradi hamda resurslardan yanada oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Shu tarzda, mazkur yo‘nalishlarning uyg‘un rivoji yoshlar tadbirkorligini barqaror ravishda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishning moliyaviy, institutsional, ta’limiy va axborot mexanizmlarini o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirish ushbu sohaning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Ayniqsa, innovatsion ekotizim va biznes inkubatorlar faoliyatini kuchaytirish yoshlarning kreativ g‘oyalarini amaliy iqtisodiy natijalarga aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishning mavjud mexanizmlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, bandlikni ta’minlash va innovatsion muhitni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari, jumladan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar yoshlarning biznes faoliyatini boshlashida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga,

institutsional qo‘llab-quvvatlash, biznes inkubatorlar, maslahat xizmatlari va ta’lim dasturlari yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga muvaffaqiyatli kirib kelishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy resurslar bilan bir qatorda tadbirkorlik ko‘nikmalari, innovatsion fikrlash va raqamli savodxonlik darajasi ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va hududlar kesimida teng imkoniyatlar yaratish ushbu yo‘nalish samaradorligini yanada oshiradi. Natijada yoshlarning iqtisodiy faolligi kuchayib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi hamda mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish orqali ularning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, innovatsion biznes tashabbuslarini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat dasturi. – Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O‘zbekiston yoshlari bandligi bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2024.
3. World Bank. Youth Employment and Entrepreneurship in Developing Countries. – Washington, DC, 2023.
4. United Nations Development Programme (UNDP). Youth Economic Empowerment Report. – New York, 2022.
5. UNICEF. Skills Development and Youth Entrepreneurship Programs. – New York, 2023.
6. Makai A. L., Dőry T. University Entrepreneurship and Innovation Ecosystems. – Budapest, 2021.
7. Normamatova S. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari. – Toshkent, 2023.
8. Valiyev U. G. Startaplarni rivojlantirish va yoshlar biznesi integratsiyasi. – Toshkent, 2022.
9. OECD. Supporting Youth Entrepreneurship: Policies and Practices. – Paris, 2021.
10. European Commission. Entrepreneurship Education: A Guide for Educators. – Brussels, 2020.
11. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth. – Geneva, 2023.
12. Aloqabank ATB. Yoshlar banki faoliyati bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2025.
13. Yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha davlat jamg‘armasi ma’lumotlari. – rasmiy veb-sayt, 2025.

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARISH TURLARI VA SHAKLLARI

Shavkatov Shaxzod
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Iqtisodiyot” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19811121

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, turlari va shakllari bayon etilgan. Shuningdek, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish turlari va shakllari tadqiq yuzasidan xulosa bayon etilgan.*

Аннотация. *В данной статье описываются необходимость, существующие возможности, виды и формы стратегического управления на текстильных предприятиях. Также приводятся выводы по результатам исследования видов и форм стратегического управления на текстильных предприятиях.*

Abstract. *This article describes the need, existing opportunities, types and forms of strategic management in textile enterprises. Also, a conclusion is drawn on the study of types and forms of strategic management in textile enterprises.*

Kalit so‘zlar. *To‘qimachilik, korxona strategik boshqarish, strategiya, boshqarish.*

Ключевые слова. *Текстиль, стратегическое управление предприятием, стратегия, менеджмент.*

Keywords. *Textile, enterprise strategic management, strategy, management.*

To‘qimachilik sanoati iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, unda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish va bozor talablariga tez moslashish katta ahamiyatga ega. Shu sababli to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydigan muhim boshqaruv jarayoni hisoblanadi. To‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv o‘ziga xos sifatida har bir tashkilotning ehtiyojlariga qarab o‘zgaradi. U korxona maqsadlari, bozor dinamikasi va raqobatchilar tufayli yuzaga keladigan muammolarga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu korxonalarda strategik boshqarish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri ishlab chiqilgan va samarali amalga oshirilgan strategiya korxonaga ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

To‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish turlari va shakllarini tadqiq qilish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Ya’ni, ba’zi tadqiqotlarda Denizli viloyatida faoliyat yuritayotgan to‘qimachilik firmalarining strategik boshqaruv masalalari, strategik boshqaruv qarorlarining tashkiliy darajada qabul qilinishi va strategik maqsadlar haqidagi muhim tasavvurga egaligi asoslanadi [1]. Bundan tashqari, to‘qimachilik sohasida strategik boshqarish turli xabardorlikni yaratish nuqtai nazaridan muhim o‘rinni egallaydi. Shularga asosan, to‘qimachilik sanoati uchta ma’lum bozorlar asosida alohida ajratiladi; kiyim-kechak, uy va texnik to‘qimachilik [2]. Unda asosiy e’tibor kiyim-kechak sanoatiga qaratilgan bo‘lib, bu me’yor va hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Yana bir tadqiqotlarga asosan, to‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish muammolarini bartaraf etish uchun moliyaviy resurslarining yetishmasligi bilan birgalikda bir

qancha tashkiliy, huquqiy va kadrlar bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy muammolarni ham bartaraf etish zaruriyati mavjud [3]. Tajribalarga asosan, dumaloq iqtisodiyot sof resurslarni iste’mol qilishni cheklaydi. Bu esa toza ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi [4]. Biroq, ko‘pgina kompaniyalar uni amalga oshirish bilan kurashadi. Bu borada to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish doimo iqtisodiy tuzilishi uchun birinchi o‘ringa qo‘yilib, yaqin kelajakda iqtisodiy zarurat bo‘lib qoladi. Ya’ni, strategik boshqaruv quyidagi turlarga nisbatan ularning har biriga quyidagi xususiyatlar xos bo‘ladi [5].

1) Chiziqli strategik boshqaruv. Ushbu strategik boshqaruvning eng keng tarqalgan va an’anaviy turi chiziqli strategik boshqaruvdir. U uslubiy rejalashtirish va bajarishga urg‘u beradi va mantiqiy va oqilona qaror qabul qilishga asoslanadi. Ushbu strategiya to‘siqlar va muammolarni hal qilish uchun oldindan belgilangan strategiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

2) Adaptiv strategik boshqaruv. Adaptiv strategik boshqaruv moslashuvchanlik va doimiy takrorlash atrofida joylashgan. Uning maqsadi kompaniyalarni bozordagi tez va oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga samarali moslashishda qo‘llab-quvvatlashdir. Strategiyani ishlab chiqishda ushbu usul moslashuvchanlik va eksperimentlarga yordam beradi.

3) Interpretatsion strategik boshqaruv. Tanlov va taktikani tashkilot maqsadi, qarashlari va qadriyatlariga moslashtirish talqin qiluvchi strategik boshqaruvning asosiy tarkibiy qismidir. Strategiyani ishlab chiqishni qat’iy tuzilma emas, ya’ni dinamik jarayon sifatida ko‘rilib, u innovatsion madaniyatni keng targ‘ib qiladi.

4) Ekspressiv strategik boshqaruv. Ikkala talqin va adaptiv yondashuvlar tushunchalari ekspresiv strategik boshqaruv orqali kengaytiriladi. Bu tashkilotning maqsad va vazifalari bilan yaqin munosabatlarni saqlab, o‘zgarishlarga faol ravishda moslashishga e’tibor beradi.

5) Transsendent strategik boshqaruv. Transsendent strategik boshqaruv strategik boshqaruv amaliyotining cho‘qqisini ifodalaydi. Oldingi to‘rtta toifaning kuchli tomonlarini birlashtirib, keng qamrovli va ko‘p qirrali strategiyani yaratadi.

Darhaqiqat, strategik boshqaruv turlarini tan olish kompaniyalarga ularning maqsadlari va to‘siqlariga mos keladigan usullarni tanlash yoki birlashtirishda imkon beradi. Korxonalar o‘zlarining chaqqonligini, ijodkorligini va ushbu strategiyalarni yaxshi bilish orqali doimiy o‘zgaruvchan raqobat muhitini boshqarishga tayyorligini saqlab qolishlari mumkin.


Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bu holatda kichik firmalar reaktiv rejimlarini hal qiladigan norasmiy strategik boshqaruv modellariga ko‘proq e’tibor berishlari kerak. Bu borada kichik firma menejeri qanchalik vakolatli bo‘lsa, u o‘z biznesida yaxshi natijalarga erishish ehtimoli shunchalik katta bo‘ladi.

Shuningdek, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarishning quyidagi shakllari qo‘llaniladi (1-rasm):

Ushbu rasmga asosan, zamonaviy sharoitda to‘qimachilik korxonalarida samarali strategik boshqaruv va rejalashtirish uchun korxonaning hayot aylanish bosqichiga qarab strategiyani amalga oshirish darajasini baholash ko‘rsatkichlari yoki mezonlarini ishlab chiqish kerak. Shuningdek, strategik boshqaruvni tashkil etish doirasida asosiy maqsadni kichik maqsadlarga ajratish uchun maqsadlar va ishlab chiqarish bo‘linmalarining vazifalari bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydigan maqsadli kompleks dasturlar usuli qo‘llaniladi.

Strategik boshqarish usullari strategiyalarni shakllantirish va amalga oshirishda menejerlar tomonidan qo‘llaniladigan yondashuvlarning haqiqiy turlarini aks ettiradi. Ular strategik boshqarish jarayonida katta ta’sirga ega bo‘lib, undagi jarayon amalga oshirilayotganligi masalalarini hal

qiladilar. Bu borada strategik boshqarishning tadbirkorlik, adaptiv va rejalashtirish kabi asosiy yondashuvidan biri qo‘llaniladi. Tanlangan rejim tashkilot ichida yuzaga keladigan innovatsiya darajasiga ta’sir qilishi mumkin.



1-rasm. To‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish shakllari[24]

Umuman olganda, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va tashkiliy faoliyatni muvofiqlashtirish jarayonidir. Mazkur jarayon korxonaning ichki imkoniyatlari va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda olib boriladi. Bu borada to‘qimachilik sanoatida qo‘llaniladigan strategik boshqarishning quyidagi turlari mavjud bo‘ladi:

1) Rivojlanish strategiyasi (O‘sish strategiyasi). Korxona hajmini kengaytirish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yoki yangi bozorlarni zabt etish maqsadida ishlab chiqiladi. Uning namunalari sifatida yangi mahsulot liniyasi yaratish (masalan, trikotaj kiyimlar qatoriga sport kiyimlarini qo‘shish), eksport bozoriga chiqish va qo‘shma korxona orqali yangi hududda ishlab chiqarishdan iborat bo‘ladi.

2) Barqarorlik strategiyasi. Korxonaning mavjud bozorlar va mahsulotlar bilan barqaror ishlashini ta’minlashga qaratiladi. Bu bozor sharoiti noaniq bo‘lsa, korxona o‘z pozitsiyasidan qoniqsa va tavakkal darajasi yuqori bo‘lsa qo‘llaniladi.

3) Qayta tuzish strategiyasi. Moliyaviy yoki operatsion muammolar yuzaga kelganda, korxonaning faoliyatini tubdan isloh qilish zarur bo‘lsa, qo‘llaniladi. Uning namunalari sifatida sarmoyadorlar jalb qilish, samaradorlikni oshirish uchun texnologik modernizatsiya va noxos mahsulotlardan voz kechishdan iborat bo‘ladi.

4) Diversifikatsiya strategiyasi. Korxona yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi yoki boshqa sohalarga kiradi.

5) Raqobat strategiyasi. Raqobatchilardan ustunlikni qo‘lga kiritish uchun ishlab chiqiladi. M.Porter klassik modeli asosida narx afzalligi, arzon mahsulot ishlab chiqarish, farqlanish:

[24] Muallif ishlanmasi.

mahsulotda dizayn yoki sifat bilan ajralib turish va muayyan segmentga yo‘naltirilgan strategiya hamda aniq bozor segmentiga xizmat ko‘rsatishga asoslanadi.

6) Innovatsion strategiya. Yangi texnologiyalar, dizaynlar yoki ishlab chiqarish usullarini joriy etishga qaratiladi. Bu holat raqobatbardoshlikni oshiradi hamda yashil texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

7) Global strategiya. Xalqaro bozorlarga chiqish, eksport-import aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Uning amaliy jihatlariga ISO standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarish va tashqi bozorlardagi ehtiyojlarni o‘rganishga asoslanadi.

Xulosa shuki, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarishning bir necha xil shakllari mavjud bo‘lib, ular tashkilotning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadlari va tashqi muhitiga mos ravishda qo‘llaniladi. Shunga asosan, strategik boshqaruv shaklini tanlash tashkilotning o‘ziga xos sharoitlari va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina tashkilotlar turli shakllarning elementlarini birlashtirgan gibrid yondashuvni qo‘llaydilar. Muhimi, tanlangan shakl tashkilotga o‘z maqsadlariga erishishga va raqobatbardoshligini saqlab qolishga yordam berishi kerak. Bu borada natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar strategik boshqarishning barcha uchta usulidan foydalanadilar. Ammo, ular reaktiv strategik boshqarish rejimiga ko‘proq ishonadilar. Strategik boshqarishning eng kam ish bilan ta’minlangan rejimi asosiy boshqaruv rejimi bo‘lishi mumkin edi. Bu esa shuni anglatadiki, rasmiy strategik boshqaruv kichik firmalarning ishlashi uchun yetarli bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kızıloglu M., Serinkan C. Perception of Strategical Management in Textile Sector. // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 207, 20 October 2015. - pp. 306-314.
2. Komal S., Sameh M.Saad. Supply Chain Management Strategies Approach for the UK Textile Industry. // 5th International Conference on Industry 4.0 and Smart Manufacturing, Procedia Computer Science, 232 (2024). - pp. 117-127.
3. Ёдгорова Ш.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарининг молиявий ресурсларини бошқариш механизмини такомиллаштириш. // Иқтисод ва молия, 2022, 11(159). - 28 b.
4. Fabian Takacs, Dunia Brunner, Karolin Frankenberger. Barriers to a circular economy in small- and medium-sized enterprises and their integration in a sustainable strategic management framework. // Journal of Cleaner Production, 362 (2022), 132227.
5. https://alterainstitute.com/blog/characteristics-of-strategic-management/

MINTAQAVIY INNOVATSION KLASTERLAR TURLARI, SHAKLLARI VA TAMOYILLARI

Otayeva Dilfuza Zaripovna
Osiyo xalqaro universiteti 70410102 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647465

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqaviy innovatsion klasterlar turlari, shakllari va tamoyillarining zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va asosiy ustuvorliklari yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy innovatsion klasterlar turlari, shakllari va tamoyillarini tadqiq qilish yuzasidan xulosa keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются необходимость, существующие возможности и основные приоритеты типов, форм и принципов региональных инновационных кластеров. Также приводятся выводы по результатам исследования типов, форм и принципов региональных инновационных кластеров.*

Abstract. *This article discusses the need, existing opportunities and main priorities of the types, forms and principles of regional innovation clusters. It also draws conclusions on the study of the types, forms and principles of regional innovation clusters.*

Kalit so‘zlar. *Klaster, mintaqaviy innovatsion klaster, tur, shakl, tamoyil.*

Ключевые слова. *Кластер, региональный инновационный кластер, тип, форма, принцип.*

Key words. *Cluster, regional innovation cluster, type, form, principle.*

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy unsur bo‘lib hisoblanadi. Innovatsiyalarni samarali joriy etish esa ko‘pincha alohida korxona doirasida emas, ya’ni ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim tashkilotlari va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Shu bois, so‘nggi yillarda mintaqaviy innovatsion klasterlar tushunchasi iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida muhim o‘rin egallaydi. Bu borada innovatsion xizmatlar turlarining ko‘payishi, uning rivoji mintaqada mavjud imkoniyatlar va shart-sharoitlar bilan birgalikda egzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi [1].

Ayniqsa, innovatsion klasterlar hududiy iqtisodiy tizimni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, yangi texnologiyalarni yaratish va ularni tijoratlashtirish uchun zarur bo‘ladi. Klaster modeli korxonalar va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Bu borada klasterli iqtisodiy rivojlanish o‘ziga xos biznes vositasi bo‘lib qaraladi. Bozorga yo‘naltirilgan jamiyat o‘z iqtisodiy subyektlari uchun faoliyat qoidalarini qonunlar, munosabatlar, bank sektori, qo‘llab-quvvatlash institutlari va boshqalar orqali shakllantiradi [2].

Innovatsion klasterlar barqaror mintaqaviy rivojlanishni asoslaydi. Barqaror mintaqaviy rivojlanishni ta’minlash uchun ularning hududlarida bir nechta “asosiy” klasterlar yaratiladi [3]. Ushbu asoslar mavjud sanoat korxonalari, infratuzilma va logistika markazlari yoki o‘ziga xos tabiiy va geografik sharoitlar tomonidan shakllantiriladi. Bandlik statistikasi va klaster ichidagi iqtisodiy

subyektlar faoliyatini kuzatib borish uchun tizimli klaster xaritalash vositalari zarur. Shunisi muhimki, mintaqaviy innovatsion klaster ma'lum bir hududda joylashgan, bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari, moliyaviy institutlar va davlat organlarining innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik tizimiga asoslanadi. Bu borada klaster tizimi ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar va ta'lim muassasalari, innovatsion startaplar, moliyaviy tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari hamda texnoparklar va biznes inkubatorlar kabi asosiy unsurlardan iborat bo'ladi. Ushbu tizim ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi hamda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Mintaqaviy innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiy klasterlar bozor mexanizmlarini faollashtirish va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy yechimlarni amalga oshirishda davlat ishtirokining potentsial afzalliklarini birlashtirgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda qatnashadi [4]. Unga asosan, mintaqalar ichidagi yetakchi sanoat tarmoqlariga asoslangan hududiy-sanoat klasterlarini shakllantirish xalqaro raqobatning kuchayishiga qarshi mudofaa chorasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki, innovatsion klaster ma'lum mahsulotlar va xizmatlar uchun barqaror bozor mavqeini ta'minlashga qaratilgan korxonalar guruhini, shuningdek, ularni rivojlantirish uchun resurslarni taqdim etadigan tegishli tuzilmalarni integratsiyalashni ifodalaydi. Bu borada mintaqaviy raqobatbardoshlikka erishish va uni saqlab qolishda klasterlarning roli tan olinganligi sababli jahon bo'ylab hukumatlar va mintaqaviy ma'muriyatlar rivojlanish resurslariga investitsiyalar kiritish orqali klasterlarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli siyosatni amalga oshiradilar.

Ixtisoslashgan taqsimlangan klasterlar ichidagi biznes subyektlari marketing, axborot va inson resurslari tizimlari orqali integratsiya qilinishi mumkin. Bu holatda mintaqaviy ta'lim muassasalari ayrim sohalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun resurs markazlari vazifasini bajaradi. Shularga asosan, mintaqaviy innovatsion klasterlar turlari turli parametrlar va ularning aloqalari yo'nalishi bo'yicha tasniflanadi:

- tarmoqlar ichida mintaqaviy cheklangan iqtisodiy faoliyat shakliga ega klasterlar. Bu borada ilmiy muassasalar (tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqalar) bilan bog'liq.

- faoliyatning tor sohalarida vertikal ishlab chiqarish aloqalariga ega klasterlar. Bu bo'yicha bosh kompaniyalar yoki ishlab chiqarish, ta'minot va sotish jarayonlarini qamrab oluvchi asosiy korxonalar tarmog'i atrofida shakllanadi.

- yuqori darajadagi agregatsiyaga ega ("kimyoviy klaster") yoki undan yuqori darajadagi agregatsiyaga ega ("aerokosmik klaster") turli ishlab chiqarish turlaridagi sanoat klasterlari.

Ulardan tashqari, mintaqaviy innovatsion klasterlarning shakllari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- "asosiy" klasterlar. Asosan, mavjud sanoat korxonalari, infratuzilma va logistika markazlari yoki o'ziga xos tabiiy-geografik shart-sharoitlar bo'lishi mumkin.

- tarqatilgan yoki qo'shnichilik klasterlari. Bular ishlab chiqarish kompaniyalarining bir-biriga nisbatan yaqinligi va tashqi iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bilan tavsiflanadi. Odatda, bu mavjud korxonalar yoki tashkilotlarning o'ziga xos ehtiyojlariga yo'naltirilgan seriyali ishlab chiqarishga asoslanadi.

Ammo, innovatsion klasterlarni yaratishning ba'zi tamoyillari korxonalarning vertikal integratsiyasi, yaqin hamkorlik aloqalari, yagona ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, aniq ixtisoslashuv, hududiy konsentratsiya va yuqori darajadagi innovatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Fikrimizsa, innovatsion klasterlar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Unga asosan, eng ko‘p qo‘llaniladigan tasnif iqtisodiy faoliyat yo‘nalishi va rivojlanish darajasiga asoslanadi. Bu borada klasterlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- sanoat innovatsion klasterlari. Sanoat klasterlari ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltiriladi va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi. Ushbu klasterlarda yirik sanoat korxonalari, ilmiy laboratoriyalar va texnologik markazlar faoliyat yuritadi. Masalan, avtomobil, kimyo va elektronika sanoati klasterlari shularga xos bo‘ladi. Bu borada sanoat klasterlari iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi.

- ilmiy-texnologik klasterlar. Bu klasterlar ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ular ilmiy institutlar va universitetlar atrofida shakllanadi. Ularga texnoparklar, innovatsion markazlar va startap ekotizimlari kabilar kiradi. Bunday klasterlar yangi texnologiyalar yaratish va ularni tijoratlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

- agrar innovatsion klasterlar. Agrar klasterlar qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu klasterlarda fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari va ilmiy markazlar hamkorlik qiladi. Uning asosiy yo‘nalishlariga agrotexnologiyalar, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabilar xos bo‘ladi. Agrar klasterlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

- xizmat ko‘rsatish klasterlari. Bu klasterlar xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Jumladan, turizm klasterlari, logistika klasterlari va axborot texnologiyalari klasterlari shularga tegishli bo‘ladi. Ular hududiy iqtisodiyotning xizmat sektorini rivojlantirishga imkon beradi.

Shular bilan birgalikda, innovatsion klasterlar quyidagi keltirilgan shakllarda tashkil etiladi:

- hududiy klasterlar. Hududiy klasterlar ma’lum bir geografik hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlar asosida shakllanadi. Ular hududning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi. Masalan, sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalar shularga xos bo‘ladi.

- tarmoq klasterlari. Tarmoq klasterlari ma’lum bir iqtisodiy soha doirasida shakllanadi. Masalan, IT klaster, farmatsevtika klasteri va tekstil klasteri shularga xos bo‘ladi.

- innovatsion ekotizim klasterlari. Bu shaklda klasterlar ilmiy tadqiqotlar, startaplar va investitsiya muhitining birlashuvi orqali rivojlanadi. Mazkur klasterlar startap inkubatorlar, venchur fondlar va texnoparklar kabilarni o‘z ichiga oladi.

Biroq, mintaqaviy innovatsion klasterlar samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- hamkorlik tamoyili. Klaster ishtirokchilari o‘zaro hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Ilmiy muassasalar, biznes va davlat organlari birgalikda ishlaydi.

- innovatsion rivojlanish tamoyili. Klasterlarning asosiy maqsadi yangi texnologiyalarni yaratish va ularni iqtisodiyotga joriy etish hisoblanadi.

- raqobatbardoshlik tamoyili. Klasterlar hududiy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi.

- integratsiya tamoyili. Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya klaster tizimiga asoslanadi.

- barqaror rivojlanish tamoyili. Klasterlar uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratiladi.

Mintaqaviy innovatsion klasterlar - muayyan hududda joylashgan korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim tashkilotlari, infratuzilma subyektlari va davlat institutlarining o‘zaro

hamkorligi asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Bunday klasterlar hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Mintaqaviy innovatsion klasterlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish ma'lum tamoyillarga asoslanadi. Ushbu mintaqaviy innovatsion klasterlar tamoyillari hamkorlik, ixtisoslashuv, innovatsionlik, raqobatbardoshlik, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu tamoyillarga asoslangan holda klasterlarni rivojlantirish hudud iqtisodiyotining innovatsion salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulardan tashqari, innovatsion klasterlar hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy ijobiy ta'siri yangi ish o'rinlarini yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiradi, iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi va hududiy infratuzilmani rivojlantiradi. Bu borada klasterlar innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mamlakat eksport salohiyatini oshiradi. Bu borada innovatsion klasterlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan texnoparklar, innovatsion markazlar va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilmoqda. Masalan, IT Park innovatsion klasteri, tekstil klasterlari va agroklasterlar shularga xos bo'ladi. Ushbu klasterlar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Shularga asosan, innovatsion klasterlar o'z mezonlariga mos bo'lgan quyidagi turlarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion klasterlar mezonlariga mos bo'lgan turlari

Mezonlar	**Klaster turlari**			
Hayotiy sikl bosqichlari	Dastlabki	Ishlab chiqilgan	Yetuk	
Zamonaviy	Kuchli	Barqaror	Potensial	Yashirin
Iqtisodiy ahamiyati	O'sish	Kamayish	Barqaror	
Mahalliylashtirish chegaralari	Shahar	Mintaqaviy	Milliy	Xalqaro
Chuqurlik	Chuqur	Kichik	Noaniq chuqurlik	
Mutaxassislik	Sanoat	Innovatsiya	Xizmat ko'rsatish	
Yadro xarakteri	Markazlashtirilgan		Diffuziya	
Tashkiliy-iqtisodiy shakl	Tutish		An'anaviy	

Ushbu 1-jadvalda innovatsion klasterlarni turli mezonlar asosida tasniflash ko'rsatilgan. Unda klasterlarning rivojlanish darajasi, iqtisodiy ahamiyati, hududiy qamrovi, ixtisoslashuvi va tashkiliy xususiyatlari kabi jihatlar ifodalanadi. Mazkur tasnif innovatsion klasterlarning rivojlanish darajasi, iqtisodiy ta'siri, hududiy qamrovi va tashkil etilish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa davlat va biznes uchun klaster siyosatini ishlab chiqish, investitsiyalarni samarali yo'naltirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, mintaqaviy innovatsion klasterlar hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish zarur bo'ladi. Ular muayyan hududda joylashgan korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tashkilotlari, davlat institutlari va infratuzilma subyektlarining o'zaro hamkorligi asosida shakllanadi. Bu borada mintaqaviy innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi ularning turlari, tashkiliy-iqtisodiy shakllari va rivojlanish tamoyillari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka

asoslanadi. Klasterlar turlari ularning iqtisodiy yo‘nalishi, rivojlanish darajasi va hududiy qamroviga qarab shakllanadi. Masalan, sanoat, innovatsiya va xizmat ko‘rsatish klasterlari muayyan tarmoqlarda faoliyat yuritadi. Klasterlar hayotiy sikl bosqichiga ko‘ra dastlabki, rivojlangan va yetuk bosqichlarda bo‘lishi mumkin. Ushbu turlar klaster faoliyatining mazmunini belgilab beradi va uning rivojlanish istiqbolini aniqlaydi.

Klasterlar shakllari esa ularning tashkiliy tuzilishi va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, markazlashtirilgan klasterlarda faoliyat asosan yirik korxona yoki ilmiy markaz atrofida shakllanadi, diffuziya shaklidagi klasterlarda esa ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik nisbatan teng va tarmoqli tizimga ega bo‘ladi. Shuningdek, klasterlar an’anaviy yoki innovatsion shakllarda namoyon bo‘ladi. Klasterlar tamoyillari esa ularni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy qoidalarini belgilaydi. Bularga hamkorlik va integratsiya, ixtisoslashuv, innovatsionlik, raqobatbardoshlik, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanish kabi tamoyillar kiradi. Ushbu tamoyillar klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, mintaqaviy innovatsion klasterlar zamonaviy iqtisodiyotning muhim rivojlanish mexanizmlaridan biridir. Ular ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion klasterlarning turli turlari, shakllari va tamoyillari hududiy iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shunga asosan, kelajakda innovatsion klasterlarni rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi yanada oshishi mumkin. Bu borada mintaqaviy innovatsion klasterlarning turlari, shakllari va tamoyillari o‘rtasidagi bog‘liqlik shundaki, klasterning turi uning tashkiliy shakli va rivojlanish tamoyillarini belgilab beradi. Masalan, innovatsiyaga ixtisoslashgan klasterlarda ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar transferi asosiy o‘rin tutadi, shuning uchun hamkorlik va innovatsionlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cho‘ponov S.O. Mintaqada innovatsion xizmatlar turlari rivojlanishining egzogen va endogen omillari, ular tasnifi va ko‘rsatkichlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 2021. - 139 b.
2. Рахимов З.Г. Функционирование и развитие экономики региона на основе формирования инновационного кластера (на примере возможного развития специальной индустриальной зоны «Ангрен»). // Иқтисод ва молия, 2013, 7. - с. 5.
3. Воронов А.С. К вопросу о типах региональных инновационных кластеров. // Экономика, статистика и информатика, №3, 2016. - с. 18.
4. Агафонов В.А. Региональные инновационные кластеры. // Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал, №3 (43). - с. 1-2. Дата публикации: 15.07.2015. Режим доступа: https://eee-region.ru/article/4301/

O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI JORIY ETISHNING ZARURATI VA IQTISODIY SHART-SHAROITLARI

Isroilova Zarina Ismoil Qizi
Toshkent viloyat sudining sudya katta yordamchisi
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi
MBA-Moliya magistratura bosqichi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19810961

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishning dolzarbligi, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda amaliy tatbiqi uchun mavjud shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Jahon moliya tizimida islom moliyasining barqaror o‘sishi va inqirozlarga nisbatan chidamliligi fonida, mazkur tizimni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda O‘zbekistonda aholining diniy qadriyatlari, moliyaviy inklyuziya darajasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash zarurati asosiy omillar sifatida yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda islom moliyasini rivojlantirish uchun huquqiy-me’yoriy baza, institutsional infratuzilma va kadrlar salohiyatini shakllantirish muhimligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *islom moliyasi, shariatga muvofiq moliyalashtirish, moliyaviy inklyuziya, investitsiya muhiti, iqtisodiy rivojlanish, bank tizimi, sukuk, islom bankchiligi, huquqiy baza, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, islomiy bank faoliyati, murabaha, sukuk, shariat kengashi, real sektorni moliyalashtirish, moliyaviy barqarorlik, xalqaro hamkorlik, Islom taraqqiyot banki, iqtisodiy rivojlanish.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish bo‘yicha amaliy qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik kengaytirilgan, shuningdek, ayrim tijorat banklari tomonidan islomiy moliyalashtirish tamoyillariga yaqin bo‘lgan mahsulotlar pilot tarzda taklif etilmoqda[25]. Bundan tashqari, 2025–2026 yillarda bank qonunchiligini takomillashtirish va islomiy moliyalashtirish xizmatlari uchun normativ-huquqiy asos yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, joriy yilning 27 martida O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan “**O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-1126-son) qabul qilindi.

Ushbu Qonun Markaziy bank tomonidan mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan birgalikda sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, Qonun bilan Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda 7 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, ushbu Qonun bilan: qonunchilikka islomiy bank faoliyati, islomiy moliya operatsiyalari, islomiy moliya standartlari hamda investitsiyaviy omonat (depozit) tushunchalari kiritilmoqda; islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya joriy qilinib, mazkur litsenziyani olish bo‘yicha aniq talablar o‘rnatilmoqda; islomiy bank faoliyatini amalga

[25] https://www.isdb.org/ (O‘zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasidagi hamkorlik doirasidagi rasmiy ma’lumotlar hamda so‘nggi yillardagi moliyaviy loyihalar materiallari)

oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega banklar tomonidan amalga oshiriladigan islomiy moliya operatsiyalari ro‘yxati keltirilmoqda; islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga bevosita savdo faoliyatini amalga oshirishga hamda yuridik shaxslarni tashkil etish va yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarni yoki aksiyalarni cheklovlarsiz olishga ruxsat berilmoqda; islomiy moliya faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va banklarda islomiy moliya kengashini tashkil etish hamda uning faoliyatiga doir talablar belgilanmoqda. Bundan tashqari, islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilab berilmoqda. *(Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 3 oydan so‘ng kuchga kiradi)*

Xususan, Eron bilan bog‘liq geosiyosiy keskinliklar fonida Fors ko‘rfazida joylashgan Hormuz bo‘g‘ozining qisman bloklanishi orqali neft tranzitiga bo‘lgan tahdidlar global energetika xavfsizligini izdan chiqishiga olib keldi. Hormuz bo‘g‘ozi orqali jahon neft hajmining qariyb 20 foizi olib o‘tiladi.[33] Shu sababli, Fors ko‘rfazi mintaqasida yuzaga keladigan har qanday xavf global neft narxlarining keskin oshishiga olib keladi. Osiyo mamlakatlari Hormuz bo‘g‘ozi orqali keladigan neftga juda katta darajada bog‘liq.

1-jadval

Neft import qiluvchi davlatlarning Hormuz bo‘g‘ozidagi ulushi (Talab)[34]

Davlat	Bo‘g‘oz orqali o‘tuvchi jami neftdagi ulushi (%)	Izoh
Xitoy	37.7%	Dunyodagi eng yirik importyor.
Hindiston	14.7%	O‘z ehtiyojining 80-90% qismini import qiladi.
Janubiy Koreya	12.0%	Energetika xavfsizligi butunlay ushbu yo‘lga bog‘liq.
Yaponiya	10.09%	Xom neft ehtiyojining qariyb 95% qismi Fors ko‘rfazidan keladi.
Yevropa Ittifoqi	3.8%	Rossiya neftidan voz kechilgach, bu yo‘lga bog‘liqlik ortgan.
AQSh	2.5%	AQSH asosan o‘z neftiga ega, shuning uchun bog‘liqlik past.

Yaqin Sharqdagi notinchliklar global iqtisodiyotga bir nechta asosiy kanallar orqali ta’sir ko‘rsatadi. **Avvalo**, energetika bozori orqali ta’sir kuzatiladi. Mintaqadagi beqarorlik neft va gaz narxlarining tebranishini kuchaytiradi. Energiya bilan bir qatorda yoqilg‘i narxlarining oshishi esa

[30] O‘zbekistonda 2022-yil yakunlari bo‘yicha inflyatsiya darajasi. Milliy statistika qo‘mitasi Matbuot xizmatining rasmiy kanali. 01.01.2023
[31] Unlocking Uzbekistan’s Potential: The Role of Transport and Logistics
[32] *Charted: Where the World’s Oil Comes From by Region (2025)*
[33] Ho‘rmuz bo‘g‘ozi inqirozi Osiyo aksiya bozorlarini pasaytirdi
[34] *Charted: Oil Trade Through the Strait of Hormuz*

ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytirib, global inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Yuqorida berilgan jadvaldagi ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, Osiyo hamda Yevropa mamlakatlarini turli xil tovarlar bilan ta’minlashda katta ulushga ega davlatlar aynan Fors ko‘rfazi mintaqasi neftiga tayanib qolishgan. Hozirki kundagi bo‘lib turgan mojarolar esa narxlar oshishi ortidan inflyatsiya bosimining kuchayishi milliy iqtisodiyot uchun jiddiy chora-tadbirlar ishlab chiqish kerakligini anglatadi.

Mazkur global iqtisodiy hamda geosiyosiy mojarolar bilvosita O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Energiya, shuningdek yoqilg‘i narxlarining o‘zgarishi import xarajatlarini oshiradi, bu esa ichki bozorda inflyatsion bosimni kuchaytiradi va shu bilan birga, global savdo sharoitlarining murakkablashuvi eksport imkoniyatlariga ham ta’sir qiladi.

Global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar va texnologik transformatsiya sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakat iqtisodiyotining tashqi shoklarga chidamliligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishlari diversifikatsiya, raqamlashtirish, eksportni kengaytirish va institutsional islohotlardan iborat.

O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri xomashyo eksportiga bog‘liqlikni kamaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat. “Bozor xo‘jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo‘ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo‘llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin”.[35]

Xalqaro miqyosda kechayotgan mazkur jarayonlar fonida har bir davlat o‘zining nisbiy ustunliklarini aniqlab, global bozorga qanday resurslar bilan chiqishi mumkinligini belgilashi zarur. O‘zbekiston uchun ham bu masala strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning tabiiy, iqtisodiy va demografik salohiyatidan samarali foydalanish orqali global iqtisodiyotda munosib o‘rin egallash imkoniyati mavjud. Misol tariqasida qo‘shni Avg‘oniston bozorini tahlil qilish orqali O‘zbekistonning imkoniyatlarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Afg‘oniston iqtisodiyoti deyarli barcha hayotiy muhim tovarlar bo‘yicha importga qaram hisoblanadi. Jahon banki (World Bank) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat ichki iste’molining 80% dan ortig‘i xorijiy yetkazib beruvchilar hisobidan qoplanadi.[36] 2025-yil holatiga ko‘ra, Afg‘oniston aholisi 43 milliondan oshdi.[37] Aholining o‘rtacha yoshi 18.4 ni tashkil etishi iste’mol bozorining uzoq muddatli o‘sish salohiyatini ko‘rsatadi. Mamlakatning yillik import hajmi o‘rtacha $9 mlrd dan $10 mlrd gacha tebranmoqda.[38]

UN Comtrade (BMT Xalqaro savdo statistikasi bazasi) ma’lumotlariga ko‘ra, Afg‘oniston importining asosiy qismini quyidagilar tashkil etadi:[39]

Energiya resurslari (25-30%): Neft mahsulotlari, suyultirilgan gaz va elektr energiyasi; Oziq-ovqat mahsulotlari (20-25%): Un, bug‘doy, o‘simlik yog‘i, shakar; Qurilish materiallari (15%): Sement,

[35] U.V.G‘afurov, M.Sh.Xalilov, Sh.Baymuradov. Davlat iqtisodiyoti va siyosati. O‘quv qo‘llnma. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 — 224b.
[36] World Bank - Afghanistan Overview Afghanistan Economic Monitor.
[37] Afghanistan Population 2025 - United Nations Population Fund
[38] World Bank: Afghanistan Economic Monitor. December 2025
[39] UN Comtrade Database - Afghanistan

metall prokat, oyna; Tekstil va kiyim-kechak (8-12%): Paxta matolari, sintetik tolalar, tayyor kiyim-kechak va poyabzal.

Ma'lumot o'rnida Eron uzoq yillar davomida Afg'onistonning birinchi raqamli savdo hamkori bo'lib kelgan va shuningdek, importyor davlatlar orasida ham Eron Avg'oniston uchun yetakchi mamlakat hisoblanadi. Xususan, Jahon banki rasmiy saytining 2025-yil Dekabr oyidagi hisobotida Avg'onistonga tovar eksport qiluvchi davlatlar orasida birinchi o'rinda Eron — eng katta ulushdor (30.3%) sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, O'zbekiston esa bu borada yetti foizlik ulush bilan oltinchi o'rinda keltirilgan.[40] Biroq, so'nggi paytlardagi AQSh-Isroil koalitsiyasi va Eron o'rtasida yuz berayotgan ziddiyatli to'qnashuvlar har ikki tarafning iqtisodiy "holsizlanish"iga olib kelishi natijasida ularning eksport salohiyatiga ham jiddiy putur yetishi ehtimoldan holi emas. Bu esa Eron tovar-mahsulotlariga qaramligi yuqori bo'lgan Avg'oniston bozorida taqchillik yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. Ushbu taqchillikni to'ldirish uchun O'zbekiston eng muqobil variant sifatida ko'zga tashlanadi. Nima uchun?

O'zbekiston Afg'oniston bozorida Eron o'rnini egallashi mumkin bo'lgan bir qancha strategik yo'nalishlarga ega:

Elektr energiyasi: O'zbekiston Afg'onistonning shimoliy hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi asosiy subyektdir. "Surxon – Puli-Xumri" (500 kV) liniyasining ishga tushishi Afg'onistonga elektr eksportini yiliga 6 milliard kVt/soatga yetkazish imkonini beradi. Bu Eronning g'arbiy provinsiyalarga beradigan energiyasidan ko'ra barqarorroq va arzonroqdir;[41]

Oziq-ovqat sanoati: Afg'oniston oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha importga o'ta qaram. O'zbekiston esa ushbu ehtiyojni quyidagi mahsulotlar bilan qoplashi mumkin: O'simlik yog'i: Eronning ichki bozoridagi inflyatsiya fonida O'zbekistonning paxta va kungaboqar yog'i eksporti raqobatbardoshligini oshirgan; Meva va sabzavotlar: Muzlatilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot konservalari Afg'oniston bozorida yuqori talabga ega; Un va g'alla: Afg'oniston yiliga 3,5 million tonnadan ortiq un import qiladi. O'zbekistonning mahsulotlari logistik jihatdan Pokistondan keladigan unga qaraganda sifatliroq va Erondan keladigan mahsulotdan arzonroqdir;[42]

Qurilish materiallari: Afg'onistondagi infratuzilmaviy loyihalar va aholi punktlarini qayta tiklash jarayoni qurilish materiallariga bo'lgan talabni keskin oshirgan. O'zbekiston sement ishlab chiqarish quvvati yiliga 26-27 million tonnaga yetdi.[43] Afg'oniston uchun Termiz orqali sement import qilish logistik xarajatlarni 20-25% gacha tejashi mumkin. Undan tashqari O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan armatura va qurilish oynalari Eron va Xitoy mahsulotlari bilan sifat borasida raqobatlasha oladi;

Sanoat va mashinasozlik mahsulotlari: O'zbekiston Afg'oniston bozoriga tayyor sanoat mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha mintaqaviy lider bo'la oladi. Jumladan mashinasozlik (avtomobilsozlik), maishiy texnika, to'qimachilik, kimyo sanoati (mineral o'g'itlar, farmatsevtika mahsulotlari) ishlab chiqarish bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi sanoatlashgan mamlakat deb bemalol O'zbekistonni aytishimiz mumkin. Mineral o'g'itlar (karbamid, ammiakli selitra) Afg'oniston qishloq xo'jaligi uchun muhimdir. "O'zkimyosanoat" korxonasi mahsulotlari esa ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

[40] World Bank: Afghanistan Economic Monitor. Imports.December 2025
[41] O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Afg'oniston Islom Respublikasi hukumati o'rtasida bitim. 21.02.2018. "Surxon - Puli-Xumri" elektr yetkazib berish loyihasi ishga tushirilmoqda. KUN.UZ 15.09.2025
[42] O'zbekistonning Afg'onistondagi iqtisodiy loyihalari va mamlakatlar o'rtasidagi savdo ko'rsatkichlari. Gazeta.Uz
[43] «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi 27.04.2023

O‘zbekiston mahsulotlari Avg‘oniston bozori uchun Eron tovarlarining o‘rin bosuvchisi sifatida kira olish qobiliyatiga ega. Xususan, Eron eksport qilgan 70% mahsulot turlari O‘zbekistonda yetishtiriladigan mahsulotlariga mos kela oladi (oziq-ovqat, qurilish, energiya). Shuningdek, O‘zbekistonning Avg‘oniston bilan bevosita bo‘lgan temir yo‘l aloqasi va siyosiy betarafligi savdo hajmini oshirishda yanada katta imkoniyat faktori bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Hozirgi davrda global iqtisodiyot murakkab va ko‘p qirrali transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar, shuningdek yirik davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat global savdo tizimini izdan chiqarib, resurslar taqchilligi, energetika inqirozi hamda ta’minot zanjirlarining uzilishiga olib keldi. Bunday sharoitda iqtisodiy barqarorlik masalasi davlatlar uchun nafaqat iqtisodiy, balki strategik xavfsizlik masalasiga aylanmoqda.

Ushbu maqolada “Hozirgi global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash yo‘llari” mavzusi doirasida global iqtisodiy o‘zgarishlar ortidan kelib chiqadigan bir nechta muammolar mohiyati hamda ahamiyati va bu murakkab jarayonlar fonida milliy iqtisodiyotni barqaror ushlash maqsadida yangi imkoniyatlarni ko‘rib chiqgan holda tahlil namunalari keltirildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sharoitda milliy iqtisodiyot barqarorligi an’anaviy omillar bilan cheklanib qolmay, balki yangi global tendensiyalar — raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, iqtisodiy fragmentatsiya va “friendshoring” kabi jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Global iqtisodiy tizimning parchalanishi ishlab chiqarish va savdo zanjirlarining mintaqaviylashuviga olib kelmoqda, bu esa davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida moslashuvchan va strategik yondashuvchanlikni talab qiladi.

Umuman olganda, global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash ichki va tashqi omillarning uyg‘unlashuvini talab etadi. Diversifikatsiya, raqamli transformatsiya, energetika xavfsizligi, logistika tizimining rivojlanishi va inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiy tizimning tashqi shoklarga nisbatan chidamliligini ta’minlash mumkin. Aynan shu kompleks yondashuv mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va global iqtisodiy tizimda munosib o‘rin egallashining asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. .V.G‘afurov, M.Sh.Xalilov, Sh.Baymuradov. Davlat iqtisodiyoti va siyosati. O‘quv qo‘llnma. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. — 224b.
2. Makroiqtisodiy siyosat. Darslik. Asqarova M.T., Zaxidov G‘.E., Amirov L.F. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2019. – 302 bet.
3. Vahabov A.V.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 584 bet.
4. Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 234 b.
5. Abdurazakova N. Jahon moliyaviy bozorlar barqarorligiga global iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy omillarning ta’siri hamda ularni boshqarish strategiyalari.
6. Jurayev R.R. Global inflyatsiya bosimi va uning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga ta’siri.
7. “Economic impact of the 2026 Iran war”, Wikipedia.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA KORXONA MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHDA TRANZAKSION XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH (“OKMK” AJ MISOLIDA)

Jo‘rayeva Zulayho Zafar qizi
Geologiya fanlari universiteti
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19675361

Annotatsiya. *Maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish masalasi nazariy jihatdan o‘rganilgan. Shunga ko‘ra, “Olmaliq KMK” AJ misolida korxonaning moliyaviy holati, eksport salohiyati hamda investitsiya loyihalari tahlil qilingan. Ayni shu ko‘rsatkichlarga asoslangan holda, tranzaksion xarajatlarni kamaytirishda raqamli texnologiya, ya’ni blockchain tadbiq etilishining iqtisodiy samaradorligi shartli ravishda yoritib berilgan.*

Abstract. *The article theoretically studies the issue of effective management of financial resources of industrial enterprises in conditions of sustainable economic development. Accordingly, the financial condition, export potential and investment projects of the enterprise are analyzed on the example of "Almalyk KMK" JSC. Based on these indicators, the economic efficiency of the implementation of digital technology, namely blockchain, in reducing transaction costs is illustrated in a conditional manner.*

Аннотация. *В статье теоретически исследуется вопрос эффективного управления финансовыми ресурсами промышленных предприятий в условиях устойчивого экономического развития. Соответственно, на примере АО «Алмалык КМК» анализируются финансовое состояние, экспортный потенциал и инвестиционные проекты предприятия. На основе этих показателей в условном виде иллюстрируется экономическая эффективность внедрения цифровых технологий, а именно блокчейна, в снижении транзакционных издержек.*

Kalit so‘zlar: *Moliyaviy resurslar, eksport, tranzaksion xarajatlar, raqamli transformatsiya, CBAM (uglevod solig‘i), ESG, OKMK AJ, investitsiya.*

Kirish: Bugungi kunda zamonaviy raqamli transformatsiya hamda “Yashil iqtisodiyot” sharoitida mavjud nazariyalarga tayangan holda davriy xususiy qonuniyatlardagi tebranishlar natijasida qayta ko‘rib chiqib, jarayonga muvofiqlashtirishni taqozo qilmoqda. Aynan shu omillarni hisobga olgan holda, iqtisodchi olimlari va Nobel mukofoti sovrindorlari Ronald Kouzning tranzaksion xarajatlar[44] va Duglas Nortning institutsionalizm[45] nazariyalari tog‘-kon sanoatida moliyaviy resurslarslarni boshqarishdagi samarali yo‘llarini ishlab chiqish, hamda amaliy jarayonga transformatsiya qilinishni talab qilmoqda. Shu boisdan, maqolada ushbu nazariy yondashuvlar fundamental ahamiyati va jarayonga qanday tadbiq qilish izohlangan.

[44] Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. Economica, 4(16), 386-405.
[45] North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

Ronald Kouz bozor operatsiyalarida asosiy xarajatlari ma'lumot qidirish, audit va shartnoma nazorati deb hisoblagan hamda bu xarajatlarning yuqori bo'lishini samaradorlik ko'rsatkichi pasayishiga olib keluvchi omil sifatida baholagan. Demak, Blockchain texnologiyasi orqali tog'-kon mahsulotini kelib chiqishini tekshirish audit xarajatlarini minimumga tushiradi, bu esa o'z navbatida Nash muvozanatiga ko'ra, xaridorning mahsulotlarni bizdan sotib olishiga turtki beradi.

Nobel mukofoti sovrindori Duglas Nort iqtisodiy rivojlanishning asosini institutsional ya'ni, qonunlar, standartlar, qoidalardir deb izohlagan va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi degan nazariyani ilgari surgan. Shunga asoslanib, xalqaro ESG va CBAM standartlari va solig'i shunchaki to'siq emas, balki "Institutsional renta" ya'ni, "Ustama narx" sifatida qayta talqin qilinishi uchun fundamental asosdir.

Asosiy qism: Institutsional rentani shakllantirish, ya'ni, eksport zanjiriga maxsus "Institutsional filtr" o'rnatiladi. Ushbu mexanizm 3 ta komponent asosiga quriladi. Ulardan biri, yashil standard — uglerod bojlaridan ozod bo'lish, ya'ni, soliq optimizatsiyasi bo'lsa, ikkinchisi, raqamli shaffoflikni ta'minlash, demak, monitoring hamda audit xarajatlarini 70-80%gacha qisqartirishni o'z ichiga olsa, uchinchisi, ijtimoiy mas'uliyat hisoblangan ESG reytingining oshishi va arzonroq kredit liniyalariga yo'ldir. Natijada, ustama narx olish, mijozlarning lock-in-effect tamoyili asosida bog'lanib qolishi va strategik hamkorlik maqomiga erishish maqsad qilinadi. Aynan shu strategik og'ish matritsasini tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqi 2023-yildan boshlab po'lat, alyuminiy, sement va elektr energiyasi importiga aynan CBAM, ya'ni, uglerodli chegara solig'ini joriy etishni boshlagan. Agar mis yoki alyuminiy kabi xomashyo qazib olinayotganida atmosferaga ko'p CO2 chiqarilgan bo'lsa, importyor olib kirayotgan har bir tonna uchun uglerod jarimasini to'laydi. Shunga ko'ra, strategik og'ish orqali yashil standartga o'tilsa, xaridor Yevropada ushbu soliqdan tonnasiga o'rtacha 80-100 yevro ozod bo'ladi. Aynan shu tejab qolingan pulning bir qismi bizga "ustama narx" bo'lib qaytadi.

AQSh va Yevropa normativ-huquqiy qonunlari "Dodd-Frank-Act"ga ko'ra, agar kompaniya ishlab chiqargan mahsulotining tarkibidagi metal qayerdan kelganini, u yerda bolalar mehnati ishlatilmaganini isbotlab berolmasa, juda katta reputatsion jarima hamda qo'shimcha audit audit xarajatlarini to'lashga majbur bo'ladi. Shuning asosida, ijtimoiy-madaniy brendimiz hamda blockchain orqali har bir kg mahsulotimiz toza ekanligini ta'minlab bersa, importyor audit xarajatlarini 5-10% ga qisqartiradi.

Agar korxona bizning stategik og'ish natijasida yaratilgan yashil misni olsa, Xalqaro moliyaviy institutlardan past foizli kreditlar olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ESG standartlarini to'liq joriy etishning negizida yotadi.

Natijada, tashqi bojlar, tranzaksion xarajatlar, kapital xarajatlari kamayishiga xizmat qiladi.

Eksport — bu davlatlararo bitim emas, balki korxonalararo oldi-sotdi operatsiyalari mexanizmi. Ammo, sof kapitalistik iqtisodiyotda xususiy korxonalar davlat o'rnatgan soliqlar, bojlar, kvotalar ichida harakat qiladi. Shuning uchun, yashil mis konseptsiyasi ayni korxona foydasini maksimal darajaga chiqarishga yordam beradi. Chili va Avstraliya kabi davlatlar ushbu mexanizmni ishlab chiqib amaliyotga tadbiq qilmoqda. Chili — dunyodagi eng yirik mis eksportchisi. Ular shunchaki mis sotishdan vos kechib, "Green Copper" standartini yaratishdi. Chili davlat kompaniyasi bo'lgan Codelco va xususiy konlar misni faqat qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol) yordamida qazib olishni sertifikatlaydi. BMW, Tesla va boshqa xususiy gigantlar Chili misini raqobatchilardan ko'ra 5-7% qimmatroq sotib olishadi. Chunki bu misni import qilish orqali ular o'z mamlakatlarida "ekologik jarima" to'lashmaydi. Avstraliyaning temir rudasi va litiy

qazib oluvchi Rio Tinto va BHP (xususiy korporatsiyalar) kompaniyalari “Shaffof ta’minot zanjiri” standartini joriy qildi. Ular har bir tonna ruda uchun raqamli “pasport” beradi. Bu pasportda ruda qazish jarayonida ishchilarga qancha haq to‘langani va atrof-muhitga qancha zarar yetgani yoziladi. Uning importyorlari hisoblangan Xitoy va Yaponiya po‘lat zavodlari xususiy korxonalar bu “toza” rudani olishga majbur, chunki, xalqaro banklar “toza” xomashyo ishlatgan zavodlarga past foizli kredit beradi.

“OKMK” AJ misolida tahlil.

S&P Global — bu to‘g‘ri moliyaviy qaror qabul qilish maqsadida, moliya bozori uchun tahliliy ma’lumotlar, kredit reytinglari hamda benchmark ko‘rsatkichlarini taqdim etuvchi, ikkita yirik moliyaviy nashriyotning birlashishidan kelib chiqqan dunyodagi eng yirik Amerika korporatsiyasidan biri hisoblanadi va S&P 500 indeksini boshqaradi. Bu indeks AQShning eng yirik 500 ta kompaniyasining aksiyalari dinamikasini aniqlab boradi hamda jahon iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Demak, SWOT hamda VRIO tahlillariga ko‘ra, S&P Global va Fitch Ratings tomonidan OKMKga “B+”, “BB-” barqaror darajasi berilgan. Xalqaro moliya tilida bu darajalar spekulyativ yoki investitsion bo‘lmagan reyting deb izohlanadi. Demak, bu kombinatning qarzini to‘lash qobiliyati borligini, ammo u tashqi iqtisodiy vaziyatga, masalan, jahon bozorida mis narxining o‘zgaruvchanligiga bog‘liqligini bildiradi. Shunga ko‘ra, “B+” o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga layoqatli ekanligini, lekin tashqi omillar ta’siri natijasida yuzaga keladigan risklar mavjudligini anglatsa, “BB-” barqaror darajasi bir pog‘ona ustunlik beradi nisbatan, bu reyting barqaror va defolt xavfi kamroq ekanini ko‘rsatadi. Korporatsiya tomonidan berilgan barqaror prognozi yaqin kelajak 12-24 oy uchun xulosasi bo‘lib, bu reyting yaqin orada pasaymasligini yoki ko‘tarilmasligini, balki kombinat o‘z darajasini barqaror saqlab turadi degan ma’noni bildiradi. Bu esa, investorlar uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Bu reytinglar qanchalik yuqori bo‘lsa, ya’ni, pog‘onasi oshib borsa, xalqaro banklar OKMKga shuncha past foizli kredit beradi. Aynan shu omil darajasi dunyodagi yirik investorlar OKMK aksiyalari yoki obligatsiyalarini sotib olish imkoniyatini belgilab beradi. Ushbu reytinglar yangi loyihalarni moliyalshtirish uchun juda zarur va mis narxiga yoki aksiyalariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Natijada, moliyaviy quvvatini belgilovchi omil bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 16-mart kuni 2026-yil 3-mis boyitish fabrikasining ilk bosqichi — filtrlash korpusining ko‘zdan kechirilishi kombinatning nafaqat hududiy, balki global miqyosdagi o‘rnini mustahkamlaydi.

“Yoshlik-1” va “Qalmoqqir” konlaridagi 45 million tonna mis va 5 ming tonnadan ziyod oltin zaxirasi O‘zbekistonni mis xomashyosi bo‘yicha dunyodagi eng yirik ishtirokchilar qatoriga olib chiqadi hamda mamlakatning strategik xavfsizligi bo‘lib xizmat qiladi. 100 yillik kafolatli xomashyo bazasi bu kamida uch avlod uchun barqaror ish o‘rinlari va budjet tushumlari demakdir.

Yangi ochilgan MBF-3 zamirida yuqori texnologiyaga asoslangan, samaradorlik va qo‘shimcha qiymat hosil qiladi, ya’ni faqat xomashyo emas, balki tayyor konsentrat va kelgusida yuqori sifatli mis katodi ishlab chiqarish hajmi Keskin oshadi. Natijada, S&P Global reytinglari oshadi va investorlar uchun ishonchli hamkorga aylanadi. Bu loyihaning ishga tushganligi davlatimiz uchun mis klasteriga aylanish yo‘lidagi islohotlarning eng katta bo‘lagidir.

Hozirda OKMK davlat korxonasi bo‘lganligi tufayli uning bir qismi davlat budjeti bilan chambarchas bog‘langan. Agar kompaniya aksiyalarining sezilarli qismi, masalan, 15-25 % xalqaro investor qo‘liga o‘tsa, OKMK mustaqil yuridik shaxs sifatida maqomini mustahkamlagan bo‘ladi. Natijada, OKMK “davlatning bir bo‘lagi” emas, balki “o‘z mablag‘larini mustaqil boshqaradigan korporatsiya” deb reyting olishiga yo‘l ochadi. IPOga chiqish OKMK xalqaro standartlarga to‘liq moslashishini talab qiladi. Har chorakda xalqaro auditorlar hisobotlarini tekshiradi va bu shaffoflik, korporativ boshqaruvdagi ishonchni ta’minlab beradi. Aksiyalarni ochiq savdoga chiqarish OKMKga moliyaviy mustaqilligini ta’minlab, milliardlar dollar tog‘ridan-tog‘ri investitsiya jalb qiladi. Kredit olganda foiz to‘lash majburiyati borligi reytingga bosim o‘tkazadi, aksincha, aksiylarni sotganda esa qaytarish sharti bo‘lmagan sarmoya keladi. Demak, qarz emas, sarmoya tamoyili ishlaydi. Bu esa o‘z navbatida, OKMKning balansini barqarorlashtiradi va reyting agentliklari tomonidan yuqoriroq baho beriladi.



1-rasm. Vernon tahlili. Institutsional yondoshuv[46].

Blockchain-monitoring tatbiq etish va marketing strategiyalarini optimallashtirish.

Mis eksport qilish jarayoni dastabki qazib olishdan to iste’mol bozori, ya’ni, yakuniy iste’molgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni monitoring qilish aynan blockchain-monitoring mohiyati hisoblanadi. Bunga kelib chiqish sertifikati, ekologik standartlar ESG reytingi, logistik samaradorlik darajasi kabi bir qator omillar hisobga olingan holda monitoring qilinadi. OKMK AJ LMEga mahsulot yetkazib beruvchi yirik ishtirokchi sanaladi. LMEpassport tizimida OKMK brendi ro‘yxatdan o‘tgan, lekin har bir tonna mis uchun individual raqamli “passport”, ya’ni, blockchain-monitoring to‘liq joriy qilishni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Buning uchun har bir tayyor mis katodi yoki o‘ramiga maxsus QR-kod yoki RFID-tag foydalaniladi chunki bu mahsulotning qaysi kondan, qancha muddatda ishlab chiqarilganligi hamda laboratoriya tahlili natijalari haqida ma’lumot olish imkonini beradi. Keyingi bosqichlarda LMEpassport bilan integratsiya bo‘lib, bunda yuborilgan hujjatlar asosida OKMK mahsulotning ESG ko‘rsatkichlarini LMEpassport platformasiga yuklaydi. Bu jarayonning tashkil qilinishi importyor QR-kodni skanerlaganida, mahsulot sifatini va boshqa ko‘rsatkichlari bilan tanishib chiqish imkonini beradi. Umumiy olganda, OKMKning xalqaro barqarorlik sertifikatlarini ko‘ra oladi va sodiq hamkorga aylanishi mumkin.

Blockchain zanjirini yaratish — ma’lumotlarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan zanjirga kiritishni o‘z ichiga oladi. Bu tizim logistika yo‘nalish harakatining nazoratini beribgina qolmay, mis xaridorga yetib borgach, tizim avtomatik ravishda “yetkazildi” xabarini beradi bu esa to‘lov jarayonini tezlashtiradi.

[46] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Pasport joriy qilingach, OKMK marketing strategiyasini yuqorida keltirilgan “Yashil mis” tamoyili asosida ishlatsa bu pasportda aks etadi va nazarda tutilgan ustama narx hisobiga qimmatroq sotish imkonini beradi. Shu bilan birga bu mexanizm to‘liq ishga tushishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri nufuzli gigant korxonalar bilan sotuv amalga oshirish uchun vositachisiz shartnoma tuzishni osonlashtiradi, yani, yangi bozor, yangi hamkor, yangi yo‘l ochadi.

Natija: Shartli hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, eksport jarayonlariga taklif qilingan mexanizm qo‘llanilsa, mahsulotning bozordagi qiymatini oshirish va operatsion xarajatlarni Keskin kamaytirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Demak, an’anaviy tizimda 1 tonna mahsulot eksporti uchun sarflanadigan tranzaksion xarajatlar 625 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, blockchain tizimida bu ko‘rsatkich 125 dollargacha, ya’ni 5 baravargacha qisqargan. Logistika vas ug‘urta 150 dollar, audit va risklarni boshqarish 130 dollar, hamda bank va hujjat aylanishi 125 dollar tranzaksion xarajatlarning qisqarishi yuzaga kelmoqda.

Tizim joriy etilishi ustama sabab narx 3 %ga oshgan 375 dollar tejamkorlik hisobiga har bir tonna mahsulotdan qo‘shimcha 875 dollar samaradorlik bermoqda. Solishtirma samaradorlik 3-7 % atrofida ijobiy o‘sish kutilgan.

Natijada, yillik umumiy iqtisodiy samara 87,5 million dollarga teng bo‘lmoqda. Agar faqatgina narx o‘sishi hisobiga shakllangan bo‘lsa, yillik sof iqtisodiy foyda 37,5 million dollarni tashkil etadi. Har bir tonna mahsulotdan olinadigan 875 dollarlik qo‘shimcha samara loyihaning o‘zini oqlash muddati qisqa ekanligini xalqaro raqobatbardoshlikni tubdan oshirishini anglatadi.

Xulosa va takliflar

OKMK AJ misolida amalga oshirilga tahlillar asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jahon bozorida mis mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda hamda prognozlar ham bu sohada talab yuqori bo‘lishi, taqchillik hollari kuzatilishi mumkinligini asoslab bermoqda. Ayni shu omillar OKMK eksportning samarali yo‘llarini ishlab chiqish uchun taklif etilgan raqamli blockchain texnologiyasini eksport zanjirida qo‘llashini rag‘batlantiradi. Uning komponentlariga asoslangan model orqali jarayonga amaliy yondoshuvi bo‘lsa, kontragentlarni tekshirish jarayoni, hujjat aylanishi boshqa yuqorida nomi sanalgan barcha tranzaksion xarajatlar amalda 625 dollardan 125 dollargacha, ya’ni 5 baravar qisqarishi imkonini beradi. Boshqa tarafdan, mamlakatimiz tog‘-kon sanoatining eksportini oshirishning eng samarali yo‘li qo‘shimcha qiymat yaratish bo‘lgan “Mis klasteri” doirasidagi misni chuqur qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish orqali bu ko‘rsatkich 2,2 baravardan 3 baravargacha oshirish mumkin. Bu nafaqat mamlakatga valyuta tushumini ko‘paytiradi, balki tarmoqda yangi va barqaror ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Eksportni rag‘batlantirishda nafaqat iqtisodiy, baki ijtimoiy, ya’ni institutsional omillar ham muhim ahamiyatga ega. Aynan taklif etilgan institutsional renta koeffitsiyenti orqali eksport jarayonida byurokratik to‘siqlarni doimiy monitoring qilib boorish zarur. Ushbu mexanizm OKMKga joriy etilishi JSTga a’zo bo‘layotgan bir vaqtda tashqi bozorda raqobatbardoshlikni o‘rtacha 15-20 foizga oshiradi.

Global ekologik standartlar ESG va CBAM uglerod solig‘i mexanizmi joriy qilingan bozor sharoitida korxona ayni shu talablarga to‘liq moslashishini taqozo qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan ushbu chora-tadbirlar yig‘indisi davlatimiz iqtisodiyoti va kelajagi uchun, tog‘-kon sanoati korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yangi bosqichlarga olib chiqishga, eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga moliyaviy resurslar boshqaruvini optimallashtirishga xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akromov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili.–T.: Moliya, 2010, -223 b.
2. Usmonov R.A. “Sanoat tarmoqlari iqtisodiyoti”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 298 bet.
3. Aguilar F.J. (1967), Scanning the Business Environment, Macmillian.
4. Cadle, J., Paul, D. and Turner, P. (2010), Business Analysis Techniques, 72 Essential Tools for Success, BCS The Chartered Institute for IT.
5. Vahabov A.V.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015.
6. Iqtisodiyot nazariyasi darslik 2-qism. Sh.Shodmonov, Toshkent-2025.-35b.
7. Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. Economica, 4(16), 386-405.
8. Nash, J. (1950). Equilibrium points in n-person games. Proceedings of the National Academy of Sciences.
9. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
10. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
11. Barney, J. B. (1991). Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management.

IQTISODIY O‘SISH MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNING PIROVARD NATIJASI SIFATIDA

Toshmamatova Zuhra Shermatovna
Guliston davlat universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19648023

Annotatsiya. *Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda milliy iqtisodiyotning makrodarajadagi barqarorligi asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqolada makroiqtisodiy barqarorlikning nazariy jihatlari, makroiqtisodiy barqarlorlikka erishish yo‘llari, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda hududiy o‘sishni ahamiyati, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalari ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy o‘sish, iqtisodiy muvozanatlik, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish unumdorligi, iqtisodiy o‘sish turlari.*

Аннотация. *В обеспечение экономического роста основным фактором является макроэкономические стабильности национальной экономики. В данной статье основное внимание уделено на раскрытые теоретические аспекты макроэкономической стабильности пути достижения макроэкономической стабильности, решения проблемы обеспечения экономического роста.*

Ключевые слова: *экономические равновесия, экономический рост, экономическая стабильност, производственая производительность, виды экономического роста.*

Abstract. *Macroeconomic stability is the main factor of ensuring economic growth. Theoretical aspects of macroeconomic stability, problems of ensuring economic growth, ways of reaching macroeconomic stability are discussed in the given article.*

Keywords: *Economic equilibrium, economic growth, economic stability, efficiency of production, types of economic growth.*

Kirish. Iqtisodiy o‘sish iqtisodiyot erkinlashuvining chuqurlashuvi va miqyosi kengayishi, valyuta bozorining barqarorlashuvi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal sur’atlarda rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida iqtisodiyot sohasida yuz bergan tub o‘zgarishlar asosida keyingi bosqichning strategik maqsadlari va yo‘nalishlari: iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va shu negizda iqtisodiy barqaror o‘sishni ta’minlab, bozor munosabatlarini to‘liq joriy etish belgilab olindi.

Keyingi yillarida xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli tovarlar ulushining ortishiga qaratilgan tarkibiy siyosatni amalga oshirish natijasida mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining pasayishi va sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalarining ulushi ortishi kuzatilmoqda.

Bu esa bank tizimining mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur’atlarini saqlash va milliy ustuvor tarmoqlar raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashdagi o‘rnini kengaytirishga xizmat qildi. Ushbu vazifalar doirasida bank tizimi nazoratini Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, bank tizimi va alohida banklarning yuqori xalqaro reyting baholariga ega

bo‘lishini ta’minlash, tijorat banklarining resurs bazasini yanada kengaytirish, ularning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, tarmoqlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladigan kreditlar hajmini ko‘paytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Iqtisodiy o‘sish muayyan qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi. Ba’zan uni harakatlantiruvchi kuch siklik ahamiyat kasb etsa, boshqa paytlarda ekstensiv va intensiv omillarga bog‘liq bo‘ladi. Shubhasiz, davlatning siyosati iqtisodiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi yoki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy institutlarga ta’sir etishi orqali bilvosita ta’sirga egadir. Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarda sodir bo‘lishi yoki sustlashuvi ayrim hollarda siklik hususiyatga emas, balki aynan davlat siyosatining amalga oshirilishi bilan bog‘liqligi kuzatiladi.

Odatda, yuqori sur’atdagi iqtisodiy o‘sish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilayotgan davriga to‘g‘ri keladi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan **innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz.** Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz ”[47].

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibining ahamiyati iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda, ularning samaradorligini oshirishda va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda ko‘rinadi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mamlakatlar rivojlanishining xususiyatlariga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashdagi muhim omillardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarni baholashda iqtisodiyot tarkibiga asosan tarmoq, takror ishlab chiqarish, mintaqaviy va tashqi savdo jihatidan qaraladi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar tarmoq jihatdan qaralganda, asosiy uch tarmoq: sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar ko‘rsatish sohalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi yoki ushbu tarmoqlarda band bo‘lgan aholi soniga qarab aniqlanadi. Mamlakat iqtisodiy o‘sishining dastlabki bosqichlarida mazkur uch tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi jihatidan qishloq xo‘jaligi ustunlik qilsa, iqtisodiy o‘sishning keyingi bosqichlarida sanoat va yuqori iqtisodiy o‘sish pallasida esa xizmatlar ko‘rsatish sohasining yetakchilik qilishi kuzatiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoatning qazilma tarmoqlariga nisbatan qayta ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari ko‘proq iqtisodiy naf keltiradi, u ichki bozorga mo‘ljallangan. Lekin shuni aytish kerakki, ichki bozorning sotib olish qobiliyati har doim ham yetarli darajada emas, shuning uchun tayyor sanoat mahsulotlarini keng eksport qilishning zarurati tug‘iladi. Shuningdek, iqtisodiyotda mahalliy tabiiy resurslardan foydalanayotgan xom ashyo tarmoqlari ham yangi texnologiyalar asosida rivojlanishi zarur. Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy siljishlar sanoat

[47] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2024 yil. http://www.press-service.uz/ru/lists/view/

tarmoqlarining sifat jihatdan siljishi, ko‘p resurs foydalanishdan resurslarni tejash texnologiyasiga o‘tishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashdagi muhim omillardan biri sifatida unig hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tizimli tahlil qilindi. Ishda iqtisodiy tahlil, statistik ma’lumotlarni solishtirish, kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Rus iqtisodchi olimi S.D. Alekseyevichning fikricha, iqtisodiyot tarkibi uzoq muddatli davrda mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. U miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo‘lib, milliy iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiyot tarkibi mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligi va havfsizligini tavsiflaydi. Shuning uchun iqtisodiyotda miqdoriy va sifat jihatdan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir [4].

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ya’ni iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va uning tashqi hamda ichki o‘zgarishlarga moslashishi zaruriyatini aniqlovchi ishlab chiqarish kuchlarining katta miqdordagi tarkibiy o‘zgarishlarini ifodalaydi. Bunda muhim maqsad: ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, jumladan, korxonalarning samarasiz bo‘g‘inlarini yo‘q qilish yoki qo‘shib yuborish, jismonan va ma’nan eskirgan asosiy vositalarni almashtirish, texnik yangiliklarni kiritish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishdir. Bularning bari tarmoqlararo, hududiy, texnologik, institutsional va ishlab chiqarishning boshqa muhim tarkibiy siljishlariga olib keladi.

Iqtisodchi olim A.A. Kushnarevning fikricha, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni, jahon va milliy bozorlarda raqobatbardoshlikni kamaytiruvchi yoki oshiruvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sektorlari, hududlar, korxonalar turlari, texnologik ukladlar va iqtisodiy tizimning boshqa elementlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlarning mavjud o‘zgarishi hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining yuqori darajada saqlanishi va barqaror saqlanishining asosiy omillari bo‘lib, eksport salohiyatining yuqori sur’atlarda oshishi hamda iqtisodiyotda keng ko‘lamdagi investitsiyalarning amalga oshirilishi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Har bir rivojlanayotgan va iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirayotgan mamlakat kabi O‘zbekistonda ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish doim ustuvor masala bo‘lib kelgan. Jahon amaliyotida xorijiy investitsiyani jalb qilishda ikki masalaga katta e’tibor beriladi:

birinchidan, xorijiy tadbirkor kapitalni milliy iqtisodiyotga bir marta olib kiradi (ishlab chiqarishni xarid qilish yoki tashkil etishda), uning daromadi repatriatsiya qilinishi esa uzluksiz davom etadi. Daromadning qayta investitsiyalash masalasi esa ancha nozik hisoblanadi va bunday qarorni qabul qilinishi mamlakatdagi umumiy investitsiya muhiti va valyuta konvertatsiyasi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi;

ikkinchidan, xorijiy tadbirkor kapitalni asosan milliy iqtisodiyotning maksimal darajada foyda olish imkoni mavjud sohalariga yo‘naltirishga harakat qiladi. Bu, o‘z navbatida, sohalarni rivojlantirishda milliy manfaatlarga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Shu bilan birga, ekologiya me’yorlari yuqori bo‘lgan rivojlangan mamlakatlardan ekologiyaga ahamiyat bermaydigan

rivojlanayotgan mamlakatlarga atrof muhitga zarar keltiradigan korxonalarning kirib kelishi masalasi ham muhim o‘ringa ega.

Ma’lumki, mamlakat investitsiya muhitini ijobiy baholashda, avvalambor, siyosiy barqarorlikka katta ahamiyat beriladi. Mamlakatda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik investor o‘z faoliyatini sinchkovlik bilan rejalashtirish va darhol foyda olish emas, balki uzoq muddatga mo‘ljallangan investitsiya loyihalarini tuzishi uchun zamin yaratadi. O‘zbekistondagi investitsion muhit Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida eng barqarori hisoblanadi.

Bozor amal qilayotgan har qanday mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash xo‘jalik yuritish shakllarining olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar talabiga qay darajada javob berishi bilan hamda amal qilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyotni barqarorligi va uni iqtisodiy jihatdanrivojlanishi, eng avvalo makroiqtisodiyot darajasida iqtisodiy muvozanatlikka erishishni talab etadi.

Iqtisodiy muvozanatlik esa milliy iqtisodiyotning amal qilish shakli bo‘lib, uning harakat darajalari va qo‘lami turlicha bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida iqtisodiy muvozanatlik bizning fikrimizcha, shunday iqtisodiy jarayonki, bunda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning asosiy qismiy o‘z iqtisodiy faoliyatlaridan qoniqish hosil qilishib, uni o‘zgartirishga iqtisodiy sabab qidirmaydi. Ammo bizning fikrimizcha, bunday holat qisqa muddatlidir, chunki bu holda ishlab chiqaruvchi sub’ektlar o‘rtasida iqtisodiy raqobatni chuqurlashtirishga, o‘zoq muddatga mo‘jallangan strategik rejalar, dasturlar tuzishga hamda ularni amalga oshirishga majbur qiladi. Demak, har qanday shakldagi iqtisodiy muvozanat nisbiy xarakteriga ega bo‘lib, ularni makrodarajada uzoq muddat ichida saqlanishi iqtisodiy barqarorlik kategoriyasi bilan ifodalanadi.

Iqtisodiy barqarorlik tushunchasini mazmuni uzviy bog‘langan ikki jarayon o‘rtasidagi muvozanatning qisqa davr ichida, saqlanib turishini ifodalaydi. Makrodarajadagi iqtisodiy barqarorlik eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanat orqali erishiladi. Hamda qlar o‘rtasidagi muvozanat boshqa iqtisodiy muvozanatni ta’minlashga asos yaratadi va ta’sir ko‘rsatadi. Bunday maroiqtisodiyot darajasidagi muvozanatlarga ishlabchiqarish bilan is’temol, ishlab chiqarish bilan jamg‘arma, aholining shaxsiy pul daromadlari bilan aholi is’temol tavarlari va xizmatlari, bozordagi investitsion tovarlar bilan aholi is’temol tovarlari, nominal ish haqi bilan real ish haqi, ishlab chiqarish omilarining sarflanish natijalari bilan daromadlarning taqsimlanishi o‘rtasidagi muvozatliklar kiradi. Bir holatini inobatga olish zarur ya’ni, iqtisodiy muvozanatlarni amaldagi kurinishlaridan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni qanoatlanishi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlantirishning muhim sharti hamdir. Shu bilan birgalikda u makro va mikro iqtisodiyot miqyosida iqtisodiy o‘sishni muhim omili bo‘lib, xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha masalaning ikkinchi tomoni ham bor, ya’ni iqtisodiy faoliyati bilan shug‘ulayotganlarni mavjud iqtisodiy sharoit qanoatlantirsa hamda iqtisodiy faoliyatining bundan keyingi harakatidan manfaatdorligi, qiziqishni ortishiga yordam berishiga sharoit yaratilsa, o‘shandagina iqtisodiy o‘sish ro‘y berishi mumkin. Agar, jamiyatda vujudga kelgan iqtisodiy muvonatlik holati iqtisodiy sub’ektlar manfaatiga, qiziqishga zid kelsa, jamiyat mavjud iqtisodiy resurslaridan samarali foydalana olmaydi, iqtisodiy o‘sish sur’ati, aholi turmush darajasi pasayib va iqtisodiyotda tanglik alomatlari paydo bo‘la boshlaydi.

Iqtisodiy faoliyat sub’ektlarini jamiyatdagi mavjud iqtisodiy shart-sharoitdan qoniqishi, ularni tashabbuskorligining o‘zaro uyg‘unlashuvi, iqtisodiy muvozanatlikda o‘z ifodasini topadi. Bu holda iqtisodiy muvozanat ishlab chiqarishning shakli va turidan qat’iy nazar bozor sub’ektlarining faoliyatining faolashtirishga undashi lozim.

Iqtisodiy rivojlanish tug‘risida so‘z yuritganda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, balki ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa iqtisodiy ko‘rsaikichlar, ya’ni xo‘jalikning ustav kapitali oshishi, daromadi foyda miqdorining kupayishi, xo‘jalikda ishlaydiganlarning soni ish haqi miqdori, kapital sig‘imi va qaytimi kabi ko‘rsatkichlarning ijobiy tamonga o‘zgarishning qamrab oladi.

Demak, iqtisodiy o‘sish deganda, qisqa davr davomida real ishlab chiqarishning ko‘paiyishini emas, balki o‘zoq davr ichida, iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqan holda, real ishlab chiqarishning iqtisodiy resurslar bilan birgalikda o‘zgarishi yoki o‘zoq vaqt oralig‘ida ishlab chiqarish salohiyatini bir muvozanatlik holatidan ikkinchi muvozanatlik holatiga o‘tishi tushunishi lozim. Iqtisodiy o‘sishini o‘rganishda asosiy e’tiborini uning sur’atlariga berish lozim.

